

B.S.Abdullayeva, D.F.Xalilova

“TARBIYACHINING ISH HUJJATLARI”

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent – 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

B.S.Abdullayeva, D.F.Xalilova

“TARBIYACHINING ISH HUJJATLARI”

O‘QUV QO‘LLANMA

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi:	60110200 – Maktabgacha ta‘lim

Toshkent – 2022

Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlarining talabalari va akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining uslubchilari va tarbiyachilari uchun mo'ljallangan bo'lib, "Tarbiyachining ish hujjatlari" o'quv fan dasturi asosida tayyorlangan. Qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya va metodik ishlarni zamon talablari darajasida yangicha yondashgan holda tashkil etish hamda hujjatlar yuritilishida ta'lim mazmuni samaradorligini oshirish, bakalavr yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining faoliyati va unga qo'yilgan talablar, ish hujjatlarini to'g'ri yuritilishi tartibi va ish samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Аннотация

Данное учебное пособие предназначено для студентов педагогических вузов и учащихся академических лицеев, профессиональных колледжей, методистов и воспитателей организаций дошкольного образования. Подготовлено на основе учебной программы "Рабочие документы воспитателя". Учебное пособие обеспечивает современный подход к организации учебно-методической работы в дошкольном образовании и повышает эффективность содержания образования в области документирования и служит повышению эффективности работы.

Annotation

This textbook is intended for students of pedagogical universities and students of academic lyceums, professional colleges, methodologists and educators of preschool education organizations. Prepared on the basis of the curriculum "Working documentations of the educator". This textbook provides a modern approach to the organization of educational and methodological work in preschool education and increases the effectiveness of the content of education

in the field of documentation and serves to increase vwork efficiency.

Mualliflar: pedagogika fanlari doktori, professor B.S.Abdullayeva
Maktabgacha ta'lim fakulteti D.F.Xalilova
o'qituvchisi

Ilmiy taqrizchilar: pedagogika fanlari nomzodi (PhD), dotsent N.Sh. Abdullayeva
pedagogika fanlari nomzodi, v.b professor Sh.A. Sadikova

Авторы: доктор педагогических наук, профессор Б.С.Абдуллаева
реподаватель факультета “Дошкольного образования”
Д.Ф. Халилова

Научные рецензенты: кандидат педагогических наук, доцент Н.Ш. Абдуллаева
кандидат педагогических наук, и.о.профессора Ш.А. Садикова

The authors: doctor of pedagogical sciences, professor B.S. Abdullayeva
teacher of the Faculty of Preschool Education D.F. Khalilova

The scientific reviewvers: Candidate of Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
N.Sh. Abdullayeva
Candidate of Pedagogical Sciences, Acting Professor
Sh.A. Sadikova

Ushbu o'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
O'quv-uslubiy Kengashi qarori bilan (2022 yil _____dagi____-sonli majlis
bayonnomasi) nashrga tavsiya qilingan.

KIRISH

Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Sh.M.Mirziyoyev

Hozirgi globallashuv jarayonida maktabgacha ta'lim sohasida Uchinchi Renessansning bosh halqasi sifatida ko'plab islohotlar amalga oshirilmogda. Shu jumladan Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30- sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. 2016-2022 yillarda maktabgacha ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar jadal su'ratlar bilan o'sish yaqqol ko'zga tashlandi. Ko'p yillar davomida maktabgacha ta'lim tizimini qiynab kelayotgan muammolar birin ketin o'z yechimini topdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlar xorijiy davlatlarning ilg'or ish tajribasi asosida zamon talablariga hamohang tarzda tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-MH sonli buyrug'iga asosan "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi tasdiqlandi. Mazkur dasturlarning amalda joriy etilishi, shu asosda maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish uchun asos bo'ladi.

Bugungi kun talabi avvalo tarbiyachidan chuqur bilim, malaka zamonaviy kreativ bo'lish bilan bir qatorda zamon bilan hamnafas sohadagi yangiliklarni amaliyotga qo'llay oladigan darajada tashabbuskorlikni talab qiladi. Oliy ta'lim tizimida Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarga nazariy bilim berish bilan bir qatorda olingan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq eta oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlab berish bizning asosiy maqsadimizdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida eng katta ehtiyoj tarbiyachining kasbiy-pedagogik yetuklikka ega bo'lishidir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining mutaxassisi nafaqat ma'lum bir maxsus, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs, balki yangi Renessans pedagogikasining qonun, qonuniyatlari va mezonlari sifatida keltirilgan jihatlarga, ya'ni ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda maqsadni jamiyatning ehtiyojlariga mos holda qo'ya biladigan, milliy va umuminsoniy madaniyatga munosabat bildira oladigan, ijobiy psixologik muhitni qaror toptira oladigan, bolalar jamoasidagi vazifalari, ish faoliyatidagi fidoyiligi, bolasevarligi, bolaning istiqboliga qiziqishlari, insonparvar, demokratik munosabatlarni yo'lga qo'ya oladigan hamda innovasion muhitda samarali faoliyat yuritishga qodir bo'lmog'i lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni rejalashtirish bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishning negizi hisoblanib, uning yordamida tarbiyachilar ta'limiy vazifalar, bolalar bilan birgalikdagi ish shakllari, rivojlantiruvchi muhitga kiritish lozim bo'lgan o'zgartirishlarni belgilab oladilar. Rejalashtirish tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish, bolalarga axborot va jismoniy vazifalarni me'yorlash imkonini beradi. Ish rejasining bajarilganligini tahlil etish bolaning rivojlanish sur'atini kuzatish va ular uchun yanada qulay sharoitlar yaratishda asosiy omil hisoblanadi. MTTda tarbiyachilar shaxsiy ish hujjatlarini yuritishdan maqsad O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi talablarini bajarish asosida etalabki soat, sayr, kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan yakka tartibda ishlashni loyihalashtirishdan iboratdir.

Mazkur o'quv qo'llanmada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, tarbiyachining ish hujjatlari, tarbiyachining yillik mavzuviy reja va haftalik ish rejasi, tabel, filtr, patronaj, ta'lim faoliyatini tematik rejalashtirish to'plami, pedagogik kengash faoliyati, bolaning rivojlanish ko'rsatkichlari xaritasini yuritish tartibi, faoliyat(mashg'ulot) ishlanmalarini yaratish, rivojlantiruvchi markazlardagi ishlarni rejalashtirish, uslubchining ish hujjatlari va ushbu hujjatlarning qay tarzda yuritilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Nazariy bilimlarga ega bo'lish talabalarga tarbiyachiga qo'yilgan talablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni rejalashtirish va tashkil qilish metodikasini, tarbiyachi ish hujjatlarining to'g'ri yuritilishi bo'yicha amaliy bilimlarini egallash, maktabgacha ta'lim tashkiloti ishining mazmuni va metodlari haqidagi bilimlarni shakllantirish, mashg'ulotlarni rejalashtirish, mashg'ulot ishlanmalarini tuzish va tahlil qilish, metodik usullar va ta'limiy o'yinlar tanlash, ular bilan ishlash mazmuni va metodlarini o'rgatish, kunning ikkinchi yarmini to'g'ri tashkil etish kabi vazifalarni bajarish imkonini beradi

I BOB. HOZIRGI DAVR PEDAGOG-TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENSIYASI

1.1. Pedagog-tarbiyachilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'рни

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, ustoz, tarbiya, jamiyat, mahorat, pedagog, malaka, talab.

Maktabgacha ta'lim – bu kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qimmatini shu qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo'qki, uning ustozini bo'lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchaning o'z ustozini va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yo'lboshchisi bo'ladi.

Ustozning eng buyuk burchi – uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, o'quvli shogirdlar tayyorlashidir.

Jamiyatda pedagog (tarbiyachi) birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va ma'suliyatli vazifalarni bajaradi.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiyat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasida birinchi Prezidentimiz tomonidan (1996-yil 9-yanvardagi) Farmoniga binoan «1 oktyabr Xalq ta'limi hodimlari – tarbiyachi murabbiylar kuni» deb e'lon qilingan. Bu voqea davlatimizda pedagoglarning jamiyatda tutgan o'рни naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun, pedagog ishidagi ijodiy mehnatlari uchun, ilg'or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun tarbiyachi,

tarbiyachilar «Metodist tarbiyachi», «Katta tarbiyachi», «Xalq maorifi a'lochisi» va shu kabi sharaflı unvonlar bilan taqdirlanadilar. Xalq ta'limi xodimlari orasidan respublika buyicha deputatlar saylanishi ham ularga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiromni



bildiradi.

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy

faoliyatning mahsulidir.

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyachiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy jarayon bevosita tarbiyachi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, tarbiyalanuvchilarning ta'limiy faoliyatlarda va kunning ikkinchi yarmida bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish tarbiyachilar zimmasiga yuklatilgan vazifalardan biridir.

Tarbiya –tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi Tarbiya xususida taniqli

o'zbek adibi Abdulla Avloniyning "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasi" – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

O'zbekiston respublikasi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tarbiyachidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta'riflaydi: «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak». Demak, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan tarbiyachilar va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali tarbiyachilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o'quvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;
- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish;
- dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchi-lar bilan kommunikativ aloqa o'rnatish qobiliyati;
- tarbiyalanuvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- qiyin holatlarda tarbiyalanuvchilarga yordam bera olish;

- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda tarbiyalanuvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;
- o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan tarbiyalanuvchilarni fikrlarini o'rganish;
- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir o'quvchining yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va
- takomillashtirish;
- tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga
- ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati tarbiyachi – tarbiyachi boshqa kasb egalardan ajratib turadi. Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni xurmat kilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga



hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat boladur pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, tarbiyachiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining navjudligiga ham bog'lidir. Pedagogik qobiliyat - pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyat jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir.

MTT da tarbiyachilarga zarur bo'lgan shaxsiy xislatlari bo'yicha pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablar.

- tarbiyachilarning bolalarni tushuna olish va bola shaxsiga hurmat bilan qarash bilan bog'liq hislatlari;
- tarbiyachilarning o'z tarbiyalanuvchilariga tarbiyaviy va ruhiy (etak, hikoya, hikoyat, hikmatlar va donolar fikrlarini aytish orqali) ta'sir o'tkaza olishga doir hislatlari;
- tarbiyachilarning o'z atrofdegilariga, ayniqsa o'z tarbiyalanuvchilariga ibrat-namuna bo'la olishi, ya'ni "Ibrat-namuna hayot dorilfununi" tizimidagi ma'lumotlar bilan qurollangan holda mashg'ulotlar o'tkaza olishiga oid hislatlari.

MTT dagi tarbiyachilarning shaxsiy xislatlariga ularning bolalar jamoasidagi vazifalari, ularning ish faoliyatidagi fidoyiligi, bolasevarligi, bolaning istiqboliga qiziqishlari bilan aniqlanadi. Umuman olganda, MTT da faoliyat yurituvchi tarbiyachilar quyidagidek psixo-fizologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak: mustahkam sog'liq, sog'lom fikrlilik, jismoniy baquvvatlilik, irodalilik, chidamlilik, ishchanlik, g'ayratlilik, bayroqdor bo'lishga ishtiyoqlilik va hokazo. Shuningdek, ular

konstruktiv, analitik va ijodiy fikrlashlarga ham qodir bo'lishlari kerak. Ularga konstruktiv fikrlash ishini oqilona rivojlantirish va odilona tashkil qilish uchun kerak bo'lsa, analitik fikrlash bolaning mehnat va rasm chizish ko'nikmalarini hosil qilishini nazorat qilish va ular natijalarini tahlil qilish uchun kerak bo'ladi va nihoyat ijodiy fikrlash – bu kasbiy faoliyat jarayonidagi har qanday topshiriq yoki vazifani mustaqil hal qilish hamda ularning istiqbollarini ko'ra bilishda juda kerak bo'ladi. Bulardan tashqari ushbu jarayonda murabbiy va tarbiyachilarning nutq madaniyati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ular o'z nutq madaniyatiga ham talabchan bo'lishlari kerak. Ularga qo'yilgan talabni quyidagicha ifodalasak bo'ladi:

- Tarbiyachining muloyim, jozibador, bolalarni o'ziga tortuvchi ohangda gapira olishi kerak;
- Tarbiyachining o'z ovozini xohlagan paytda va holatda boshqara olishi, rostlay olishi va o'z ovozigina muloyimlik ruhi va ta'sirchanlik ruhi beraolishi kerak;
- Tarbiyachi bolalarga muomala borasida katta hajmdagi so'z boyligiga ega bo'lishi kerak va ular ichidan har bir bolaga mos va xos chiroyli muomala qila olishi kerak;
- Tarbiyachi bolalarga biror narsa yoki voqeya haqida so'zlab berganda ifoda etilayotgan jarayon ichiga kirib keta olishi, uni jonli ifoda etishi, ya'ni nutqda obrazli va hayojonli harakatlarni ifoda etishda aktyorlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak;
- Tarbiyachilar bolalar oldiga chiqqanda “qog'ozsiz” (ya'ni faqat o'qish orqali emas) chiqishga odatlanish kerak, aks holda bolalar tezda zerikib qoladi;
- Tarbiyachilar bolalar oldiga chiqqanda imo-ishoralardan oqilona foydalanishi kerak, aks holda bolalar sizga “artist”, degan taxallus qo'yib oladi.

1.2.Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining lavozim vazifalari.

MTT tarbiyachisining lavozim vazifalari:

- tarbiyalanuvchilarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish;
- ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya dasturlaridan samarali foydalanish;
- bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy shakl va usullarini qo'llay olish;
- tarbiyalanuvchilarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishga, ijtimoiy kommunikativ hamda muomala ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan turli xildagi tadbirlarni tashkil etish;
- guruhdagi har bir tarbiyalanuvchi bola shaxsiga alohida yondoshuvni, guruh va individual mashg'ulot, o'yin, sahnalashtirish, tabiatga ekskursiyalar tashkil qilish;
- tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlari, qiziqish va qobiliyatlarini o'rganish;
- ta'lim-tarbiya dasturlarini sifatli va samarali amalga oshirish uchun guruhlarda zarur shart-sharoitlar yaratish;
- guruhdagi har bir bolaning holati va sog'lig'ini nazorat qilish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tibbiy xodimlari bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ini mustahkamlashga, ruhiy, jismoniy rivojlanishiga ko'maklashuvchi tadbirlarni muntazam o'tkazish;
- tarbiyalanuvchilar sog'lig'idagi o'zgarishlar to'g'risida maktabgacha ta'lim tashkiloti mudirini, tashkilot tibbiy xodimlarini, ota-onalarni darhol xabardor qilish;
- tarbiyalanuvchilarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnovini hisoblash davomatini yuritish, ularni tashkilotga kelmaganlik sabablarini aniqlash,

tashkilotga kelmagan tarbiyalanuvchilar to'g'risida tibbiy xodimlarini o'z vaqtida xabardor qilish;

- tarbiyalanuvchi maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelmagan kunida uning ota-onasi bilan kamida telefonda aloqa qilish orqali kelmaganlik sababini aniqlash yoki uyiga borib bolaning ahvolidan xabar olish;



Ўзбекистон Республикаси Мақтабгача таълим
вазирлиги

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ИЛК
ВА МАҚТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР
РИВОЖ ТАННИШИГА ҚЎЙИЛАДИغان
ДАВЛАТ ТАЛАБЛАРИ



- guruh kun tartibiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni samarali rejalashtirish, tarbiyalanuvchilarning, kun davomidagi mashg'ulotlar davomida ishtiroki va boshqa harakatlari yuzasidan ota-onalar bilan

suhbatlar olib borish;

- sanitariya-gigiena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga qat'iy rioya qilish.
- tarbiyachi ta'lim-tarbiya ishlari yuzasidan bir yilda ikki marotaba maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari asosida tarbiyalanuvchilaning rivojlanish ko'rsatkichlarini kuzatish orqali tahlil qilishni amalga oshirish
- Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, tasdiqlangan mashg'ulotlar jadvali asosida mashg'ulotlarni o'tkazadi.
- tashkilot musiqa rahbari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib boradi va yil davomida o'tkaziladigan bayram ertaliklariga tayyorgarlik ishlarida musiqa rahbariga ko'maklashadi.
- maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi, defektologi, shtat jadvalida ko'rsatilgan mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash (suzishni o'rgatish bo'yicha yo'riqchi mavjud bo'lganda,unga yordamlashish)

MTT tarbiyachisi bilishi lozim:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni, bolalar huquqlarini tartibga soluvchi boshqa hujjatlarni;

- maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablarining mazmunini;
- tarbiyalanuvchilarni ta'lim-tarbiya dasturlari va boshqa muqobil (variantiv) dasturlar orqali bilim olishini ta'minlashda ota-onalarga metodik yordam, maslahatlar bera olishni;
- maktabgacha pedagogika va psixologiyani, defektologiya asoslarini, yosh anatomiyasi va fiziologiyasini;
- maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash shakl va metodlarini, jumladan, ilk matematik tasavvurlarini shakllantirish, tabiat va tevarak atrofni bilishni, tasviriy faoliyat o'rgatish metodikalarini, mehnat, musiqiy va jismoniy tarbiya orqali malaka va ko'nikmalarni hosil qilishni;
- pedagogik fan va amaliyotda ishlab chiqilgan metodik hujjatlarni, ta'lim va tarbiya jarayonida axborot va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish amaliyotini;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ommaviy o'yinlarini tashkil qilish qoidalarini;
- tarbiyalanuvchi bolalar bilan jismoniy mashqlar va mashg'ulotlar o'tkazishda asosiy harakat ko'rsatkichlari va me'yorlarini;
- mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini.
- guruhdagi mebel jihozlarni to'liq saqlanishini ta'minlashni;

1.3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga qo'yilgan malaka talablar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy bakalavr darajasidagi pedagogik ma'lumot bilan birga maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi qayta tayyorlov kursini tugatgan bo'lishi lozim. Tarbiyachi lavozimi uchun amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga ikkinchi malaka toifasini berish quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

- maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob berishi;

- maktabgacha ta'lim va tarbiyaning zamonaviy pedagogik shakl va usullarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishni bilishi;
- v) tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarda ularning individual va yosh guruhlari xususiyatlarini bilishi;
- g) ta'lim-tarbiya jarayoniga tarbiyalanuvchilarning individual xususiyati, qiziqishi va sog'lig'ini hisobga olgan holda yondoshishi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida qulay shart-sharoit yaratish, amaliy faoliyatida ta'lim jarayonining xilma-xilligini (variantlilikini) ta'minlovchi metodlar, usullar va vositalarni qo'llay olishi;
- tarbiyalanuvchilarni tayanch va boshqa variativ dasturlari orqali maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga mos holda bilim olishini ta'minlashi;
- bolaning intellektual va shaxsiy, jismoniy, estetik rivojlanish darajalarini diagnostik tahlil qilish usullarini bilishi;
- tashkilot ijtimoiy faoliyatida faol qatnashishi;
- o'z yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli hamda tarbiyachi vazifasida uch yildan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lishi, belgilangan muddatlarda malaka oshirgan bo'lishi;
- Magistr darajasiga ega bo'lgan pedagog xodimga attestatsiya o'tkazilmasdan ikkinchi malaka toifasi 5 yil muddatga beriladi.
- Birinchi malaka toifasini berish quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:
 - ikkinchi toifali pedagogga qo'yilgan barcha talablarga javob berishi;
 - bolaning intellektual va shaxsiy, estetik va jismoniy rivojlanish darajalarini diagnostik tahlil qilish usullarini bilishi;
 - maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy texnologiyalarini bilishi va maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy (ikkinchi) tillarni o'rgatishi;
 - ta'lim-tarbiya jarayonida dastur va texnologiyalarni ijodiy qo'llashi;

- ilg'or ish tajribalari maktabgacha ta'lim tashkilotida ommalashtirilishi va o'z metodik tavsiyalarini yaratishi;
- o'z yo'nalishi bo'yicha oliy us ma'lumotli hamda tarbiyachi vazifasida ikkinchi toifa bilan uch yildan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lishi;
- malaka oshirish kurslaridan o'z vaqtida muntazam o'tishi;
- Oliy malaka toifasini berish quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:
- birinchi toifa pedagogga qo'yilgan barcha talablarga javob berishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida intellektual, estetik, axloqiy va jismoniy rivojlantiruvchi dastur va texnologiyalarni, bolaning psixik rivojlanish darajalarini hamda bolalar bilan korreksion ishlash asoslarni bilishi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalar va metodikalarni ishlab chiqishi, ularni tadqiqot eksperimental faoliyatlarda ishtirok etgan holda sinashi;
- bolaning rivojlanish muhitini mustaqil yarata olishi, shuningdek, ta'lim va tarbiyaning ko'rgazmalar, o'yinlar, original vositalari muallifi bo'lishi;
- ilg'or ish tajribalari tuman yoki shaharda, viloyat miqyosida ommalashtirilishi, metodik tavsiyalar va uslubiy qo'llanmalar yaratishi;
- o'z yo'nalishi bo'yicha oliy pedagogik ma'lumotli hamda birinchi toifali tarbiyachi lavozimida kamida uch yil stajga ega bo'lishi, malaka oshirish kurslaridan muntazam o'tgan bo'lishi.



Tarbiyachining kasbiy mahorati.

Tarbiyachining kasbiy mahorati – bu ma'lum shaxsiy (bolalarni sevishi, mehribonligi, hayrixohligi va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, javobgarlikni his qilishi, ijodkorligi eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarining yig'indisi hisoblanib, u pedagogik-psixologik, bolalarni tarbiyalashning optimal yo'llarini izlab topishida namoyon

bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachining kasbiy mahorat, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarni ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi.

Murabbiy faoliyat mahoratini qanday fazilatlar belgilaydi? Mohir avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Bu deganimiz milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni bo'lishi va ularni yoshlar ongiga yetkazib tarbiyalanuvchilarni ota-bobolarimiz yaratgan boy merosga hurmatni tarbiyalay olishi kerak. Buning uchun avvalo murabbiyning o'zi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmat e'tiqodi bo'la olishi darkor, Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-ahloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash tarbiyalanuvchilarda bobolar, avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

1.4. Pedagog-tarbiyachining kommunikativ qobiliyati, kreativligi, kasbi kompetensiyasi.

Pedagoglik kasbi sohasida bolalarni sevishtirish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevishtirish, ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, xaqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik. Bilim sohasiga keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish.

Faoliyatlar kishini o'ziga duch kelgan hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi.

Pedagogik malaka - egallagan bilim va ko'nikmalarni faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir.

Pedagogik mahorat -bu fahm-farosat va bilimlarning chinakam ilmiyligi, tarbiyadagi qiyinchiliklarning yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlik bolalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat mujassamdir. Shuni alohida qayd qilib o'tmoq zarurki, pedagoglik kasbi murakkab va ma'suliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafiligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi

bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu tarbiyachilarda pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarlikni ta'minlaydi. Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo'lga qo'yib, bo'lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi lozim. Pedagogning shaxsiy fazilatlarini sirasiga iymon - e'tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odo-axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va h.k.lar kiradi. Bular pedagoglarda kasbiy xususiyatlarni o'zida tarbiyalab borishga ko'maklashadi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan va pedagogik mahoratga berilgan ta'rif, hamda - tarbiyachining professiogrammasi xususiyatlari va pedagoglarga qo'yiladigan ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy-madaniy talablardan kelib chiqib pedagogika nazariyasi pedagogik mahoratni quyidagi asosiy komponent (tarkibiy qism)lardan iborat bo'lishi lozimligini ifodalaydi.

- pedagogik mahorat;
- pedagogik muomala;
- pedagogik texnika;
- pedagogik qobiliyat;
- pedagogik madaniyat;
- pedagogik nazokat;
- pedagogik ijod.

Bularning barchasi xususiy mohiyat - mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda pedagog-tarbiyachining kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi.

Zero, pedagogik texnika –oʻqitish, taʼsir koʻrsatish, taʼlim-tarbiya oluvchilarga oʻz his-tuygʻulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalasa, pedagogik muomala - kasbiy faolligining bir koʻrinishi boʻlib, taʼlim-tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining oʻzaro taʼsir va hamkorligini aks ettiradi.

Pedagogik ijod – pedagog-tarbiyachining mahorat pillapoyalaridan koʻtarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yoʻlni, bu yoʻldagi qiyinchiliklardan qoʻrqmaslikni anglatadi. Oʻz navbatida bu sohada pedagogning pedagogik qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda pedagogning aqliy, emotsional - irodaviy jihatlari, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bogʻliqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat-tarbiyachilik burchi, masʼuliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy eʼtiqodini nazarda tutib, pedagogning talabchanligi, adolati, komilligi, rostgoʻyligi, toʻgʻriligini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt) - pedagogning pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining oʻlchovi, meʼyori va taʼsir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari pedagogning kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, oʻz kasbining mohir ustoz boʻlish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik oʻylash, pedagogik ish tutish lozim boʻladi. Bu deganimiz, oʻz faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bogʻlanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi taʼlim-tarbiyaga doir gʻoyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim boʻladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yoʻllarini topish ustida oʻylash ham kerak.

Insonparvarlik - insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi toʻgʻrisida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-

sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Pedagoglarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish; oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zgaralar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.

Samimiylik - atrofda kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat.

Vatanni sevish- ona yurtiga, ota-onasiga va yoru-do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish; mustaqil respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Fidoiylilik. Tabiiy boylıklardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, otabobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish.

Pedagog-tarbiyachilarga zarur bo'lgan shaxsiy xislatlari bo'yicha pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablar.

1. Tarbiyachilarning bolalarni tushuna olish va bola shaxsiga hurmat bilan qarash bilan bog'liq hislatlari;

2. Tarbiyachilarning o'z tarbiyalanuvchilariga tarbiyaviy va ruhiy (ertak, hikoya, hikmatlar va donolar fikrlarini aytish orqali) ta'sir o'tkaza olishga doir xislatlari;

Tarbiyachi kreativligi va kompetentligi:

1) Pedagogda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish;

2) Bolalarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o'quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g'oyalarni ilgari surish qobiliyati ko'nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadi, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishini o'rganadi.

Tarbiyachining kreativligi va kompetentligi shaxsni kreativ o'qitish, kompetentli qilib tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyachi kreativligi va kompetentligining umumiy mohiyati uning konseptual holatlarini ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida ochib beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi;

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs;

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs;

Bunyodkor shaxs - ham jarayon ham natija sifatida ob'ektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs;

Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o'rgatish va o'zini-o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni;

Ijod – ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi;

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish;

Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati;

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi;



Kasbiy-ijodiy imkoniyat:

- 1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik;
- 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o'zlashtirganlik;
- 3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi;

4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi .

Kreativ qobiliyat – shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati.

O'zini-o'zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi

Pedagoglarning kasbiy-ijodiy imkoniyati kasbiy masalalarni ijobiy hal qilish va ularning yechimini tegishli darajada baholashda ko'rinadi.

Tarbiyachi kompetensiyasi. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "moran'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yo'qori darajada qo'llay olinishidir.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirishadish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

Psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida angelay olish va bartaraf eta olish;

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta‘lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

Kreativ kompetentlik - pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Innovatsion kompetentlik - pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

Kommunikativ kompetentlik – ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsata olish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik. Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini-o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi. O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;
- ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;
- kasbiy va malakalarini takomillashtirish;
- ko'nikma salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish

pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini-o'zi ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir. O'zini o'zi baholash (O'O'B) – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi. O'zini o'zi baholash sub'ekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga ob'ektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi. O'z-o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogning kasbiy kompetensiyasi turlari va piramidasi.

Kompetensiya - sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va sifatleri, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati.


Kompetentlik - muayyan lavozimga mos o'z kasbining mohir egasi bo'lgan shaxsga xos sifat.

Kasbiy kompetensiya:

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- O'z ustida ishlash;
- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;
- O'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O'z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:

- O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;



- O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish;

Shaxsiy kompetensiya:

- Muloqatchanlik
- Bag'rikenglik
- Yetakchilik
- Faollik va tashabbuskorlik
- Moslashuvchanlik

- Sog'lom turmush tarziga amal qilish
- Ma'suliyatlilik
- Ishchanlik
- Insonparvarlik
- Samimiylik
- Nazokatlilik.

Umummadaniy kompetensiya:

- Ma'lumotli
- Madaniyatli
- Umuminsoniy qadriyatlarga egalik
- Milliy madaniyatga ega bo'lish
- Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish
- Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish.
- Maxsus kompetensiya
- Faniga doir maxsus metodlarni bilish
 - O'quvchilar ehtiyojini bilish
 - Turli yosh xususiyatlarini bilish.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiya piramidasi va turlari, tarbiyachi kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari.

Xulq-atvor-axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l-atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'linig axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushuniladi.

Bilim – bunda bolalar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bilimni hayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim.

Malaka-Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Munosabat-kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqat, madaniyat.

Motiv - insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi, ta'lim oluvchining ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi.

Motivlashtirish - bu ma'lum ehtiyojlardan kelib chiqib kishilar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir.

Mavzu yuzasidan savollar.

1. Tarbiyachi shaxsini shakllantirish
2. Pedagogik imidj qanday bo'lishi lozim?
3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining lavozim vazifalari.
4. Kasbiy kompetensiyaning shaxsiy kompetensiyadan farqini ayting.

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TALABLARI

2.1. O‘zbekiston respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarining maqsad, vazifa va asosiy tamoyillari.

Tayanch tushunchalar: Davlat talabi, rivojlanish sohalari, tamoyil, bilish, ijtimoiy, ta’lim-tarbiya, kutilayotgan natija.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari (bundan buyon matnda Davlat talablari deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son “2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi. Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik shakli va idoraviy tasarrufidan qat’iy nazar, quyidagi ta’lim tashkilotlariga qo‘llaniladi:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo‘lgan “Mehribonlik” uylari.

Maktabgacha ta’lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim turlari bo‘yicha pedagogik kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradigan tashkilotlar,

maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar mazkur Davlat talablariga rioya qilishlari lozim.

Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon;

Rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

Rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

Kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

Kutilayotgan natija — bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

Bola kompetensiyasi — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatlari;

Integratsiya — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

Inklyuziv ta'lim — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

“Men” konsepsiyasi — bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi;

Refleksiv faoliyat — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni.

Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

Davlat talablari tamoyillar:

- bolaning noyobligi;
- "Men" konsepsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli;
- bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;
- bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;
- bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish.

Davlat talablarining tarkibi.

Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko'zda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi. Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohaslariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi

o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat.

2.2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining rivojlanish sohalari.

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

1. jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
2. ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
3. nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
4. bilish jarayonini rivojlanishi;
5. ijodiy rivojlanish.

1. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- yirik motorika;
- mayda motorika;
- sensomotorika;
- sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.



2. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- "Men" konsepsiyasi;
- hissiyotlar va ularni boshqarish;
- ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

3. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:



- nutq va til;
- o'qish malakalari;
- qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

4. “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

- intellektual-anglash malakalari;
- elementar matematik malakalar;
- tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

5. “Ijodiy rivojlanish” soha quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

- dunyoni badiiy tasavvur etish;
- badiiy-ijodiy qobiliyatlar.



Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- go‘daklik (tug‘ilgandan 1 yoshgacha);
- erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
- kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);
- o‘rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);
- katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);
- maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar mazkur Davlat talablarining 1-ilovasida belgilangan. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar mazkur Davlat talablarining 2-ilovasida belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilayotgan talablar

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHI			
Kichik soha: Yirik motorika			
Talab: Bola o‘z tana a‘zolarini boshqaradi, maqsadli to‘g‘ri harakatlanadi			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
turli usullar bilan yuradi (to‘g‘ri, erkin, ko‘rsatilgan yo‘nalishda) :	oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan va tizzalarini yuqori	oyoqlarini uchidan tovoniga almashtirib yuradi; to‘siqlarni aylanib yoki	bir, ikki, to‘rtta bo‘lib saflanadi, doira bo‘lib, qator bo‘lib yuradi; yurishda turli

kolonna, doira bo'lib saflana oladi; muvozanatni saqlab yuguradi; sport zinasida yuqori va pastga harakatlanadi; bir joyda ikki oyoqlab sakraydi; oldinga siljib sakraydi; aylana yoyi tagidan emaklab o'tadi; badantariya vaqtida mashqlarni takrorlaydi; uch oyoqli velosipedda uchadi.	ko'tarib yuradi; arqon ustida muvozanat saqlab yuradi; tizzalarini yuqori ko'tarib yuguradi; past to'siqlar ustidan sakrab o'tadi; arqonda sakrashga harakat qiladi; gimnastika skameykasi ustida qo'li bilan tortilib qornida suriladi; gimnastika narvonida harakatlanadi; samokatda uchadi.	xatlab o'tadi; gimnastika skameykasida muvozanatni saqlagan xolda, qadamba qadam yuradi; qiya doska ustida to'g'ri va yoni bilan yuradi; yugurishning har xil turlarini bajaradi (ilonizi, zigzag, mokisimon, to'siqlarni yengib o'tib); turli usullar bilan sakraydi; bir necha predmet oralab emaklaydi; qornida yotib, qo'llari bilan tortilib emaklaydi; gimnastika narvoniga o'rmlab chiqadi.	topshiriqlarni bajaradi; yengil yuguradi (shiddat bilan, to'siqlarni yengib o'tib, yo'nalish va muvozanatni saqlagan holda); bir joyda aylanib sakraydi, oyoqlarini o'ngga va chapga almashtirib sakraydi; arqonda turli usullarda sakraydi; arqonli narvon, yo'g'on arqonda yuqoriga ko'tariladi; ikki oyoqli velosipedda uchadi.
---	--	--	--

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHI

Kichik soha: Mayda motorika

Talab: Bola qo'li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi

3-4 yosh

4-5 yosh

5-6 yosh

6-7 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

xalqaga arqonni kirg'izadi; mayda predmetlarni ma'lum bir tartibda taxlaydi; mustaqil ravishda o'yinchoqlarni qutiga joylashtiradi va undan oladi; kattalar yordamida yirik hajmdagi munchoqlarni ipga o'tkazadi; buyumlarni bir idishdan ikkinchisiga joylashtiradi.	mustaqil tugmachalarini qadaydi va echadi, kiyimi va poyabzali ilgaklarini o'zi taqadi; namuna asosida ipga mayda, o'rta, va yirik munchoqlarni teradi; qulflarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi; mayda buyumlarni buraydi va bir biriga ulyadi (konstruktor qismlari); konstruktorning katta va kichik qismlaridan har xil predmetlar yasaydi.	yzalarda turli chiziqlar chizadi (asfaltda klassik o'yini); kichik, o'rta va katta o'yinchoqlarni qutiga hajmiga qarab joylashtiradi; murakkab konstruksiyalarni jamlaydi; qopchadagi o'yinchoqni paypaslab nomini ayta oladi; to'g'ri chiziq bo'ylab qog'ozni mustaqil qirqadi.	tasavvurdagi predmetlarni qo'llari bilan (gul, qush, kapalak, qasr) ko'rsatadi; arqonlardan turli tugunlarni tugadi; o'yin faoliyati mobaynida mayda o'yinchoqlar bilan o'ynaydi; belgilangan chiziqlar bo'ylab qog'ozni batartib yirta oladi; mayda qisimli mozaika va pazllarni yig'adi.
---	---	--	--

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHI			
Kichik soha: Sensomotorika			
Talab: Bola sezgi organlari yordamida o'z harakatlarini boshqarishga qodir			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
katta koptoklarni masofaga, ikki qo'l bilan, o'tirib, turib iring'itadi; belgilangan nishonga predmetni iring'itadi; boshqa bolaga koptokni iring'itadi yoki otadi; silliq va notekis teksturaning farqiga boradi; ta'mni aniqlaydi; qo'g'irchoqli aravachani itaradi.	koptokni yerga o'ng va chap qo'li bilan galma-gal uradi; galma gal chap va o'ng tomon aylanadi; turli tekstura va yuzaning farqiga boradi; matrap bilan mayda uchayotgan, uchayotgan predmetlarni tutadi; sovun ko'piklarini uchiradi.	koptokni osmonga iring'itib, tutib oladi; uzatilgan koptokni turli usullar bilan ilib oladi; koptokni klyushka bilan to'siqlarora olib o'tadi; qumli xaltachani nishonga otadi; boshqa bolaga koptokni ikki qo'llab asosiy vaziyatdan uzatadi; turli analizatorlar orqali predmetni tadqiq qiladi (ko'zi bog'langan xolda, ta'miga qarab, paypaslab).	pastdan, boshi uzra koptokni iring'itadi; koptokni yer bo'ylab ilonizi qilib iring'itadi; chanada, rolikda, ikki oyoqli velosipedda uchadi; koptok bilan nishonni urib tushiradi (boulning); gardishni qo'lida, oyog'ida, belida aylantiradi; halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi.
JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHI			
Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik			
Talab: Bola sog'liqni saqlash malakalarini namoyon qiladi. Bola xavfsiz sog'lom taom va hayot xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega			
3-4 yosh	4-5 yosh	yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
mustaqil qo'li, yuzini yuvadi, tishini tozalaydi, sochiqdan foydalanadi; taroq va dastro'mol yoki salfetkadan foydalanadi; ovqat vaqtida mustaqil qoshiq bilan foydalanadi, ovqatdan so'ng og'zini chayadi; xonada tartibni saqlaydi, o'zidan keyin o'yinchoqlarni yig'ishtiradi; mustaqil hojatxonaga boradi;	vitaminlar va sog'lom ovqatlanish foydasini biladi; ovqatlanish oldidan qo'lini yuvadi; sanchiqdan to'g'ri foydalanadi; o'z tashqi ko'rinishini tartibga keltiradi; hojatxonadan so'ng o'z-o'ziga xizmat qiladi; yordam so'ray oladi; xavfli bo'lgan predmetlar, joylar va moddalar nomini biladi (zinapoya,	shaxsiy gigiyenaga rioya qiladi; stol atrofida ovqatlanish madaniyatiga rioya etadi; vitaminlar va ularni taomdagi foydasini biladi; salomatlik haqida qayg'urish muhimligini anglaydi; asosiy tana a'zolari va ularning funksiyalarini biladi; piyodalar uchun asosiy yo'l qoidalarni biladi; suv ichish foydasini	o'zining tashqi ko'rinishiga e'tibor beradi; jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi; tabiat burchagidagi o'simliklar va jonzorlarni parvarishlaydi; salomatlikka zararli bo'lgan xulq shakllarini anglaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o'ynash va hokazo); bog'chada, ko'chada, transportda yurish

xavfli bo'ladigan predmetlarni farqiga boradi.	boloxona, ochiq oyna, issiq suv, olov, dori, o'tkir asboblarni, elektr; notanish insonlar bilan mumkin emasligini tushuntiradi; qanday qilib gavdani to'g'ri tutish kerakligini tushuntirib bera oladi.	anglaydi va mustaqil suv ichish rejimini bajaradi; xavfsiz xatti-harakatning asosiy qoidalarini biladi va ularga rioya qiladi; yordam zarur bo'lganda kattalarga murojaat qilish kerakligini biladi; xavfli faoliyatlar nomini aytib beradi.	qoidalariga rioya qiladi; piyodalar va velosipedchilar uchun yo'l qoidalarini biladi; yong'in xavfsizligi -101; milliy gvardiya-102; tez yordam -103; gaz xizmati -104 telefon raqamlarini biladi;
--	---	--	--

IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: "Men" konsepsiyasi

Talab: Bola o'zini o'ziga xos xususiyatlari bilan, ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi, mustaqil va o'z xatti-harakatiga javob beradi

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

o'zi haqida — "men" deb birinchi shaxs nomidan gapiradi; o'zi haqida so'zlaydi (ismi, familiyasi, yoshi, jinsi va boshqalarni biladi); o'z yaqin insonlariga murojaat qiladi va yordam so'raydi; o'ziga do'st tanlaydi va u bilan o'ynaydi; o'z oilasi va yaqinlariga qiziqish bildiradi; o'z ehtiyojlarini bildiradi; ortib borayotgan o'ziga ishonchni bildiradi.	o'z xohish istaklari, qiziqishlarini bildiradi; o'yin davomida rollarni bajaradi; o'z hatti harakatlariga javob beradi ("buni men qildim"); kattalar iltimosini (topshiriqni) bajaradi; mashg'ulot davomida diqqatni jamlaydi; yutuqqa motivatsiya bildiradi; omadsizlik, mag'lubiyatda qayg'uradi;	o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni qabul qiladi va bajaradi; o'zining qaysi millatga mansubligini biladi; o'zining hoxish-istaklari va qiziqishlarini aniq belgilaydi; o'z hissiyotlarini namoyon qiladi; o'z o'zini baholashga qodir; mustaqil o'ziga faoliyat turini tanlaydi; g'oyalar taklif etadi, tashabbuskor va ochiqko'ngil.	mustaqillikka intiladi; o'zining oilaviy, gender mansubligiga ijobiy his tuyg'ularni angelaydi va farqlay oladi; o'zining millati, tili va o'z madaniyatining muhim elementlarini biladi; o'ziga yuklatilgan majburiyatlar asosida faoliyatni tashkil qiladi; shaxsiy qarorlarini qabul qilishga qodir; boshqalarga namuna bo'lishga harakat qiladi.
---	---	---	--

IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Hissiyotlar va ularni boshqarish

Talab: Bola o'zining va o'zgalarning hissiyotlarini anglashga va o'zining hissiyotlarini moslashtirishga qodir

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

ertak, hikoya, multfilmlar	bolalar bilan o'yin davomida samimiy	asosiy hissiyotlar sababini tushunadi;	o'z hissiyotlari nazorat qiladi;
----------------------------	--------------------------------------	--	----------------------------------

qahramonlariga hamdardlik bildiradi; quvonch, qayg'u kabi hissiy holatni tushunadi; o'z kechinmalari va hissiyotlarini namoyon etadi ("menga yoqadi", "men yoqtirmayman"); boshqa bolaning hissiyotlarini aniqlaydi va so'z bilan ifoda etadi; boshqalarga hamdardlik bildiradi; sujetli-rolli o'yinlarda ishtirok etadi;	munosabat bildiradi; va o'z o'yinchoqlari bilan o'rtoqlashadi; kattalar bilan eslatmasiz salomlashadi va xayrlashadi; o'z harakatlariga baho beradi; kattalarga murojaat qiladi va o'z fikrini bayon qiladi; sovg'a va bayramlarga quvonadi.	kimnidir xafa qilsa, o'zini aybdor xis qiladi; yaxshi yoki yomon xulqqa baho bera oladi; o'yin mobaynida g'oliblikdan quvonishni biladi; yaqin insonlari va do'stlari bilan o'z hissiyotlari va kechinmalari bilan o'rtoqlashadi; qo'rquv va xavfni tushunadi;	turli ijtimoiy vaziyatlarga emotsional munosabat bildiradi; o'z hissiy holatini izohlab berishi mumkin; boshqa insonlar yoki badiiy asarlar qahramonlari hissiyoti haqida gapiradi; o'zini yomon his etayotganlarga hamdardlik bildiradi va yupatadi.
---	--	--	---

IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot

Talab: Bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodir

3-4 yosh

4-5 yosh

5-6 yosh

6-7 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

o'z oila a'zolarini biladi; kattalar harakatiga taqlid qiladi; o'z harakatlari natijasiga erishishda qat'iylik bildiradi; kattalar va bolalar bilan birgalikda o'ynaydi; bolalar salbiy harakatiga o'z munosabatini bildiradi; jamoaviy o'yin faoliyatida qatnashadi; tengdoshlariga yaxshilik istaydi.	o'yin faoliyati davomida muloqotga kirishadi; o'yinda o'zaro harakatda bo'lib, ijtimoiy rolni qabul qiladi; guruh qoidalarini bajaradi (o'yinchoqlarni joyiga taxlaydi, kiyimlarini tartibga soladi va hokazo); o'z oila a'zolariga samimiy munosabat bildiradi va uyida ma'lum bir qoidalarga rioya qiladi;	muloqot davomida o'z fikrini, hissiyotlarini va taassurotlarini namoyon etadi; oila va guruhda tashkil etilgan mehnat faoliyatida ishtirok etadi; o'z suhbatdoshiga iltimos yoki ma'lumotni aytga oladi; mustaqil, kattalardan bevosita mustaqillikni erkin namoyon etadi, yordam ko'rsatishga tayyor; tanish insonlar bilan oson muloqotga kirishadi;	kattalar va tengdoshlar bilan oson muloqotda bo'ladi; qiyin vaziyatlarda amaliy yechim qidiradi; boshqalar xatti-harakatiga o'z taassurotlarini bildiradi; o'z galar yutug'iga quvonganligini namoyon etadi; nizolarni hal etishda bir necha metodlardan foydalanadi (tinchlantradi, o'z o'yinchog'ini beradi, muloyim so'zlar aytadi)
---	--	--	--

NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI

Kichik soha: Nutq va til

Talab: Bola nutqni tinglaydi va anglaydi, so'zlashadi va muloqot qiladi			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
o'zining ayrim harakatlarini bilan sharhlaydi; rasmda ko'rgan narsasi haqida so'zlaydi; kattalarning turli savollariga javob beradi (yaqin atrofiga tegishli); muloqot davrida faollik bildiradi; biror bir parchani tinglab, tanish asarning nomini aytadi; kichik she'rni yoddan aytadi; kattalar tomonidan aytilgan tanish hikoya, ertakni davom ettiradi yoki tugallaydi; didaktik o'yinlar o'ynaydi.	boshlangan hikoyani davom ettira oladi; voqea-hodisalar to'g'risida muhokama davrida savollar beradi va o'z fikrini bayon etadi; berilgan savolni tushunadi va unga javob beradi; muloqotda fe'l va sifatarni faol qo'llaydi; ot va fe'llarni qo'llagan xolda murakkab bo'lmagan gaplar tuzadi (shifokor kasallarni davolaydi, sotuvchi sabzavotlarni sotadi); "ko'p", "bitta" ma'noda so'zlarni ishlatadi; didaktik va so'z o'yinlari o'ynaydi.	kuzatayotgan hodisa va voqealarni tushuntirib beradi; umumlashtiruvchi so'zlarni to'g'ri qo'llaydi (meva, sabzavot, daraxtlar, qushlar, idish-tovoq); o'ziga nisbatan predmetlar joylashuvini ta'riflaydi (oldimda, stolda); so'zlarni mazmuniga ko'ra to'g'ri qo'llaydi; nutqida ma'nosiga monand asosiy so'z turkumlarini qo'llaydi; bir negizli so'zlarni (namuna asosida) tuza oladi (mushuk-mushukcha-mushukli); grammatik sodda va murakkab gaplar tuzadi; barcha tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz qiladi; xorijiy tilni bilishi:	o'z ona tilida erkin so'zlashadi; so'z turkumlarini yoshiga monand mustaqil, grammatik to'g'ri qo'llaydi; gapdan sinonim va antonimlarni topa oladi va berilgan so'zlarga ularni moslaydi; ko'p ma'noli so'zlarni turli ma'nolarini farqlaydi; turli gaplarni tuzadi; shaxsiy tajribasiga tayanib, rasm yuzasidan tasviriy hikoyani mustaqil tuzadi; turli janrdagi badiiy asarlarni ifodali hikoyalaydi; guruh muokamasida muloqotga kirishib va tinglab ishtirok etadi; qofiyalar tuzadi, topishmoqlar topadi;

NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YoZISH MALAKALARI

Kichik soha: O'qish malakalari

Talab: Bola kitob va o'qishga qiziqish bildiradi

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
kitob haqida tushunchaga ega; kattalardan kitob o'qib berishlarini so'raydi; o'z yoshiga mos kitoblarni tomosha qiladi; kitobdagi rasmlar va	tinglagan hikoyasiga munosabatini bildiradi va kattalarga savol beradi; rasmlar asosida tinglagan asarini asosiy o'rinlarini gapirib bera oladi;	so'zdagi birinchi tovushni biladi; kitobni mustaqil tomosha qiladi; tovushlarni farqlaydi; so'zlarni bo'g'inga bo'ladi; so'zlarga qofiya	boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so'zlab beradi; sodda va murakkab gaplarni nutqida qo'llaydi; so'zlarni bo'g'inlarga

soʻzlar orasidagi bogʻliqlikni aniqlaydi; rasmlardan tanish etak qahramonlarini taniydi.	badiiy asardan parcha tinglagandan soʻng asar nomini aytadi; oʻz yoshiga mos sheʼrlarni yoddan biladi; kitobni ehtiyotlab foydalanadi.	kelishtiradi; nutqning dialogik shaklini qoʻllaydi, savollar beradi; sheʼrlarni yod oladi va ifodali oʻqiydi; sevimli badiiy adabiyot, etak va hikoya mualliflari va ularning nomini biladi;	boʻladi; boʻgʻinli kartochkalar yordamida boʻgʻinlardan soʻzlar tuzadi; soʻz, tovush, boʻgʻin, gap haqida tushunchaga ega; peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni oʻqiydi;
--	--	--	---

NUTQ, MULOQOT, OʻQISH VA YOZISH MALAKALARI

Kichik soha: Qoʻl barmoqlari mayda motorikasi

Talab: Bolada yozuv malakasi shakllanadi

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

2-3 obyektidan rasm tuzadi; varaq sathida toʻgʻri chiziqlar chizadi; harflarga qiziqish bildiradi, ayrim harflarni shaklini biladi va farqlaydi; yirik munchoqlarni ipga teradi; yozishga harakat qiladi.	chiziq, belgi, ilgaklarni sodda namunalarini qayta chiza oladi; predmetlarning murakkab boʻlmagan shakllarini chizadi; rasmlarni ustidan yurgizib chizadi va boʻyaydi; shablonlarni shtrixlaydi; mayda qismlardan iborat konstruktorni yigʻadi;	chiziq, ilgak va gajakcha yozadi; qogʻozni turli usulda taxlaydi (origami); namuna asosida bosma harflarni yozishni boshlaydi; barmoqlari yordamida mashqlar bajaradi; rasmlarni tekis shtrixlaydi; turli sathlarda chizadi (nam qumda, asfalt, doskada);	qogʻozda toʻgʻri chiziqlar, soʻzlar va qisqa gaplarni yozadi; daftardagi yozuv qatorlarini aniqlay oladi; rasmlarni toʻgʻri joylashtiradi; qoʻlni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizadi; matodagi rasmni toʻqiydi;
---	---	---	--

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Intellektual-bilish malakalari

Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

bitta belgi asosida predmetlarni ajratadi; olti rangni farqlaydi va ajratadi; bir xil poyini topadi; rasmlardagi predmetlarni taniydi va	rasmlarni solishtiradi; 2-3 belgi asosida guruhlarga ajrata oladi; jonzodlarni asosiy ehtiyojlarini taʼriflaydi va taqqoslaydi	rasm asosida sujetni eslab qoladi va gapiradi; ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi; turli hayvonlarning yashash joylarini aytadi	atrof-olam haqida mustaqil maʼlumot izlaydi; kuzatuvlar asosida xulosa qiladi va umumlashtiradi; yil fasllari va voqea-
--	--	---	---

nomini aytadi; jonli obyektarga qiziqish bildiradi; predmetlar yasalgan materialni farqlaydi (qog'ozdan, taxtadan, temirdan); xonani kuzatadi va o'zi turgan joyni aniqlaydi; atrof-muhitga qiziqish bildiradi.	(hayvonlar: ovqat eydi, nafas oladi, harakatlanadi va hokazo); hayot uchun suv, havoning ahamiyatini ta'riflaydi; kun qismlarini nutqida to'g'ri qo'llaydi va biladi (ertalab, peshin, kechqurun, kechasi); yil fasllarini tavsiflaydi; atrof olamga faol qiziqish bildiradi.	(baliq suvda yashaydi, bo'ri o'rmonda); geografik tushunchalarni biladi (er, dengiz, tog', daryo); oddiy sabab va oqibat aloqalarni tushunadi (yomg'ir yog'yapti — panaga o'tish kerak); sinash va xatolarni tahlil qilish yo'li bilan amaliy vazifalar yechimini topishga harakat qiladi (mashinani yurg'izish uchun kalitni burash kerak);	hodisa ketma-ketligini aytadi; rasmlar bo'yicha ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi; o'z mamlakati va uning ramzlari haqida tushunchaga ega; o'z xalqining ayrim milliy an'analari va odatlarini biladi; bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi (kerakli ma'lumotni topa oladi);
---	---	---	---

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Elementar matematik malakalar

Talab: Bola elementar matematik malakalarga ega

3-4 yosh

4-5 yosh

5-6 yosh

6-7 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

predmetlarni 1-2 ta belgisi bo'yicha guruhlariga bo'ladi; atrof-muhitdan "bitta" va "ko'p" ni topadi; predmetlarni kattaligiga qarab teradi; geometrik shakllarni farqlaydi (doira, kvadrat, uchburchak), shakllar (kub, shar); ko'plikni taqqoslaydi; "uzun" va "qisqa" tushunchalari ma'nosini biladi; "yarim", "yarimtacha" tushunchalarni biladi; sanoq va sonlar qatoridagi bog'liqlikni tushunadi; mexanik tarzda 5gacha	geometrik shakllarga o'xshash predmetlarni topadi; geometrik figura va shakllarni nomini biladi; miqdoriy aloqalarini belgilaydi; sonning miqdoriy tarkibini biladi; matematik tushunchalardan foydalanadi (ko'p, kam, jami, shuncha); ketma ketlikda sanaydi; ko'pliklarni taqqoslaydi "ko'proq", "kamroq", "teng"; bo'shliqda yo'nalish olishni biladi (oldinda,	geometrik shakllarni biladi va ularni predmetlar orasidan ajratadi; predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko'ra taqqoslaydi; predmetlar guruhini taqqoslaydi; muloqot davrida matematik terminologiyani qo'llaydi; belgilar tizimini tushunadi (son va belgilarni qo'llagan xolda +, -, =); 1dan 10gacha bo'lgan sonlarni to'g'ri va teskari sanaydi; predmetlarni soni va	hayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi; geometrik shakllar va figuralarni biladi; 20gacha bo'lgan ayrim matematik harakatlarni bajaradi; 10gacha qo'shish va ayirishli sodda matematik vazifalarni echadi (son va belgilarni qo'llagan xolda +, -, =); son qatori haqida tushunchaga ega guruhlarni teng yoki teng emasligini tahlil qiladi (qanchaga ko'p?, qanchaga kam?); hajmi, balandligi va
--	---	---	--

sanaydi.	orqada, tepada, pastda, yaqin, uzoq);	sanog'iga qarab taqqoslaydi;	qarab qalinligiga qarab predmetlarni ketma ket joylashtiradi;
----------	---------------------------------------	------------------------------	---

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat

Talab: Bola o'zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyan qiladi, fanni o'rganishda faol

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda qatnashadi (eritish, bo'yash, cho'ktirish, suv sathiga chiqarish va hokazo); tabiatdagi ayrim o'zgarishlarni farqlaydi (qor, yomg'ir, do'l, issiq, shamol va hokazo); ayrim hasharot va qushlarni taniydi va nomini aytadi; ayrim jonivorlar bolalarini nomini to'g'ri aytadi; "sujet" asosida qurilmalar yaratadi; suv va qum bilan o'ynaydi; jonli obyektlarni kuzatadi.	kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda ishtirok etadi (eritish, yaxlatish, magnetizm, bo'yash, qizdirish, qaynatish va hokazo); yil fasllariga xos tabiat hodisalarini biladi; nima uchun ovqatlanish, nafas olish, o'qish kerakligini biladi; organizmning ma'lum bir organlari funksiyasini biladi; ayrim jismoniy jarayonlar muhimligini tushunadi; konstruktor, pazl, mozaika, Legodan konstruksiyalar yaratadi.	tabiat hodisalarini turli omillarga bog'liqligini tushunadi; tabiatdagi o'zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi (masalan, qor erishi); insonlarni atrof-olamga ta'sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig'ish); tabiiy materiallardan qo'l ishlarini yaratishni biladi, ish bosqichlarini belgilaydi; mustaqil qurib yasashi mumkin; jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi; insonlar hayotida tabiatning ahamiyatini anglab etadi.	qurilmani mustaqil o'lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo'yicha); shaxsiy qiziqishi va kuzatuvlariga bog'liq savollar beradi; shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtiradi va tushuntiradi; atrof-muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni ajratish, daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog'ozni asrash).
--	---	--	--

IJODIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Dunyoni badiiy tasavvur etish

Talab: Bola turli xil san'at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish va tushunishini namoyish etadi

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

illyustratsiya, o'yinchoq, xalq amaliy san'ati asarlarini o'rganishda emotsional ta'sirlanadi; tabiat obyektlarida,	O'zbekiston xalq amaliy san'ati haqida ilk tushunchaga ega (so'zana, keramika); san'atga tegishli kasblarning ayrimlari	musiqiy asarga hissiy munosabat bildiradi; musiqaqa monand harakatlar o'ylab topishi mumkin; badiiy asarlar	she'rini ifodali o'qib bera oladi; tanish asarlarni mustaqil so'zlab beradi, ularni sabnalashtirishda ishtirok etadi;
---	---	---	---

o'yinchoq, bolalarning o'z kiyimlarida ranglar jilosini angelaydi; tanish qo'shiqlarni biladi; diqqat bilan tovush, ohanglarni tinglaydi; tasviriy san'at elementlaridan foydalanadi.	haqida tushunchaga ega (rassom, bastakor, aktyor); ayrim san'at turlari va janrlarini farqlaydi (qo'shiq, raqs, musiqa, she'riyat, topishmoq, rasm, haykaltaroshlik); ayrim arxitektura qurilmalari haqida tushunchaga ega (yashash joyi va jamoat joyi);	qahramonlari rolini o'ynashi mumkin; amaliy san'at turlari haqida birlamchi tushunchaga ega; shaxsiy loyihalar yaratishda g'oyalar bildiradi; musiqa uslublarni farqlaydi; kichik ssenariylar tuzib, sahna ko'rinishlari tashkillashtira oladi;	she'riy va nasriy badiiy asarlarga munosabat bildiradi; musiqiy asarning harakterini aniqlashga qodir; bolalar shoiri, yozuvchisi va bastakorlari hamda ularning asarlarini biladi; tasviriy san'at turlarini farqlaydi.
---	---	---	--

IJODIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Badiiy-ijodiy qobiliyatlar

Talab: Bola atrofdagi borliqni ijodiy o'zgartirish malakasiga ega

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

tasviriy materiallar nomini biladi va to'g'ri qo'llaydi; sodda kompozitsiyalar, alohida buyumlarni chizadi; tasvirlanayotgan predmetlarga mos ranglarni tanlaydi va bo'yaydi; bolalar musiqiy asboblari(buben, nay, ksilofon) chalishga taqlid qiladi; bolalar guruhi bilan qo'shiq aytadi; raqsga tushadi (juflikda aylanadi, oyoqlari bilan despinadi, predmetlar bilan musiqa monand harakatlanadi); plastilindan berilgan sodda shakllarni yasaydi;	predmetlar shaklini aniq ko'rsatgan xolda qismlarga boy tasvirlar chizadi; sujetli rasm, predmet va personajlar chizadi; shakllarni turli texnika asosida bo'yaydi; loy, xamir va plastilindan yasaydi; faoliyati boshida ko'z oldiga keltirib tasavvur qiladi; xorda va yakkaxon qo'shiq aytadi; raqs harakatlarini hissiyotlarni namoyon etish va muloqot vositasi sifatida qabul qiladi; musiqiy asboblarda chaladi (qo'ng'iroqcha, doira, metallofon, uchburchak);	murakkab predmetlar chizadi va ularni dekorativ naqshlar bilan yasatadi (choynak, gilam, ro'mol, lagan); xotira yoki tasavvuriga ko'ra sujet yaratadi; qog'ozdan va tabiat materiallardan applikasiya-hajmli oranjirovkalar yaratadi (siluetlar, otkritkalar, kitob yorliqlari); muhit yoki shaxsiy loyihalarini yasatadi; qog'oz buklash, yirtish, qirqish yo'li bilan shakllarni harakati va proporsiyalarini yoritgan holda kichik sujetli kompozitsiyalar yaratadi; tengdoshlari bilan ijodiy o'yinlar yaratishi mumkin;	turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi; individual va jamoada qo'shiq ayta oladi; raqsga harakatlariga jilo bergan xolda shaxsiy namuna yaratishi mumkin; musiqiy asboblarda yakkaxon yoki orkestrda jo'r bo'lib chalishi mumkin; g'oya yaratadi va tatbiq etadi; maqsadga erishishda o'rindosh sifatida turli predmetlar qo'llaydi; turli spektakllarda rol ijro etib ishtirok etadi; olamni o'zgartirishda insonning yaratuvchi rolini angelaydi; buyumlarni ikkilamchi qo'llashda g'oyalar
---	--	--	---

tayyor shakllardan tasvirlar yaratadi, turli shakldagi qog'ozlarni yasatadi; qumdan turli shakl va piramidalar quradi.	kattalar yordamida barmoqlar teatri sahna ko'rinishlarida ishtirok etadi.	shaxsiy ishlarida turli ifoda vositalarini qo'llaydi; jamoaviy loyihalarda g'oyalar taklif etadi.	taklif etishi mumkin.
--	---	---	-----------------------

Mavzu yuzasidan savollar.

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari qachon va kim tomonidan qabul qilingan?
2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining maqsad va vazifalarini ayting
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari tamoyillarini ayting?
4. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari rivojlanish sohalarini ayting.

III BOB. “ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURI.

3.1. MTT ta’lim jarayonining maqsad va tamoyillari.

Tayanch tushunchalar: Maqsad, tamoyil, kompetensiya, vazifa, ta’lim tashkiloti, dastur, muhit, hamkorlik.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi (quyida: «MTT davlat o‘quv dasturi») O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

Davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta’lim tashkilotlarida qo‘llash uchun majburiy:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

maktabgacha ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi nodavlat tashkilotlari;

maktabgacha guruhlarga ega bo‘lgan «Mehribonlik» bolalar uylari;

maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlari.

MTTda davlat o‘quv dasturini qo‘llash.

Davlat o‘quv dasturi variativ o‘quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi. Ta’lim tashkilotlari Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ o‘quv dasturlaridan foydalanish huquqiga ega. Ta’lim tashkiloti Davlat o‘quv dasturi asosida o‘zining MTT ishchi o‘quv dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot pedagoglari



tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi.

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid Davlat talablari asosida hamda Davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

MTT ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari

MTT ta'lim jarayonining maqsadlari- o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir..m

MTT ta'lim jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:

- bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi;
- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;
- MTTning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;

- milliy madaniy anʼanalar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

Bolaning maktabgacha taʼlim tashkilotidagi rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uning amalga oshirilishi uchun maktabgacha taʼlim tashkiloti rahbari javobgar boʻladi.

Qoʻshimcha taʼlim xizmatlarini tashkil qilish.

Qoʻshimcha taʼlim xizmatlari maktabgacha taʼlim tashkiloti tomonidan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bolalar va aholi ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etiladi. Qoʻshimcha taʼlim xizmatlari fakultativ hisoblanadi va ularni tashkil qilishda koʻngillilar (volontyorlar), ota-onalar va homiyalar ishtirok etishi mumkin.

Alohida ehtiyojga ega boʻlgan bolalar uchun moʻljallangan taʼlim faoliyati.

Maktabgacha taʼlim tashkilotida alohida ehtiyojga ega boʻlgan bolalarni qoʻllab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha taʼlim tashkiloti rahbari javobgar boʻladi. Zarurat tugʻilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha taʼlim tashkiloti rahbariyati, tor ixtisosdagi mutaxassislarni jalb etgan holda, bola (uning rivojlanishi) uchun oʻquv-tarbiyaviy faoliyatning individual rejasini tuzadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik. Bolaning har tomonlama rivojlanishini taʼminlash uchun maktabgacha taʼlim tashkiloti ota-onalarning maktabgacha taʼlim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olishi, ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berishi, ota-onalarni oʻquv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish, ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlashi lozim.

3.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim berishda kompetensiyaviy yondashuv.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi. Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari:

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

«Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalari .

«Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
- o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiena malakalarini qo'llaydi;
- sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

«Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari.

«Ijtimoiy-emotsional rivojlanish» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi.

«Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari.

«Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;

- oʻz nutqida toʻgʻri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni oʻrganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash boʻyicha dastlabki bilimlarini koʻrsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- soʻzning lugʻaviy, boʻgʻinli va fonetik tuzilishi toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻladi;
- turli maʼno shakllarini mustaqil ravishda tuzish va soʻzlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

«Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari.

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi oʻquv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan soʻng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- oʻquv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;
- predmetlar, voqealar va koʻrinishlar oʻrtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qoʻllaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va koʻrinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va gʻamxoʻr munosabatni namoyon etadi.

«Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari.

«Ijodkorlik» sohasidagi oʻquv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan soʻng 6-7 yoshli bola:

- sanʼat va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;

- milliy anʼanalarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;
- sanʼatning muayyan turini afzal koʻrishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va koʻnikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda oʻz ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni oʻzgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

3.3. Oʻquv-tarbiyaviy faoliyat.

Oʻquv-tarbiyaviy faoliyat «Oʻzbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari» asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha taʼlim tashkiloti oʻquv va tarbiyaviy faoliyatni oʻquv yillari boʻyicha tashkil qiladi. Oʻquv yili 2 sentyabrda boshlanadi va 31 maygacha davom etadi. 1 iyundan 31 avgustgacha MTTda yozgi sogʻlomlashtirish davri tashkil etiladi.

Oʻquv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish.

Oʻquv-tarbiyaviy faoliyat guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar oʻyinlari, boʻsh vaqt va oʻquv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. Oʻquv-tarbiyaviy faoliyat taʼlim va ijtimoiy ehtiyojlar (salomatlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va individual rivojiga asoslanuvchi oʻquv rejasiga muvofiq olib boriladi. Oʻquv-tarbiyaviy faoliyat bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi. Oʻquv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish taʼlim sharoitlariga bogʻliq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi.

Oʻquv-tarbiyaviy faoliyatda quyidagi rejalashtirish turlari mavjud:

-yillik mavzuviy;

-haftalik.

Rejalashtirishda faoliyatning maqsadlari, mavzusi, mazmuni va turlari ifodalanadi. Faoliyat turini tanlashda nafaqat oʻquv-tarbiyaviy faoliyatning umumiy

maqsadlari, balki rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar, faoliyat mazmuni va turlarini integratsiyalash ham hisobga olinadi. Rejalashtirishda kun tartibini hisobga olish zarur. Kun tartibi ish sur'atini belgilaydi va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga oson o'tishda yordam berishi lozim. SHuni yodda tutish joizki, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Kun tartibini tuzishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga chiqish vaqti hisobga olinadi.

Yillik mavzuviy reja.

Yillik mavzuviy rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hudud yoki boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zining yillik mavzuviy rejasini tuzishga haqli. Mazkur mavzuviy reja maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashida tasdiqlanadi.

Haftalik reja

Haftalik reja yillik mavzuviy rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg'ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo'naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o'tishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatlil o'yinlar rejalashtiriladi. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat / passiv faoliyat; individual faoliyat / kichik guruhda / katta guruhda/ tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat / bola rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat) va uni o'tkazish joyi (xona ichidagi faoliyat / ko'chadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak.

Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o'zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda, rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz ko'proq yoxud kamroq vaqtga mo'ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi

bahorgi gullagan bog'ga borishni rejalashtirgan bo'lsa-yu, ob-havo juda yomg'irli bo'lsa, bu tadbirni xonada o'tkazishning imkoni bo'lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.

Haftalik reja – bu tarbiyachining ish jurnali va mashg'ulotlar konspekti.

Tarbiyachining ish jurnali quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

- titul varag'i;
- guruhning iliq va sovuq davrdagi kun tartibi;
- ertalabki badantarbiya kompleksi;
- guruhda sentyabrdan avgustgacha bo'lgan ta'lim jarayonini rejalashtirish tarkibiga ertalabki suhbat, sayr, kunning ikkinchi yarmi kiradi;
- haftalik ish tahlili;
- ilovalar.

Mashg'ulotlar konspektlarida maqsadlar, faoliyatning qisqacha ta'rifi, zaruriy jihozlar ifodalanadi. Mazkur konspektlar tavsiyaviy xarakterga ega va tarbiyachi tomonidan ijodiy o'zgartirilishi mumkin.

Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari.

Mazkur dastur bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlarini ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g'amxo'rlik qilish, erkin ijodiy o'z-o'zini ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko'zda tutadi. Shu sababli, rejalashtirish bilan bir qatorda, bola rivojlanishini kuzatib borish pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolani va uning o'zini tutishi sabablarini yaxshiroq tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko'rish, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish yo'llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini sistematik kuzatib boradi. Pedagogik kuzatuvlar asosida ta'lim faoliyatini rejalashtirish ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi. Bolaning individual rivojlanishini kuzatish uchun O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalar rivojlanishiga oid

Davlat talablarida aks ettirilgan sohalar va soha ostilari hamda kutilayotgan natijalar olingan (malaka va ko'nikmalar).

Bolaning rivojlanish xaritasi.

Bolaning rivojlanish xaritasi 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, har bir bola uchun individual tarzda yiliga uch marta to'ldiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidan chiqishda 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi to'ldiriladi (faqat maktabgacha tashkilot bitiruvchilari uchun). Maktabga tayyorgarlik deganda bolada umumiy kompetensiyalarni va rivojlanish sohaları kompetensiyalarining shakllanganligi tushuniladi. Bu xarita maktabgacha ta'lim tashkilotining har bir bitiruvchisi uchun to'ldiriladi. Unda Davlat dasturiga muvofiq rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) bo'yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi.

Tarbiyachiga u yoki bu natija qanday darajada aks etayotganini beqilash taklif etiladi. Rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) umumlashtiriladi va tavsia hamda takliflar ko'rinishida ota-onalarga e'tiboriga havola etiladi.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhit mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar, milliy va mintaqaviy an'analar, tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim, muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar.

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining vazmun va mohiyati.
2. Bolaning rivojlanish sohaları kompetensiyalarini ayting.
3. MTTda ta'lim jarayononi tashkil qilish tamoyillari.
4. O'quv tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish.

IV BOB. TARBIYACHINING SHAXSIY ISH REJASI.

4.1. Guruhning kun tartibini to'g'ri rejalashtirish.

Tayanch tushunchalar: ta'lim-tarbiyaviy faoliyat, kunning ikkinchi yarmi, sayr, tarbiyachi, ish reja, o'yin, rejalashtirish.


Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ish jurnalini yuritishdan maqsad, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi talablarini bajarish asosida ertalabki soat, sayr, kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan yakka tartibda ishlashni loyihalashtirishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni rejalashtirish bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishning negizi hisoblanib, bunda tarbiyachilar ta'limiy vazifalar, bolalar bilan birgalikda olib boriladigan ish shakllari, rivojlantiruvchi muhitga kiritish lozim bo'lgan o'zgartirishlarni belgilab beradi.

Rejalashtirish ta'lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish, bolalarga axborot va jismoniy vazifalarni me'yordash imkonini beradi. Hamda ish rejaning to'laqonli bajarilishini tahlil qilish, bolaning rivojlanish sur'atini kuzatish va ular ushun yanada qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi. Guruh yoshiga va MTTning ish vaqtiga qarab kun tartibi belgilanadi.

Bir oy uchun 2 ta ertalabki badantarbiya komplekslari rejalashtirilib, 1-2 xafna 1-15 sanagacha predmetsiz mashqlar, 3-4 xafna 16-31 sanalarda predmetlar bilan ertalabki badan tarbiya mashqlari bajarilishi lozim. Ertalabki badan tarbiya mashqlarini alohida daftarga yozib borish yoki oldindan kartotekalar tayyorlab olish maqsadga muvofiq.

Ish rejaning keyingi sahifasida tarbiyachining ta'limiy-tarbiyaviy faoliyati aks




ettirilib, hafta mavzusi, davr ko'rsatiladi. Ertalabki doirada bolalar bilan olib boriladigan qabul, suhbat, o'yinlar, ertalabki badan tarbiya kompleksining tartib raqami kiritiladi.

Ish rejaning "Markazlardagi faoliyatlarga kiritilgan o'zgarishlar" bo'limiga mavzuli rejadagi rivojlantiruvchi markazlar mavzulariga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, o'sha markaz nomi va mavzu, unga kerakli jihozlar yoziladi. Markazlardagi faoliyatlar o'zgarmagan holatlarda bu joy bo'sh qoladi.


Ish rejaning "Umumiy guruh bo'lib ishlash" bo'limi – bu frontal tashkil etiladigan faoliyat bo'lib, unga nutq o'stirish, matematika, savodga o'rgatish, rus va o'zbek tillari, ingliz tili, jismoniy tarbiya hamda musiqa faoliyatlari kiradi. Tarbiyachi tomonidan mutaxassislar bilan kelishgan holda ushbu frontal faoliyatlarni (mashg'ulot) o'tish vaqti belgilanadi va rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi. Yosh tarbiyachilar frontal faoliyatlarni (mashg'ulot) to'liq ochib yozishlari, tajribaga ega bo'lgan tarbiyachilar esa frontal mashg'ulotlarni tezis shaklida yoritib berishlari mumkin. Frontal faoliyatlarni (mashg'ulot) yozish daftari rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi va nazoratga olinadi.

Ish jurnalining "Sayr" bo'limi 5 qismdan iborat. Bu qismlarda tarbiyachi eng avvalo kuzatilayotgan ob'ektni yoritishi, ob'ektga mos bo'lgan mehnat turini,



harakatli o'yin, ixtiyoriy o'yinlarni rejalashtiradi. Tarbiyachi bolalarni ixtiyoriy o'yinga jalb qilgan vaqtda, asosiy harakat turlarini mustahkamlashga muhtoj bo'lgan bolalar bilan ishlaydi va ularda sakrash, yugurish, tirmashib shiqish, uloqtirish, irg'itish, turli usullarda yurish va boshqa harakatlar bo'yisha olgan malakalarini mustahkamlaydi.

Ish jurnalidagi “Kunning ikkinchi yarmi” bo’limi bolalar bilan yakka ishlash, badiiy adabiyotlar, o’yin va faoliyatlar qismlariga bo’lingan bo’lib, unda tarbiyachi bola bilan qaysi mavzuda yakka ishlashini, o’qib beriladigan, sahnalashtiriladigan, hikoya qilib beriladigan, yod olinadigan asarlar nomini, suyetli-qoidali, ta’limiy, stol ustida



o’ynaladigan, rivojlantiruvshi o’yinlar, tug’ilgan kunlar, ushrashuvlar, qo’g’irshoq teatrlari, to’garaklar va boshqa ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlarni rejalashtiradilar.

Kechki sayrda esa tarbiyachi kuzatish, ixtiyoriy o’yinlar, ota-onalar bilan suhbat qismlarini rejalashtiradi. Jurnalning davomida bolalar faoliyatini tashkil etishdagi o’zgarishlar bo’limi kiritilgan bo’lib, unda tarbiyachi kun davomidagi faoliyatlarda o’zgartishlar kiritgan bo’lsa, bu haqda albatta ma’lumot yozib qo’yadi. Masalan: Kun sovuq bo’lganligi ushuncha rejalashtirilgan ekskursiyaning o’tkazilmaganligi.

Ish jurnalida “Hafta yakuni” bo’limi bo’lib, u 4 qismdan iborat:

- “Bolalar ilgari nimani bilishar edi?” - Bu savolga tarbiyachi hafta davomida berilayotgan mavzular haqida bolalarning qanchalik tushunshalari borligini yozadi;
- “Bolalar nimani bilishdi?” - Savoliga tarbiyachi hafta davomida bolalar tomonidan markazlar va umumiy guruhlarda ishlash jarayonlarida olgan yangiliklarini yozadi;
- “Bolalar nimani bilishni hoxlaydilar?” - Bu savolga tarbiyachi bolalarda hosil bo’lgan savollar, qiziqishlardan kelib shiqqan holdagi mavzularni kiritadi;
- “Kelgusi haftaga g’oyalar”- da esa tarbiyachi bolalar qiziqishlari va hoxishlari asosida tashkil etiladigan faoliyatlarni yozadi.

Ish jurnalidagi haftalik ish rejasining so'nggida rejaning qay holatda yozilganligi bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati(rahbar, metodist)ning tavsiya va ko'rsatmalari beriladi. Bu tarbiyachiga kelgusi hafta ish rejasini tuzishda metodik yordam bo'lib hisoblanadi. Ish jurnali maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangan, imzolangan, tikilgan, muhrlangan bo'lishi shart.


Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlarining bir kunlik faoliyati:

1. Bolalarni qabul qilish, mustaqil faoliyat, o'yinlar, ertalabki badantarbiya
2. Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta
3. Mustaqil faoliyat, o'yinlar
4. O'yinli ta'lim faoliyati
5. Didaktik o'yinlar, mustaqil faoliyat
6. Sayrga tayyorgarlik, sayr
7. Sayrdan qaytish, o'yinlar
8. Tushlikka tayyorgarlik, tushlik
9. Uxlashga tayyorgarlik, kunduzgi uyqu
10. Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari
11. Uyqusiz vaqt: Erkin faoliyat
12. Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik
13. Qo'shimsha ta'lim, badiiy adabiyot o'qish, mustaqil o'yin faoliyati

4.2. Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaviy ifaoliyatni rejalashtirish pedagoglar, tarbiyachi-metodist, direktor faoliyatining muhim turlaridan biridir.

Rejalashtirish – ta'lim-tarbiyaviy ishning zarur sharoit, foydalanadigan vosita, ishning usul va metodlarini ko'rsatib, ta'lim-tarbiyaviy



ish dasturini amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir.

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta'lim tashkiloti ishini rejalashtirish mumkinligini va zarurligini ta'kidlab, bunda u inson shaxsini shakllanishida ijtimoiy omillar, muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga egaligi haqida asosiy qoidalarga tayanadi. Rivojlanishning asosiy omili bo'lgan tarbiya jarayonida bilim, aqliy va amaliy malakalar hamda harakat usullarini bola tomonidan egallanishi amalga oshiriladi. Tarbiyaning mazmunini uning maqsadi belgilaydi. Rejalashtirishning maqsadi – «Maktabgacha ta'lim tashkilotning ta'lim-tarbiya dasturi»ning bajarilishini ta'minlashdir. Pedagogik jarayonni yagona bir butun sifatida tashkil etish vazifasi rejalashtirishda yetakshi hisoblanadi. Rejalashtirish pedagogik jarayonni yaxlit tashkil etishga: bolalar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifasini aniqlashga, bolalarni yoshiga ko'ra pedagogik ta'sir mazmunini va usullarini tanlashga, bolalar hayoti, faoliyat turlari, rahbarlik metodlari va shu kabilarni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yo'llangan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish murakkab bo'lib, tarbiyachidan bolalarning ruhiy fiziologik taraqqiyot darajasi to'g'risidagi bilimlarni, ta'lim-tarbiya dasturini, ta'lim va tarbiyaning metod va usullarini bilishni taqozo etadi. Reja bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlariga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish metod va usullarni yaxshilab o'ylab olish, kerakli material va jihozlarni tayyorlash imkonini yaratadi. Tarbiyachi rejalashtirgan hamma ishlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi lozim. Shu bilan birga reja qotib qolgan narsa bo'lmay, vaziyatdan kelib chiqib, unga o'zgarishlar kiritish mumkin.

O'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv va tarbiyaviy faoliyat o'quv yili bo'yicha tashkil qilinadi. O'quv yili 2 sentyabrda boshlanadi va 31 maygacha davom etadi. 1 iyundan 31 avgustgacha MTTda yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog

tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o'yinlari, bo'sh vaqt va o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi

O'quv-tarbiyaviy faoliyatda quyidagi rejalashtirish turlari mavjud:

Yillik mavzuviy reja. Yillik mavzuviy rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. MTT hudud yoki boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zining yillik mavzuviy rejasini tuzishga haqli. Mazkur mavzuviy reja MTTning pedagogika kengashida tasdiqlanadi.

Haftalik reja. Haftalik reja yillik mavzuviy rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo'yisha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Haftalik reja – bu tarbiyachining ish jurnali va mashg'ulotlar ishlanmasini o'z ichiga oladi.

Integratsiyalashgan rejalashtirish bolalarni o'qitish va rivojlantirish integrallashgan jarayondir. Bola rivojlanishining har bir sohasi uning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq. Ta'lim-tarbiya ishlarini bir-biridan ajratmaslik va turli sohalardagi ta'lim jarayonini o'zaro bog'liq va bir-biri bilan uyg'unlashgan holda rejalashtirish zarur.

Ta'limni rivojlantiruvchi muhit bola rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar (o'yinlar, o'yin predmetlari va jihozlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, bolalarning turli faoliyat turlari bilan shug'ullanishi uchun mo'ljallangan uskunalar) o'zaro bog'liqligini belgilab beradigan hal qiluvshi ko'rsatkichlardir.

Ertalabki soat davomida o'tkazish tavsiya etiladigan o'yin turlari:

- Ta'limiy o'yinlar
- Stol o'yinlar
- Qurilish o'yinlari
- Voqeaband o'yinlar
- Rivojlaniruvshi o'yinlar

Ertalabki soatda o'tkaziladigan mehnat turlari.

- Navbatchilik
- o'z-o'ziga xizmat

- maishiy mehnat
- Ilm- fan va tabiat markazidagi mehnat
- Tabiatdagi mehnat

Ertalabki soatda tashkil etish uchun tavsiya etiladigan suhbat mavzulari, o'yinlar va faoliyatlar:

- Salomatlik;
- Oila, ota-onaga hurmat;
- Vatan, ona-yurt;
- Yo'l harakati qoidalari va transport;
- Mehnat;
- Do'stlik;
- Sport ;
- Havfsizlik qoidalari;
- Milliy qadriyatlar;
- Hayvonot olami va ularni asrash;
- Suvni isrof qilmaslik;
- Tabiatni muhofaza qilish;
- O'yinlar;
- Maktab (katta va maktabga tayyorlov guruhlarida);
- O'qilgan asarlar haqida;
- Bayram taassurotlari haqida;

4.3. Sayrni to'g'ri tashkillashtirish.

Tarbiyachining sayrdagi asosiy vazifasi bolalar ushun faol, mazmunli, xilma-xil va qiziqarli faoliyatni tashkil etishdir.

Sayr:

1. kuzatish.
2. mehnat
3. asosiy harakat turlarini mustahkamlash

4. harakatli o'yin

5. ixtiyoriy o'yinlar

(Sayr qismlarining ketma-ketligi olingan mavzuga qarab o'zgarishi mumkin.)

Kundalik faoliyat davomida sayr ikki marta rejalashtiriladi: kunning birinchi yarmida mashg'ulotlar o'tkazilgandan keyin, kunning ikkinchi yarmida kechki soatdan keyin. Sayrda tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish rejalashtiriladi. Masalan, harakatlanayotgan transportni, bayramga bezatilgan ko'chani, bog'bon mehnati, barg yozayotgan daraxtlar, gullab turgan o'simliklarni, yog'ayotgan qor. Bular haftasiga 5-6 marta kuzatiladi. Sayr vaqtida tarbiyachi bolalar tasavvurini rivojlantirishga yordam beradigan tabiat hodisalarini kuzatish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, qorning erishi, kurtaklarning bo'rtishi, maysaning paydo bo'lishi va shu kabi mavsumiy o'zgarishlar kuzatiladi. Tabiat hodisalarini kundalik kuzatishlar tasodifiy bo'lmasligi kerak. Tarbiyachi oldindan puxta o'ylab qo'yishi lozim.

Sayr davomida bolalarning maydonshadagi, polizdagi mehnati rejalashtiriladi:

- a). Tabiatdagi mehnat (daraxt o'tqazish, suv quyish, mavsumiy gular ekish, chopiq qilish, o'simlik urug'ini terish, qushlarga don berish);
- b). Maishiy-xo'jalik mehnati (barglarni yig'ish, qorni tozalash, ayvonchani supurish, gullarni sug'orish).

Ish rejaning "Kunning ikkinchi yarmi", bo'limining "Qoidali o'yinlar" qatoriga o'yinning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi ko'rsatilgan holda rejalashtiriladi. Barcha guruhda bitta yangi yoki tanish o'yinni rejalashtirish mumkin.



Bolalar bilan olib boriladigan yakka

tartibdagi ishlar: Jismoniy tarbiyadan asosiy harakatga doir mashq qildirish, tasviriy faoliyat, musiqa, nutqni oʻstirish va b. Asosiy harakatlarni mashq qildirish boʻyicha tadbirlar yil fasllariga qarab tanlanadi, masalan, qishda yugurish, sakrash, kabi ishlar rejalashtiriladi; emaklab, sirpanib sayr, gimnastika narvonshasidagi muvozanatni saqlashga oʻrgatuvshi mashqlar rejalashtirilmaydi.

Ixtiyoriy oʻyinlar. Qurilish, qum oʻyinlari va ularga kerakli materiallar, qurollar. Sport oʻyinlari (volrybol, stol tennisi), sport ermak oʻyinlari (chana, velosiped). Sayrda bolalarning syujetli-rolli oʻyinlari yuzaga kelishi va rivojlanishi, oʻyin harakatlariga bolalarni oʻrgatish usullari ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi kundalik rejasida oʻyin ushuni olib shiqiladigan oʻyinshoqlarni, ularning ayrim qismlarini ham koʻrsatadi.

Sayr ushuni oʻyin turlari:

- sport mashgʻulotlari ("Sleding", "Gliding", "shangʻi");
- estafeta oʻyinlari;
- sport elementlari bilan oʻyinlar;
- hikoya oshiq oʻyinlar;
- kulgili oʻyinlar
- diqqatga sazovor joylar
- qor bilan oʻyinlar(qor odam yasash)
- xalq oʻyinlari;
- dumaloq raqs.

Bolalarning mustaqil faoliyati. Uni tashkil qilish ushuni shart-sharoitlarni yaratish kerak: atributlar, tashqi materiallar, mehnat ushuni vositalar boʻlishi lozim.

4.4. Kunning ikkinchi yarmini samarali tashkil etish.

Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish. Kunning ikkinchi yarmi ikki qismdan iborat: guruhdagi va sayrdagi ishlar kunning ikkinchi yarmida bolalarning guruhdagi oʻyin faoliyati rejalashtiriladi. Uyuqdan keyingi oʻyin ushuni kichik guruhda – 45 daqiqa, oʻrta guruhda 1 soat, katta guruhda-1soat, tayyorlov guruhida -1,5 soat ajratiladi. Syujetli-rolli oʻyinlar ham rejalashtiriladi (faqat nomigina yoziladi). Rejada shuningdek stol usti bosma oʻyinlari, didaktik oʻyinlar ham moʻljallanadi. Rejaga stol usti bosma uyinlari qoidasi, tushuntirilishi ham yoziladi. Bu vaqtda dramalashtirilgan

o'yinlar ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi qurilish o'yinlarida o'zining qatnashishini ham rejaga yozib qo'yadi. Unda tarbiyachining bolalar bilan atributlar yasashi ham mo'ljallanadi. Keshqurunga ko'ngil ochish o'yinlarini rejalashtirish mumkin. U haftasiga bir marta o'tkaziladi. Katta va tayyorlov guruhida kitoblarni bir nesh kun davomida o'qib berish ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi har gal o'qishdan oldin "O'tgan gal men sizlarga nima o'qib bergan edim" deydi. Bolalar buni esga tushirib, so'zlab berishadi. Tarbiyachi savollar bilan yordam berib turadi. Kunning ikkinshi yarmida asosan bolalarning xilma-xil o'yin faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari ushuncha sharoit yaratish, o'yinshoqlar bilan o'ynashga o'rgatish va boshqalar kalendar rejasiga yoziladi. O'yinda tarbiyachining qatnashishi ham rejada qayd etiladi. Bu bola-lar o'yinini tashkil etish va unga tarbiyachining rahbarlik qilishi ushuncha shart-sharoit yaratadi. Katta va tayyorlov guruhlarida tarbiyachining bolalar o'yiniga rahbarligi o'zgarib, bevosita rahbarlikdan bivosita rahbarlikka o'tadi, tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatlarini rag'batlantiradi. Tarbiyachi qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarni, sahnalashtirilgan va qoidali o'yinlarni ham rejalashtiradi. Kunduzgi uyqudan keyin guruh xonasini yig'ishtirish, yirilgan kitoblarni ta'mirlash, qo'g'irshoq kiyimini yuvish, kichik bolalar ushuncha o'yinchoqlar yasab berish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi mehnat faoliyati rejalashtiriladi. Tarbiyachi shuningdek ko'ngil ochar o'yinlarni ham unutmaydi. Bunga qo'g'irshoq, soya teatri, kontsertlar, sport, musiqa va badiiy ko'ngil ochish soatlari, musiqa eshitish va shunga o'xshashlar kiradi. Tarbiyachi badiiy asarlarni o'qib berish, klassik va zamonaviy rassomlarning rasmlarini tomosha qilishni ham esdan shiqarmaydi. Kunning ikkinshi yarmi-da har kuni sayr o'tkaziladi, uning mazmuniga harakatli va ijodiy o'yinlar, mehnat faoliyati kiradi. Buyumlarni, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatish, jonli ob'ekt bilan mulqotda bulish ham kalendar rejasidan o'rin egallashi kerak. Tarbiyachi bolalarning o'zlari qiziqqan faoliyat bilan shug'ullanishlari ushuncha shart-sharoit yaratadi. Reja kun davomida har bir bola mazmunli, qiziqarli faoliyat ilan shug'ullanadigan qilib tuzilishi kerak.

05-02- Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining shaxsiy ish rejasi. (Namuna)

O'quv yili ushun yillik vazifalarni rejalashtirish

1.
2.
3.
4.

GURUHNING KUN TARTIBI

(o'quv yili davrida)

	TADBIRLARNING NOMI	MUDDAT
Ertalabki doira		
	Bolalarni salomatligini tekshirib qabul qilish, o'yinlar, bolalar bilan suhbat, ertalabki badan tarbiya	
	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	
	Mustaqil faoliyat, o'yinlar	
	Ta'limiy o'yin faoliyati	
Katta doira		
	Guruhdagi bolalar bilan ta'limiy faoliyat	
	Sayrga tayyorgarlik va sayr	
	Sayrdan qaytish, o'yinlar	
	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	
	Kunduzgi uyquga tayyorgarlik, uyqu	
	Tetiklashtiruvshi mashqlar, suv va havo muolajalari	
	Uyqusiz vaqt (mustaqil faoliyat)	
	Keshki choyga tayyorgarlik, keshki choy	
Kunning ikkinshi yarmi		
	Qo'shimsha ta'lim, yakka ishlash, badiiy adabiyotlarni o'qish, ixtiyoriy o'yinlar	
Kechki sayr		
	Kuzatish, harakatli o'yinlar, ixtiyoriy o'yinlar	
	Ota-onalar bilan suhbat va bolalarni uyga kuzatish.	

ERTALABKI GIMNASTIKA KOMPLEKSI

Oy	Hafta	Ertalabki gimnastika kompleksi
----	-------	--------------------------------



Sentyabr	1 - 2	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
	3 - 4	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
Oktyabr	1 - 2	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
	3 - 4	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
Noyabr	1 - 2	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
	3 - 4	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
Dekabr	1 - 2	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
	3 - 4	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
Yanvar	1 - 2	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
	3 - 4	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
Fevral	1 - 2	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
	3 - 4	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
Mart	1 - 2	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
	3 - 4	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
April	1 - 2	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
	3 - 4	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
May	1 - 2	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____
	3 - 4	Ertalabki gimnastika kompleksi № ____

MAVZU			
DAVR			
O'QUV- TARBIVAVIY FAOLIYAT	ERTALABKI DOIRA	DUSHANBA	Ertalabki qabul
			Bolalar bilan suhbat
			O'yinlar
			Ertalabki badan tarbiya
	SESHANBA	DUSHANBA	Ertalabki qabul
			Bolalar bilan suhbat
			O'yinlar
			Ertalabki badan tarbiya
	SHORSHANBA	DUSHANBA	Ertalabki qabul
			Bolalar bilan suhbat
			O'yinlar
			Ertalabki badan tarbiya
	PAYSHANBA	DUSHANBA	Ertalabki qabul
			Bolalar bilan suhbat
			O'yinlar
			Ertalabki badan tarbiya

SANA	JUMA	tarbiya			
		Ertalabki qabul			
		Bolalar bilan suhbat			
		O'yinlar			
		Ertalabki badan tarbiya			
	MARKAZLARDAGI FAOLIYATLARGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR				
	RIVOJLANISH MARKAZLARI		MAVZU, O'YIN VA TADBIRLARNING NOMI	RESURSLAR IZOH	

Umumiy guruh bo'lib ishlash	Dushanba	Mashg'ulot:		
		Mavzu:		
		Maqsad:		
		Resurslar		
		Mashg'ulotning borishi		
	Seshanba	Mashg'ulot:		
		Mavzu:		
		Maqsad:		
		Resurslar		
	Shorshanba	Mashg'ulotning borishi		
		Mashg'ulot:		
		Mavzu:		
		Maqsad:		
		Resurslar		
		Mashg'ulotning borishi		

O'quv – tarbiyaviy faoliyat	Umumiy guruh bilan ishlash	Payshanba	Mashg'ulot:		
			Mavzu:		
			Maqsad:		
			Resurslar		
			Mashg'ulotning borishi		
	Juma	Mashg'ulot:			
		Mavzu:			
		Maqsad:			
		Resurslar			
	Dushanba	Sayr	Mashg'ulotning borishi		
				O'yin va tadbirlar nomi	Resurslar, izoh
			Kuzatish		
			Mehnat		
			Asosiy harakat turlarini		

	Seshanba	mustahkamlash		
		Ixtiyoriy o'yinlar		
		Kuzatish		
		Mehnat		
		Asosiy harakat turlarini mustahkamlash		
		Harakatli o'yin		
		Ixtiyoriy o'yinlar		

Shorshanba	Kuzatish		
	Mehnat		
	Asosiy harakat turlarini mustahkamlash		
	Harakatli o'yin		
	Ixtiyoriy o'yinlar		
Payshanba	Kuzatish		
	Mehnat		
	Asosiy harakat turlarini mustahkamlash		
	Harakatli o'yin		
	Ixtiyoriy o'yinlar		
Juma	Kuzatish		
	Mehnat		
	Asosiy harakat turlarini mustahkamlash		
	Harakatli o'yin		
	Ixtiyoriy o'yinlar		

O'quv – tarbiyaviy faoliyat			O'yin va tadbirlar nomi	Resurslar, izoh
Kuning 2 - yarim	Dushanba	Yakka ishlash		
		Badiiy adabiyot		
		O'yin va faoliyatlar		
		Yakka ishlash		
		Badiiy adabiyot		
		O'yin va faoliyatlar		
	Seshanba	Yakka ishlash		
		Badiiy adabiyot		
		O'yin va faoliyatlar		
	Chorshanba	Yakka ishlash		
		Badiiy adabiyot		
		O'yin va faoliyatlar		
Payshanba	Yakka ishlash			
	Badiiy			

	Juma	adabiyot			
		O'yin va faoliyatlar			
		Yakka ishlash			
		Badiiy adabiyot			
		O'yin va faoliyatlar			
	Keshki sayr	Dushanba	Kuzatish		
			Ixtiyoriy o'yinlar		
			Ota-onalar bilan suhbat		
		Seshanba	Kuzatish		
			Ixtiyoriy o'yinlar		
			Ota-onalar bilan suhbat		
		Shorshanba	Kuzatish		
			Ixtiyoriy o'yinlar		
			Ota-onalar bilan suhbat		
		Payshanba	Kuzatish		
Ixtiyoriy o'yinlar					
Ota-onalar bilan suhbat					
Juma	Kuzatish				
	Ixtiyoriy o'yinlar				
	Ota-onalar bilan suhbat				
	Kuzatish				
	Ixtiyoriy o'yinlar				
Bolalar faoliyatining tashkil etishdagi o'zgarishlar					
Hafta yakuni:					
Bolalar ilgari nimani bilishar edi?					
Bolalar nimani bilishdi?					
Bolalar nimani bilishni hojlaydilar?					
Kelgusi haftaga g'oyalar					

Mavzu yuzasidan savollar:

1. 05-02 qanday hujjat?
2. Guruhning kun tartibi necha qismdan iborat va ular qaysilar?
3. Ta'lim –tarbiyaviy kuzatish qay tartibda olib boriladi?
4. Frontal mashg'ulot bilan markazlardagi faoliyatning farqi nimada?

V BOB. BOLALAR DAVOMATINI QAYD ETISH DAFTARI

5.1 Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, patronaj va ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar).

Tayanch tushunchalar: ta'bel daftar, filtr daftar, patronaj daftar, ota-ona, ma'lumot, davomat, oy, kun, hafta tahlil, tarbiyachi

Tarbiyachi tomonidan yuritiladigan tabel, filtr va patronaj daftari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ular bolalarni qabul qilish va qatnovini nazorat qiluvchi hujjatlar hisoblanadi. Daftarda ota-onalar haqidagi ma'lumotlar ham qayd etiladi. Daftarlar umumiy bitta bo'lishi yoki 4 ta daftar alohida yuritilishi mumkin, alohida yuritilganda, ularning har biriga 05-03 raqami qo'yiladi.

Davomat daftarining yuritilish tartibi quyidagicha:

Bolalar davomatini qayd etish daftari yosh guruhlarida bolalar qatnovini har kuni soat 9.00 dan kechiktirmay belgilab boriladi va kelgan bolalarning umumiy soni chiqarib qo'yiladi. Oy yakunida ro'yxatdagi bolalar kelgan, kelmagan kunlarining umumiy soni chiqariladi va natijalar umumlashtiriladi. Tahlilda ro'yxat



bo'yicha bolalar soni, ushbu oy davomida kelgan va umuman kelmagan bolalarning aniq soni yoziladi. Ushbu tahlil asosida bola kuni bajarilishi aniqlanadi. Umumiy bolalar kuni va bola kelmagan kunlarning sababli va sababsiz soni yoziladi. Tahlil qilgan tarbiyachining familiyasi va imzosi, hamshira tomonidan bolalar sonining haqqoniyligini tasdiqlab imzo qo'yiladi. Tashkilot rahbari oy davomida yuritilgan davomat va tahlilni nazoratdan o'tkazib, imzo va muhr qo'yadi. Tabel daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Filtr va patronaj hujjatlarini yuritish tartibi.

Tarbiyachi bolalarni qabul qilish vaqtida har bir bolaning ota-onasi bilan bola salomatligi haqida qisqacha suhbatlashadi, birlamchi tibbiy nazoratdan o'tkazadi. Filtr daftari tana harorati, teri tozaligi, bosh tozaligi (pedikulyozga tekshiruv) va ota-onadan olingan so'rovnomalar natijalari belgilanadi. Bolaning filtr nazorati ota-ona oldida o'tkaziladi. Bola uch kun kelmagan taqdirda filtr nazoratini tashkilotning tibbiyot xodimlari tomonidan o'tkazilishi va ota-onadan bolaning muassasaga kelmaganlik sababini tasdiqlovchi tegishli hududiy davolash tashkiloti tomonidan berilgan maxsus shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilishi talab etiladi. Filtr daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Patronaj daftari: har bir yosh guruhida tarbiyachi tomonidan oyma-oy yuritiladi. Bola tashkilotga kelmagan kunlarning uchinchi kuni tarbiyachi oilaga tashrif buyurib (yoki telefon orqali), bolaning tashkilotga kelmaslik sababini aniqlaydi. Bola uzoq muddat kelmagan taqdirda, kelmagan kunlarning ettinchi kuni ikkinchi patronaj va o'n to'rtinchi kuni uchinchi patronajning o'tkazilishi va har bir patronaj qilingan kunning sanasi hamda kelmaslik sababi yozib borilishi lozim. Uch kun va undan ortiq tashkilotga qatnamagan bolaning tashkilotga kelgan kuni maktabgacha ta'lim tashkiloti tibbiyot xodimi (shifokori yoki hamshirasi) tomonidan kelmagan kunlar





uchun taqdim etilgan tibbiy ma'lumotnoma asosida nazoratdan o'tkazib, qabul qilishnishi va patronaj daftariga imzo qo'yiladi. Bola keyingi oy ham tashkilotga kelmagan holatda tarbiyachi ushbu bolani yana belgilangan tartibda patronaj daftariga ro'yxatga oladi. Patronaj daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari: ushbu daftarga bolaning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi, uy manzili, telefon raqami, ota-onasining familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning ish joylari haqidagi ma'lumotlar kiritiladi va qo'shimcha ma'lumotlar olinganda, daftarga qayd etib boriladi. Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.



Namuna

Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar

T.r.	Bolaning familiyasi, ismi	Bolaning sanasi va yili	tug'ilgan	Uy manzili va telefon raqami	Bola ota-onasining familiya, ismi, sharif, ularning ish joyi va telefon raqamlari		
					Ota	Ish joyi	Ona
1.							
2.							

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarbiyachining 05-03 ish hujjatini qaysi daftarlarni o'z ichiga oladi?
2. Filtr daftar qay tartibda yuritiladi?
3. Patronaj daftar qay tartibda yuritiladi?
4. Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari qay tartibda yuritiladi?

VI BOB. BOLALAR RIVOJLANISH XARITASI.

6.1. Bolalar rivojlanish xaritasini yuritish tartibi.

Tayanch tushunchalar: Jismoniy rivojlans, rivojlanish xaritasi, yirik motorika, sensomotorika, mayda motorika, kuzatuv, tahlil, ijtimoiy-hissiy, men konsepsiyasi.

Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uch sikldan iborat bo'lgan kuzatuv olib boriladi: dastlabki (o'quv yili boshida), oraliq va yakuniy.

Dastlabki kuzatuv o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentyabr oyi mobaynida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari aniqlanadi, uning shu davrgacha erishgan yutuqlari belgilanadi. Tarbiyachi ta'lim sohalarini o'zlashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan muammolarga ham e'tibor qaratadi, bolaning qanday sifatlari qo'llab-quvvatlashni talab etishini, har bir bola uchun qanday vazifalar dolzarbligini aniqlaydi. Keyin Bolaning ayni davrdagi yoshini hisobga olgan holda uning rivojlanish sohalarini bo'yicha yutuqlari xaritasi to'ldiriladi.

Oraliq kuzatuv birinchi yarim yillik oxirida (dekabr, yanvar) o'tkaziladi. Bu monitoringni o'tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to'g'riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatuv natijalariga ko'ra, tarbiyachi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug'ilgan holatlarda pedagogika jarayoniga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O'quv yili oxirida (odatda may oyida) tarbiyachi yakuniy kuzatuv o'tkazadi. Mazkur kuzatuv asosida yil boshida qo'yilgan vazifalar qanday hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko'zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi. O'tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- kuzatuv bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo'naltirilgan bo'ladi;


- bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatuv kamida ikki hafta (yoki oy) mobaynida olib boriladi;
- tarbiyachi bola to'g'risidagi ma'lumotlarni ota-onalar yoki tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin;
- tarbiyachi bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

O'quv yili oxirida tarbiyachi yakuniy pedagogika kengashiga bolalar tomonidan o'quv dasturi o'zlashtirilishining sifat darajasi to'g'risida hisobot yozadi va unda bolalar tomonidan tegishli natijalarga erishilmagan bandlar hamda ular nega bajarilmaganligi sabablariga to'xtalib o'tadi (ba'zi metodikalar o'zlashtirilmagani, tarqatma materiallar, adabiyotlarning etarli bo'lmagani, guruh texnika vositalari bilan etarli darajada ta'minlanmagani, bolaning betob bo'lgani va darslarni o'tkazib yuborgani, ota-onalarning faol bo'magani va h.k.). Ushbu natijalar asosida sabablarni bartaraf etish borasidagi ishlar rejalashtiriladi va mazkur guruh uchun kelasi yilga mo'ljallangan vazifalar belgilanadi.

Keyinchalik pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini yiliga kamida 3 marta to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (✓) bilan belgilaydi. Kuzatuv rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Agar u yoki bu bilim olish sohasida indikator «ishlamasa», pedagog (tarbiyachi) daftar hoshiyalariga tegishli belgilar qo'yishi lozim. Bu bola rivojlanishini kuzatish kundaligini yuritishda yordam beradi. Mazkur tashxis (diagnostika) asosida pedagog (tarbiyachi) ruhshunos (psixolog), logoped, jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi va boshqalar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini ajratadi, shuningdek, ta'lim sohasini o'zlashtirishning salbiy tomonlarini aniqlaydi. Olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritiladi, shuningdek, individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilanadi. O'quv yili oxirida (odatda may oyida) ushbu xarita bo'yicha yakuniy kuzatuv o'tkaziladi.

DMTTdagi bolalarning maktabga tayyorligiga oid mazkur xarita ta'lim jarayonining muvaffaqiyatliliigi va samaradorligini aniqlash, pedagoglarning professional malakasini oshirish, ta'lim jarayoni holati sifatini boshqarish imkonini beradi.

O'quv yili yakuniga etganidan so'ng maktabga tayyorlov guruhi bo'yicha o'tkazilgan monitoringga asosan amalga oshirilgan ishlar samaradorligi aniqlanadi, kutilayotgan natijalar bilan taqqoslash ishlari o'tkaziladi, muammolar, ularni hal qilish yo'llari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining keyingi o'quv yiliga mo'ljallangan ustuvor vazifalari belgilanadi.



BOLANING RIVOJLANISH XARITASI

3 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning familiyasi, ismi _____

MTTga qabul qilingan sana _____

Kuzatuv boshlangan sana _____

Kuzatuv boshidagi yoshi _____

Kuzatuv yakuni sanasi _____

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish

1.	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish	Yoshi					Izox		
		4-yil			5-yil				
		3yosh 3 oy	3yosh 6 oy	3 yosh 9 oy	4 yosh	4yosh 3 oy	4yosh 6 oy	4yosh 9 oy	5 yosh
1.1	Yirik motorika								
1	Turli usullarda yuradi (to'g'ri, erkin, ko'rsatilgan yo'nalishda)								
2	Muvozanatni saqlagan holda chopadi								
3	O'z joyida ikki oyoqda sakraydi								
4	Oldinga harakatlangan holda sakraydi								
5	Yoy ostidan emaklab o'tadi								

6	Badantarbiya vaqtidagi mashqlarni qaytaradi								
7	Uch g'ildirakli velosipedda uchadi								
8	Sport narvoni bo'ylab yuqoriga va pastga								
9	Kolonna, doiraga to'g'rilanishi mumkin								
10	Oyoq uchida, tovonda, orqa bilan, oyoq kaftining tashqi tomonida va tizzasini baland ko'targan holda yuradi								
1.2	Mayda motorika								
1	Arqonni halqaga kiritadi								
2	Mayda predmetlarni muayyan tartibda taxlaydi								
3	O'yinchoqlarni mustaqil tarzda qutiga soladi va ularni qutidan oladi								
4	Kattalar yordamida yirik munchoqlarni ipga o'tkazadi								
5	Predmetlarni bir idishdan boshqa idishga soladi								
6	Tugmalar, kiyim va poyafzal ilgaklarini mustaqil ravishda taqadi va echadi								
7	Mayda, o'rta va yirik munchoqlarni namunaga muvofiq ipga o'tkazadi								
8	Qulf, ilgaklarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi								
9	Mayda predmetlar (konstruktor detallari)ni buraydi va teskari burab oladi								
10	Konstruktorning katta va mayda qismlaridan turli predmetlar yasaydi								
1.3	Sensomotorika								
1	Katta koptoklarni o'tirgan va turgan holda ikki qo'li bilan masofaga dumalatadi								
2	Predmetni belgilangan nishonga qarata otadi								
3	Koptokni boshqa bolaga dumalatadi yoki otadi								
4	Silliq va g'adir-budur tekstura (tuzilish)ni ajrata oladi								
5	Ta'mni aniqlaydi								
6	Qo'g'irchoqlar solingan kolyaskani uchiradi								

7	O'ng va chap qo'li bilan koptokni galma-gal erga uradi								
8	Galma-gal o'ng va chap tomonga aylanadi								
9	Turli tuzilishlar va yuzalikalarni ajratadi								
10	Uchayotgan, suzayotgan mayda predmetlarni matrap bilan ushlaydi.								
1.4	Sog'lom turmush tarzi va xavfsizl								
1	Mustaqil tarzda yuz-qo'llarini yuvadi, sochiqdan foydalanadi								
2	Taroq va dastro'mol yoki salfetkadan foydalanadi								
3	Ovqatlanish vaqtida mustaqil tarzda qoshiqdan foydalanadi, ovqatlanishdan keyin og'zini chayadi								
4	O'yinchoqlarni yig'ishtiradi, xonada tarib saqlaydi								
5	Hojatxonadan mustaqil foydalanadi								
6	Tishlarini tozalaydi								
7	Vitaminlarning foydaliligi va sog'lom ovqatlanish haqida biladi								
8	Ovqatlanishdan oldin qo'llarini yuvadi								
9	Sanchqi (vilka)dan to'g'ri foydalanadi								
10	Tashqi ko'rinishini tartibga keltiradi								

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy hayotning tobora axborotlashuvi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining murakkablashuvi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni ijtimoiylashtirishni taqoza etmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotilari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy munosabatlarini tog'ri tashkil etishga tayyorlash kelajakda o'ta murakkab jarayonda samarali faoliyat yurita olishlari uchun imkon beradi. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi 4 ta kichik sohalardan iborat:

1. "Men" konsepsiyasi

2. Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot

3.Hissiyotlar va ularni boshqarish

4. Bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlanishi

“Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” asosida ishlab chiqilgan “Ilk qadam” dasturida ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo‘nalishida kattalar va tengdoshlari bilan muloqotchanlikni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Har qaysi yosh guruhiga tegishli bolalarni ijtimoiy munosabatlarga kirishishga qaratilgan ta‘lim-tarbiyaviy vazifalar berilgan. Bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlanishi bolalar jamoasini shakllantirish uchun ma‘lum shart - sharoitlar zarur hisoblashadi.

Bular:

- MTT xodimlarining o‘zaro hamjihat bo‘lishi;
- bolalar hayotini tashkil etish;
- o‘yinchoqlarning bolalar yoshiga, qiziqishiga mos kelishi hamda miqdor jihatdan ham bolalar soniga to‘g‘ri kelishi;
- Bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlanishi bolalarda o‘zaro ahillik, g‘amxo‘rlik, jamoatchilik, insoniylikni tarbiyalashga yordam beruvchi mashg‘ulotlar;
- bolalar uchun har xil qiziqarli faoliyatlarni tashkil etib borish;
- oila bilan mustahkam aloqa o‘rnatish,
- bolalarga xulq - atvor me‘yorlari va qoidalarini o‘rgatib borish.
- bolalar o‘rtasida ijobiy xayrixohlik muhitini yaratish.

“Men” konsepsiyasi” (inglizcha self-concept) – insonning o‘zi haqidagi tasavvurlarining rivojlanib boruvchi tizim, uning tarkibiga:

a) o‘zining jismoniy, intellektual, xarakterologik, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarini idrok qilish;

b) o‘z-o‘ziga baho berish;

v) shaxsiyatga tasir o‘tkazuvchi tashqi omillarni subyektiv idrok etish kiradi.

“Men” konsepsiyasi ko‘pincha yo‘naltirilgan tushunchalar sifatida aniqlanadi, u uchta tarkibiy qisimlardan iborat:

- Kognitiv qism – “Men” qiyofam (ingl. Self-image), o‘z ichiga shaxsning o‘zi haqida taassurotni qamrab oladi;

- Emotsional-qadriyatlar (affektiv) —o'ziga shaxs sifatida, o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati.
- Axloqiy fe'l-atvor qismi, bu kognitiv va baholash qismlarining fe'l-atvorida namoyon bo'lishini xarakterlaydi. Masalan: nutqda, o'zi haqidagi fikrlarda o'zini anglab ko'rsatadi. Bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlanishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axloqiy tarbiyaviy jarayonning umumiy yo'nalishi xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashning asosiy va zaruriy shartidir. Bolalarni o'rab turgan ishonch xayrixohlik muhiti, tarbiyachining vazminligi, tashqi va ichki madaniyati nihoyatda muhimdir.

2		IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH							
2.1.		4-yil				5-yil			
		3 yosh 3 oy	3 yosh 6 oy	3 yosh 9 oy	4 yosh	4yosh 3 oy	4yosh 6 oy	4yosh 9 oy	5 yosh
1	O'zi haqida birinchi shaxsda gapiradi – «men»								
2	O'zi haqida gapiradi (ismi, familiyasi, yoshi, jinsi va h.k. biladi)								
3	O'ziga yaqin insonlarga murojaat qiladi va ulardan yordam so'raydi								
4	O'ziga do'st tanlaydi va u bilan o'ynaydi								
5	O'z oilasi va qarindoshlik aloqalariga qiziqish bildiradi								
6	O'z ehtiyojlarini bildiradi								
7	Oshib borayotgan ishonchni namoyon etadi								
8	O'z istaklari, qiziqishlarini ifodalaydi								
9	O'z his-tuyg'ulari va kechinmalarini ifodalaydi								
10	O'yinlarda o'ziga ro'lb olishi mumkin								
2.2.		Hissiyotlar va ularni boshqarish							

1	Ertak, hikoya va multfilmlar qahramonlariga qayg'udosh bo'ladi								
2	Xursandchilik, g'am-tashvish singari hissiy holatlarni tushunadi								
3	O'z hissiyotlari va tashvishlarini ifodalaydi («menga yoqadi», «men yoqtirmayman»)								
4	Boshqa bolaning hissiyotlarini so'z bilan ifodalaydi								
5	Boshqalaraga nisbatan hamdardlik ko'rsatadi								
6	Syujet-rolli o'yinlarda ishtirok etadi								
7	O'z oilasi haqida gapira turib, unga nima yoqishi yoki yoqmasligini aytib o'tadi								
8	O'yin faoliyati vaqtida muloqotga kirishadi								
2.3	Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot								
1	Oila a'zolarini biladi								
2	Kattalar harakatiga taqlid qiladi								
3	O'z harakatlarida natijaga erishish yo'lida qat'iylik ko'rsatadi								
4	Kattalar va bolalar bilan hamkorlikda o'ynaydi								
5	Bolalarning salbiy xatti-harakatlariga nisbatan o'z munosabatini bildiradi								
6	Jamoaviy o'yin faoliyatida qatnashadai								
7	Tengdoshlarga nisbatan xayrixohlik bildiradi								
8	O'z mashg'ulotlari uchun joy tayyorlaydi								

Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining **nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari sohasiga ko'ra bola** 3 yoshga to'lganda kattalar bilan nutq orqali munosabatlarga bimalol kirisha oladi. Bu yoshdagi bolalar hamma kiyimini o'zi kiyishga harakat qiladi. O'z ehtiyojlarini so'zlar orqali bayon qila oladi. Nutqni to'la egallaydi. Bola kattalarning ko'rsatmasiga binoan hatti-harakatlarini to'g'ri yo'naltirishga o'rganadi. U kattalarning o'zaro muloqotini diqqat bilan tinglaydi, tushunishga harakat qiladi. Bu davrda bolalar ertak, hikoya, she'rلامي eshitishni juda yaxshi ko'radi. Bu — bolaning tashqi olamni bilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. 1,5 yoshli bolalar 30—40 so'zdan 100 gacha bo'lgan so'zlarni egallaydi, xalos. 2 yoshdan so'ng bolalar kattalarga juda ko'p savollar bilan murojaat qiladilar. «Bu nima?», «Nimaga bunaqa?» kabi savollar bolaning nutqi o'sayotganidan dalolat beradi. 2 yoshning oxirigacha bola 300 ta so'zni o'rganadi. 3 yoshning oxiriga borib, 500 dan —1500 gacha so'zni bilib oladi. Lekin bu yoshdagi ayrim bolalar nutqi avtonom bo'ladi, ular nonni «nanna», suvni «umma» kabi iboralar bilan ataydi. Asta-sekin kattalar bolalar bilan to'g'ri muloqotda bo'lsalar, bu avtonom nutq yo'qolib boradi, ya'ni bola har bir narsani o'z nomi bilan ayta boshlaydi. Bolaning bitta aytgan so'zi uning aytmoqchi bo'lgan gapini ifodalab beradi. Masalan, «oyi» desa oyisi bolaga non berishi yoki suv olib berishi mumkin. Shu bilan bolaning ehtiyoji qondiriladi. Bolani muloqotga o'rgatish uning ruhiy jarayonlari rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir etadi. Bu davrda bolalar nimani xohlasa o'sha zahoti muhayyo bo'lishi kerak. Lekin buni asta-sekin tarbiyalash orqali yo'qotish mumkin, ya'ni sabrli bo'lishni bolaga yoshlikdan o'rgatish lozim. 3 yoshli bolalarda birinchi «inqiroz» davri boshlanadi. Bu davrda bolalarda «hamma ishni o'zim qilaman», «men o'zim» degan tushunchalar shakllanadi. Ular qaysar, injiq bo'lib qoladilar. Ota-onalar bu yoshdagi bolalarga tarbiya berishda e'tiborliroq bo'lishlari lozim. 3 yoshdan so'ng bolalardagi krizis (inqiroz) davri sekinlashib qoladi. Bolaning kattalar bilan bo'ladigan muloqotlari normallasadi. Bola bu yoshda ota-onaning diqqat markazida bo'lmaydi, chunki uning kichik ukasi bo'lishi mumkin. Hozirgacha u kattalarning diqqat-e'tiborida bo'lgani

uchun endi uning fikricha ota-onasi faqat bir-biri bilan munosabatda bo'lib, unga e'tibor bermay qo'yishyapti. Unga tushunarli bo'lmagan narsalar haqida gaplashadilar. Bu unga yoqmaydi, natijada injiq bo'lib qoladi. Haqiqatda esa bola ancha mustaqil bo'lib qolgani uchun onasi undan ko'ngli to'lib, kamroq e'tibor beradi, bu esa bolaga yoqmaydi. Shuning uchun ota-ona bu davrdagi bolalarga e'tiborliroq bo'lishlari lozim. Shunday vaziyat ham bo'ladiki oilada- onasi yoki otasi bilan yashaydi. Ko'pincha bola balog'atga yetmaganligi uchun onasi bilan yashaydi. Bunday oila noto'liq oila deyiladi. Bunday oilada o'sayotgan bola avval otasi yo'qligini his qilmaydi, lekin birdaniga his qilib, u qo'zg'aluvchan, hissiyotga beriluvchan bo'lib qoladi. Ota-onalar farzandi uchun mas'uliyatni his qilishlari lozim. Chunki bola ota-onasining munosabatlarida aybdor emas. Agar bola sog'lom o'ssa, bolalar bog'chasiga beriladi. U yerda bola yangi kishilar bilan, yangi tengdoshlari bilan yangicha munosabatlarga kirishadi. Bu davrdagi bolalar o'yini ham o'ziga xos bo'ladi. Bolalar o'yinda turli rollarni o'ynaydilar. O'yin qoidalariga rioya qila boshlaydilar. Muloqot shakllari bola hali guruh bo'lib o'ynamasidan avval, ya'ni o'z-o'zi bilan o'ynaganidayoq shakllanadi. Bu davrda bola o'yin o'ynaganida ko'proq o'zining hatti-harakatlariga e'tibor beradi. O'zaro munosabatlar orqali bola boshqa bola bilan muloqotga kirisha boshlaydi. 4 yoshli bolalar ko'proq boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lishga harakat qiladilar. Bu bosqichda bolalar bir-birlari bilan o'yinchoqlarini almashtiradilar, birbirlariga yordam bera boshlaydilar. Hamkorlikda o'ynaladigan o'yinda bolalar bir-birlarini tushunishga, bir-birlariga yordam berishga o'rganadilar. Endi bola o'zi o'ynamasdan boshqa bolalar bilan o'ynashga harakat qiladi. O'yin o'ynaganda bolalar ko'pincha boshliq bo'lishga harakat qiladilar. Kim o'yinni tashkil qilsa u doimo boshliq bo'lgisi keladi. Shunda konflikt (nizolar) kelib chiqadi. O'yindan qoniqmagan bola «men o'ynamayman sen bilan,» deb noroziligini bildiradi. O'yin vaziyati bolalarda nutq munosabatlarini rivojlantiradi. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z boyliklari o'yin faoliyati orqali ortib boradi. Mashg'ulotlar orqali bolalarda nutq rivojlanib boradi. Chunki mashg'ulotlarda bolalar she'r yodlaydilar, ertaklar eshitadilar. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar bolalar bog'chasida o'ziga xos xususiyatga ega. Bolalar bog'chasi bola uchun faqatgina tashqi olamni bilish, dunyoni hissiy baholash

emas, balki o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish imkoniyatini beradigan joydir. Bog'chada bolalar jamoasi shakllanadi. Ilk bolalik davrida bola o'g'il bola bilan qiz bolani ajrata olmaydi. O'rta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ajrata boshlaydilar. Kattalar bolaga o'g'il bola qanday bo'lishi kerakligi, qiz bola qanday bo'lishi kerakligi haqida tushuntiradilar. Masalan, o'g'il bola yig'lasa «yig'lama, sen erkak bo'lishing kerak», «qiz bolamisan?» deb, qizlarga esa «daraxtga tirmashma, sen qiz bolas an «kabi iboralar bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari bolalar katta erkak va ayollarning xulq-atvorlariga qarab ham o'zlarini qanday tutishni o'rganadilar. O'yin faoliyatlarida erkak va ayollarga xos xususiyatlarni namoyon qiladilar. Demak, bu davrdagi bolalarda muloqotning shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda muloqotni rivojlantirish tarbiyachilarning mahoratiga bog'liq, ya'ni mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil qilinishi muhimdir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar endi o'zlari mustaqil harakat qila oladilar. O'zlari yuvinadilar, kiyinadilar. Lekin bari bir ular ota-onalarining erkalashlariga, diqqat-e'tiborida bo'lishga harakat qiladilar. Ota-onalar bola tarbiyasida quyidagi usullardan foydalanadilar: 1. Avtoritar uslub — boshqarish qattiqqo'llik asosida olib boriladi. Boladagi tashabbus ota-onalar tomonidan taqiqlanadi. Har bir hatti -harakati albatta jazolanadi. Bu usul orqali tarbiyalangan bolalar qo'rqqoq, jur'atsiz bo'lib qoladilar, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydilar. Chunki ota-ona ularga sharoit yaratib bermaydi. 2. Liberal uslub — bu usulda ota-ona farzandiga befarq bo'ladi, u nimaga qiziqadi, nimaga layoqati borligiga qiziqmaydi. Bola nima yomon, nima yaxshiligini bila olmaydi. Natijada bolalar mustaqil va faol harakat qila olmaydilar. 3. Demokratik uslub — tarbiyaning mahsuldor usuli bo'lib, unda ota-ona farzandiga bor mehrini berib, uning qiziqishlari, imkoniyatlari bilan hisoblashadi. Bolaning erkin fikrlashini istaydi. Bu usul bolani to'g'ri tarbiyalash imkonini beradi. Ayrim oilalarda bola yolg'iz farzand bo'lgani uchun ota-ona unga barcha mehrlarini berib, uni erkalatib, xudbin qilib qo'yishlari mumkin. Yoki bola ukalari tug'ilganda ham o'zini yomon his qiladi. Chunki ota-ona endi kichik farzandiga ko'proq e'tibor beradi. Bunday holatlarda kattalar bolaga u endi mustaqil ish qila olishi, aqlliligini tushuntirsalar, shunda u kichik ukalariga mehrlari bo'ladi. Tarbiyachi guruhga uyda tarbiyalangan yangi bola kelib qo'shilganida boshqa

bolalarga u bilan iliq munosabatda bo'lishlarini tushuntirishi lozim. Unga ko'proq e'tibor berish, yaxshi muomalada bo'lish kerak, shunda bola yangi muhitga tezroq ko'nikadi. Agar tarbiyachi yangi kelgan bolalarga mashg'ulotlar davomida yaxshi muloqotda bo'lsa, qolgan bolalar undan o'rganadilar. Tarbiyachi bolalar bilan do'st sifatida munosabatda bo'lsa, bunday guruh uyushgan bo'ladi, bir-birlari bilan iliq munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati orqali iroda sifatleri shakllanadi. O'yinda bolaning emotsional rag'batlantirilishi yaxshi natija beradi. O'yin faoliyati bolalarning bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ta'minlaydi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali bolalarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, o'yin orqali bolalarda boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik, to'g'ri munosabatda bo'lish, muomala ehtiyojlarini qondirish amalga oshiriladi. O'yin faoliyatida bolalar o'yin qoidasiga rioya qiladilar, «onasi unday qilmaydi», «doktor bunday ukol qilmaydi» kabi fikrlari bilan bir-birlarining harakatlarini to'g'rilab turadilar. O'yin bolaning kattalar hayotini to'g'ri tushunishiga yordam beradi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj o'yinda qondiriladi. o'yin qoidasini buzganda bola samimiylilik bilan «endi bunday qilmayman», deydi. Demak, o'yin bolani samimiylikka, his-tuyg'ularini tarbiyalashga, boshqalarga yaxshilik qilishga, to'g'ri muloqotda bo'lishga o'rgatadi. O'yin qoidasini muntazam buzadigan bolalar oxiri yakkalanib qoladilar, qolgan bolalar uni yoqtirmaydilar, u bilan o'ynagilari kelmaydi, hatto u bilan muloqotda bo'lishni ham istashmaydi. O'yinni musobaqa tarzida tashkil qilishda tarbiyachi ehtiyotkor bo'lishi lozim. Chunki o'yinda yutqazgan bolalarda yutgan bolalarga nisbatan adovat tug'ilishi o'yindan so'ng ular nizolarni, keltirib chiqarishi mumkin. Bola maktab yoshiga yetganida ham o'yinga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. U yangi o'yinchoqqa nisbatan «eski» — o'zining doim o'ynaydigan o'yinchog'ini o'ynashni yaxshi ko'radi. Qo'g'irchoq — sadoqat va refleksning shakllanishida ajoyib vosita. Bolaning qo'g'irchog'i bilan bo'ladigan muloqoti uning kattalar bilan bo'ladigan muloqotiga taqlid qilishidir. Qiz bolalar ko'proq qo'g'irchoqlar, idish-tovoqlar (o'yinchoq) bilan muloqotda bo'lsalar, o'g'il bolalar esa turli o'yinchoqlar (samolyot, koptok, to'pponcha, mashina, velosiped) bilan muloqotda bo'ladilar.

	munosabatda bo'ladi								
3.3	Qo'l panjasining mayda motorikasi								
1	Varaq yuzasiga to'g'ri chiziqlar chizadi								
2	2-3 ta ob'ektdan suratlar yaratadi								
3	Harflarga qiziqish bildiradi, ba'zi harflarning yozilishini biladi va farqlaydi								
4	Yirik munchoqlarni chilvirga tizadi								
5	YOzishga harakat qiladi								
6	CHiziqlar, belgilar, ilgaklarning oddiynusxalarini oladi								
7	Uncha murakkab bo'lmagan shakldagi predmetlar rasmini chizadi								
8	Suratlarni kontur bo'yicha aylantiradi va bo'yaydi								

Bilim olish orqali rivojlanish. Bugungi bolalar qayerda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir.

Intellektual – anglash malakalari bolada tug'ilgandan boshlab oila a'zolari yordamida shakllantirilsa, keyinchalik bog'chada bu malakalar mashg'ulotlar orqali tarbiyachilar tomonidan boyitiladi. Mashg'ulotlar, mashg'ulotlardan tashqari ishlar, jamoada olib boriladigan ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar yordamida intellektual malakalar rivojlantiriladi.

“Ilk qadam” dasturi asosida bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o'quv-

tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;
- predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementarmatematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi.

Davlat talablari asosida bolalarni maktabga tayyorlash uchun har bir yo'nalish bo'yicha samarali tashkil etilgan metodik ishlar nihoyatda zarur. Bular asosan mashg'ulotlar, faoliyatlar, mashg'ulotlardan tashqari amaliy ishlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, oila bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hamkorlikdagi ishlardir. Chunki, bolalarning asosiy vaqti maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tsa, qolgan vaqtda ular oila davrasida bo'ladilar. Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

Matematik tasavvurlarni shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishning asosiy shakli – mashg'ulotdir. Dastur vazifalarining ko'pchilik qismi mashg'ulotlarda hal qilinadi. Bolalarda ma'lum izchillikda tasavvurlar shakllantiriladi, zarur malaka va ko'nikmalar hosil qilinadi. Atrofdagi hamma narsani miqdor jihatidan kuzatishlarni uyushtirishga, bolalarning o'z faoliyatlarining xilma-xil turlarida matematik mazmundagi bilim va ko'nikmalaridan qanday foydalanishlariga katta ahamiyat beriladi. Mashg'ulotlarda va kundalik hayotda didaktik o'yinlardan hamda o'yin-mashqlardan keng oydalaniladi. Mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda o'yinlar tashkil qilinib, bolalarning matematik tasavvurlari mustahkamlanadi, chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi. Bir qancha hollarda, masalan, joyni bilish ko'nikmasini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarda o'yinla⁶⁹

10	2-3 ta belgi bo'yicha guruhlarga ajratishi mumkin									
4.2	Elementar matematik ko'nikmalar									
1	Predmetlarni 1-2 ta belgi bo'yicha guruhlarga ajratadi									
2	Atrofdagi muhitdan «bitta» va «ko'p»ni topadi									
3	Predmetlarni ularning kattaligi bo'yicha joylashtiradi									
4	Geometrik figuralar (doira, to'rtburchak, uchburchak) va shakllar (kub, shar)ni farqlaydi									
5	Ko'pliklarni taqqoslaydi									
6	Qisqaroq – uzunroq tushunchalari ma'nosini tushunadi									
7	«Tong», «oqshom», «kun», «tun» so'zlari ma'nosini tushunadi									
8	«YArim», «yarimta» tushunchalarini biladi									
9	Hisob va hisob qatoridagi aloqalarni tushunadi									
10	Mexanik tarzda 5 gacha sanaydi									
4.3	Anglash-tadqiq qilish va samarali (amaliy) faoliyatni rivojlantirish									
1	Ekspirimentlarda kattalar bilan birgalikda ishtirok etadi (qorish, bo'yash, cho'kadi – cho'kmaydi va h.k.)									
2	Tabiatdagi alohida o'zgarishlarni farqlaydi (qor, yomg'ir, do'l, issiq, shamol va h.k.)									
3	Ba'zi hasharotlar va qushlarni biladi va nomini aytadi									
4	Ba'zi hayvonlarning bolalarini to'g'ri aytib beradi									
5	«Syujet bo'yicha» qurilmalar yaratadi									
6	Suv va qum bilan o'ynaydi									
7	Jonli ob'ektlarni kuzatadi									
8	Ekspirimentlarda kattalar bilan birgalikda ishtirok etadi (qorish, bo'yash, isitish, qaynatish, magnetizm va h.k.)									
9	Yil fasllari uchun xarakterli bo'lgan tabiat hodisalarini aytib beradi									

Dunyoni badiiy his etish.

Maktabgacha davr bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davridir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi

shunchalik barvaqt namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Ijodkorlik bu shaxsning yangi g'oyalarni yaratishga moyilligini, uning iqtidorligini va noyob qobiliyatga ega ekanligini anglatadi. Shaxsning ijodkorligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi va iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, ijodkorlik zehn o'tkirligini ham belgilab beradi.

Ijodiy faoliyat - bu barcha ruhiy va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq, bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiy xolati — ilxomlanishi, shuningdek, ruxiy kechinmasi, muammoni jon-jaxti bilan xal etish istaklari majmuasi.

Ijodiy qobiliyatlar - bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oyani ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda topish, natijada yangi asl maxsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari, tavsifnoma) qobiliyatlaridir.

Ijodkorlik - bu ko'pchilikka noma'lum va murakkab xususiyatlarni o'rganishga imkon beruvchi inson tafakkuri va ruxiyatining har xil sharoitlarda jamol ko'rsatishi bilan bog'liq, o'ziga xos fikrlash modeli.

Ijodkorlik - bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va xatto oddiy ijodkor odamga ham zarur.

Ijodkorlik - bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni izlashga uddalay olish maqsad sari intiluvchanlik, g'alaba uchun kurash, o'z-uo'zini takomillashtirish va o'zlikni anglashdir.

Ijodkorlik - bu insoniyatni bir necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida aloxida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne'mati bo'lib, bugungi kunda insoniyat yaratayotgan barcha moddiy xamda ma'naviy boyliklar esa ana shu oliy ne'matning u yoki bu ko'rinishidir, ya'ni maxsulidir.

"Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste'dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan.

Xozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalarni badiiy ijodiy qobiliyatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi.

Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko'rish tufayli bola o'yinchoq yasashdan oddin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta - sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo'llarini o'rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin.

Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo'nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o'zing yasa, bir narsa o'yla, qidirib top, o'zgartir kabi) ko'rsatmalari bo'yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar.

Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da'vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o'zlashtirgan ko'nikmalarni kombinatsiyalash va o'zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi.

Nihoyat, uchinchi bosqich - bolani turli faoliyatda fikrlash bo'yicha mustaqil harakat qilishga, o'z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o'rgatadigan topshiriqlardan iboratdir.

Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o'yin elementlaridan, o'yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko'z o'ngida qo'g'irchoqlar paydo

bo'ladi. Ular birgalikda tomosha qo'yishni so'raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo'lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O'yinchoqlarning harakatlarini ko'rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo'ladi. Agar tarbiyachi mashg'ulotda o'yin usulini qo'llayotgan bo'lsa, u mashg'ulot davomida o'yinda qatnashadigan personaj to'g'risida oldindan o'ylab qo'yadi. Masalan, qo'g'irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotganligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko'rishi mumkin. Keyin u bolalarning hatti — harakatlarini ma'qullaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga o'xshagan ishlarni bajaradi. Mashg'ulotda har doim ham bir xil o'yin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashg'ulot oldidan bolalarning ruhiyatini ko'taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga she'r o'qib berishimiz, qo'shiq aytib berishimiz, topshiriqlar bo'yicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim.

Tasviriy faoliyatning har bir turi bolalarda aqliy faollikni, ijodkorlikni, badiiy didni va boshqa fazilatlarini tarbiyalash imkonini beradi. Bunday fazilatlarisiz ijtimoiy faol shaxsning dastlabki asoslarini shakllantirib bo'lmaydi. Faoliyatning barcha turlari bolada tasviriy ifodaning yangi usullarini izlashga mustaqil yondashishni shakllantiradi.

Ta'lim tizimida yosh avlodning ijodkorligi doimo ustuvor vazifa bo'lib kelgan. Bizning jamiyatimiz nafaqat intellektual rivojlangan, balki ijodiy qobiliyatlarga ega bo'lgan kishilarga muhtoj edi. Shunga muvofiq, zamonaviy ta'lim strategiyasi ijodkorlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda barpo etilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish orqali rivojlanish va dunyoni badiiy his etishni shakllantirish deganda bola topshiriqni bajarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik va tasvirlayotgan narsasiga ish jarayonida ijodiy yondoshish malakasi, fantaziyasi mavjudligi tushuniladi. Shu bilan birga bolada mussavvirlarning ijod mahsullarini o'rganish, kuzatish chog'ida uni tahlil qila olish malakasining mavjudligi va nihoyat bajarilgan

ishning sifat darajasini, ish jarayonida ozodalik va tartibliikka rioya qilish malakasi kabilar tushuniladi. Bolalar bilimlari quyidagi jadval asosida belgilb boriladi.

5. IJODKORLIK									
5.1 Dunyoni badiiy his etish		4-yil				5-yil			
		3yosh 3 oy	3yosh 6 oy	3yosh 3 oy	5 yosh	5yosh 3 oy	5yosh 6 oy	5yosh 9 oy	5 yosh
1	Rasm-suratlar, xalq amaliy san'ati asarlari, o'yinchoqlar, ob'ektlarni idrok qilishda hissiy (emotsional) kuyinchaklik ko'rsatadi								
2	Tabiat ko'rinishlari, o'yinchoqlar, bolalarning kiyimlaridagi ranglar go'zalligini sezadi								
3	Tanish qo'shiqlarni ajratadi								
4	Tovushlar, ohanglarni diqqat bilan eshitadi								
5	Tasviriy san'at elementlaridan foydalanadi								
6	Amaliy-dekorativ san'at borasida boshlang'ich tushunchaga ega								
7	San'at bilan bog'liq ba'zi kasblar (rassom, bastakor, aktyor) haqida tushunchaga ega								
8	San'atning ba'zi turlari va janrlarini farqlaydi (qo'shiq, raqs, musiqa, she'riyat, topishmoq, rasm, haykal)								
9	Ba'zi me'moriy qurilmalar haqida tushunchaga ega								
10	Ohang va qo'shiqlardagi yuqori va past tovushlarni farqlaydi								
11	Ba'zi musiqa asboblarning sadosini ajratadi (piano, dutor, childirma)								
12	Musiqa ohangiga mos ravishda raqsga tusha oladi								
5.2 Badiiy-ijodiy qobiliyatlar									
1	Tasviriy materiallarni biladi va ulardan to'g'ri foydalanadi								
2	Alohida predmetlar, oddiy kompozitsiyalarni chizadi								
3	Tasvirlanayotgan predmetlarga mos keladigan ranglarni tanlaydi va bo'yaydi								
4	Bolalar musiqa asboblari chaladi (childirma, naycha, yog'och chang (ksilofon))								
5	Bolalar guruhi bilan birgalikda qo'shiq aytadi								
6	Raqsga tushadi (juftlikda aylanadi, depsinadi, musiqa ostida predmetlar bilan harakatlanadi)								
7	Plastilindan oddiy shakllar yasaydi								
8	Tayyor figuralardan predmetlar tasvirini								

	yaratadi, qog'ozdan tayyorlangan turli bezaklar bilan bezatadi								
9	Qumdan turli shakllar va piramidalar quradi								
10	Predmetlar shaklini aniq ifodalagan ravishda detallarga boy tasvirlar chizadi								

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish tartibi qanday?
2. 6-7 yoshli bola har bir rivojlanish sohalari bo'yicha qanday yutuqlarga erishadi?
3. 4- 5 yoshli bola har bir rivojlanish sohalari bo'yicha qanday yutuqlarga erishadi?
4. 3-4yoshli bola har bir rivojlanish sohalari bo'yicha qanday yutuqlarga erishadi?

VII BOB. MTTDA TA'LIM JARAYONINI MAVZULI REJALASHTIRISH TARTIBI.

7.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy jarayoni mavzuli rejalashtirish.

Tayanch tushunchalar: rejalashtirish, haftalik reja, malaka, haftalik mavzu, vosita, rivojlanish, ta'lim-tarbiya.

Rejalashtirish - ta'lim-tarbiyaviy ishning zarur sharoit, foydalanadigan vosita, ishning usul va metodlarini ko'rsatib, ta'lim-tarbiyaviy ish dasturini amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir. Rivojlanishning asosiy omili bo'lgan tarbiya jarayonida bilim, aqliy va amaliy malakalar hamda harakat usullarini bola tomonidan egallanishi amalga oshiriladi. Tarbiyaning mazmunini uning maqsadi belgilaydi. Rejalashtirishning maqsadi - «Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya dasturi»ning bajarilishini ta'minlashdir. Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish : bolalar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifasini aniqlashga, bolalarni yoshiga ko'ra pedagogik ta'sir mazmunini va usullarini tanlashga, bolalar hayoti, faoliyat turlari, rahbarlik metodlari va shu kabilarni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yo'llangan bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim

tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish murakkab bo'lib, tarbiyachidan bolalarning ruhiy fiziologik taraqqiyot darajasi to'g'risidagi bilimlarni, ta'lim-tarbiya dasturini, ta'lim va tarbiyaning metod va usullarini bilishni taqozo etadi.

Reja tarbiyachiga yil bo'yi amalga oshiradigan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tekisda taqsimlab, ma'lum izchillik bilan amalga oshirishga yordam beradi. Reja bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlariga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish metod va usullarni yaxshilab o'ylab olish, kerakli material va jihozlarni tayyorlash imkonini yaratadi. Tarbiyachi rejalashtirgan hamma ishlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi lozim. Shu bilan birga reja qotib qolgan narsa bo'lmay, vaziyatdan kelib chiqib, unga o'zgarishlar kiritish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayon «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari» asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiyaviy jarayon o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi. O'quv yili 2 sentyabrda boshlanadi va 31 maygacha davom etadi. 1 iyundan 31 avgustgacha MTTda yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi.

7.2. O'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish.

O'quv-tarbiyaviy jarayon guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o'yinlari, bo'sh vaqt va o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. O'quv-tarbiyaviy jarayon ta'lim va ijtimoiy ehtiyojlar (salomatlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va individual rivojiga asoslanuvchi o'quv rejaga muvofiq olib boriladi. O'quv-tarbiyaviy jarayon bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish ta'lim sharoitlariga bog'liq holda integrasiya,

xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi. O'quv-tarbiyaviy jarayonda quyidagi rejalashtirish turlari qo'llaniladi:

- yillik mavzuviy;

- haftalik

Rejalashtirishda ta'lim jarayonining mavzusi, maqsadlari, mazmuni va turlari yoritiladi. Jarayon turlarini tanlashda nafaqat o'quv-tarbiyaviy jarayonning umumiy maqsadlari, balki rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar, faoliyat mazmuni va turlarini integrasiyalash ham hisobga olinadi. Rejalashtirishda kun tartibini hisobga olish zarur. Kun tartibi ish sur'atini belgilaydi va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga oson o'tishda yordam berishi lozim. Shuni yodda tutish joizki, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Kun tartibini tuzishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga chiqish vaqti hisobga olinadi.

Yillik mavzuviy reja

Yillik mavzuli rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hudud yoki boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zining yillik mavzuli rejasini tuzishga haqli. Mazkur mavzuli reja maktabgacha ta'lim tashkilotining —Pedagogik kengashida tasdiqlanadi.

Haftalik reja.

Haftalik reja yillik mavzuli rejalashtirishga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari bo'yicha o'tkaziladigan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mavzuli rejalashtirish barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg'ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo'naltiriladi. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o'tishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi ta'limiy va harakatli o'yinlar rejalashtiriladi. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat/passiv faoliyat; individual faoliyat/kichik guruhda katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat/bola rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat) va uni o'tkazish joyi

(xona ichidagi faoliyat/maydonchadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak.

Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o'zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz ko'proq yoxud kamroq vaqtga mo'ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorgi gullagan bog'ga borishni rejalashtirgan bo'lsa-yu, ob-havo juda yomg'irli bo'lsa, bu tadbiri xonada o'tkazishning imkoni bo'lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.

Haftalik reja — bu tarbiyachining ish jurnali va mashg'ulotlar ishlanmasidan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirishda tarbiyachilar Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan har bir yosh guruh uchun ishlab chiqilgan “MTTda ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish” metodik qo'llanmalaridan samarali foydalanib kelmoqdalar. “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish” metodik qo'llanma davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari, ota-onalar, shuningdek, ushbu soha bilan qiziquvchi barcha mutaxassislariga mo'ljallangan. Ushbu metodik qo'llanmalarda bolalar bilan tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi erkin faoliyat jarayonlari ishlanmalari bayon qilingan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barcha guruhlari uchun mo'ljallangan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni mavzuli rejalashtirish tarbiyachilarga yordam sifatida ishlab chiqildi.

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagog tomonidan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda ta'limni rivojlantirish vazifasi ilgari qo'yiladi va bunda bolaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkillashtirish zamonaviy maktabgacha ta'lim-tarbiyaning konsepsiyasi hisoblanadi. Barcha guruhlardagi ta'limiy-tarbiyaviy jarayon “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturida tavsiya etilgan mavzular asosida hududiy, milliy, madaniy xususiyatlar va bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotining imkoniyati va o'ziga

xos tomonlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bir hafta davomidagi mashg'ulotlarda bitta mavzu o'tiladi va o'zlashtiriladi. Mavzu umumiy guruh va rivojlanish markazlarida olib boriladigan faoliyatlarda o'z aksini topadi. Ta'lim jarayonining asosiy mavzusini tanlash, albatta, bolalarning barcha faoliyati bu mavzuga bag'ishlangan bo'lishi kerak, degani emas. Ya'ni markazlardagi faoliyat mavzularini oy va hafta mavzulari va umumiy maqsaddan chetlashmagan holda o'zgartirish va boyitish tavsiya etiladi. Mavzuning asosiy muddatlarga taqsimlashdan maqsad – ta'lim jarayonini integratsiyalashtirish va bolalar faoliyatini ta'lim sohalari bo'yicha asossiz taqsimlanishining oldini olishdan iborat.

Ta'lim faoliyati mazmunini mavzuli rejalashtirish quyidagi ta'lim sohalari o'z ichiga oladi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalar
- bilish jarayonining rivojlanishi
- ijodiy rivojlanish.

Turli yosh guruhlarida o'zaro bog'liq o'xshash mavzularni kiritilishi ularning individual imkoniyatlariga muvofiq uyg'un rivojlanish va butun maktabgacha yosh davrining turli guruhlarida bolalarni rivojlantirishda o'quv maqsadlari birligini va uzluksizligini ta'minlash orqali ta'limiy maqsadga erishilishiga olib keladi.

Quyida "Ilk qadam" davlat dasturi asosida MTTlarida yillik mavzuviy (tematik) reja hamda har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettirilgan.

Oylar	Oy mavzusi	Hafta mavzulari				Tayyorlov guruhi
		Yosh guruhlari				
Sentyabr	O'zbekiston – mening Vatanim	Kichik guruh	O'rta guruh	Katta guruh	Mening qadrdon O'zbekistonim	
		1-hafta	Men va bolalar bog'chasi	Men va bolalar bog'chasi		Mening qadrdon O'zbekistonim
		2- hafta	Mening shahrim	Mening shahrim- mening mahallam		Mening shahrim – mening mahallam
		3- hafta	Men va mening oilam	Men va mening oilam		Men va mening oilam
4- hafta	Men va mening do'stlarim	Men va mening do'stlarim	Men va mening do'stlarim	Men va mening do'stlarim		
Oktyabr	Kuz bo'yoqlari	1-hafta	Oltin kuz	Oltin kuz	Mavsumiy o'zgarishlar. Ko'chmanchi qushlar.	
		2- hafta	Sabzavot va mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	
		3- hafta	Non hammasiga sarkor	Non hammasiga sarkor	Non hammasiga sarkor	
		4- hafta	O'zbekistonning oq oltini	O'zbekistonning oq oltini	O'zbekistonning oq oltini	
Noyabr	Transport, ko'cha harakati qoidalar(KHQ) Hayotiy faoliyat xavfsizligi asoslari (HFXA)	1- hafta	Transport bilan tanishuv	Er usti transporti	Havo, suv va er usti transporti	
		2- hafta	Rangli svetofor	Rangli svetofor	Ehtiyotkor piyoda haftasi	
		3- hafta	Tez yordam va o't o'chirish yordami	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	
		4- hafta	Bizning yaxshi ishlarimiz	Barcha kasblar muhim ishlarimiz	Bizning yaxshi ishlarimiz	

		3- hafta 4- hafta	Er sayyorasi kuni O'yinchoqlarga g'amxo'r munosabat	Qushlar hovlisi Shaharga munosabat	Er sayyorasi kuni Sayyorami saqlal!	Er sayyorasi kuni Sayyorami saqlal!
May	Asboblari anjomlar	1- hafta	Men va mening uyim	Men va mening uyim	Men va mening uyim. Xotira kuni	Men va mening uyim. Xotira kuni
		2- hafta	Mebel	Mebel	Mebel	Mebel. Milliy hunarmandchilik
		3- hafta 4- hafta	Idishlar Bizning yordamchilarimiz maishiy asboblari	Maishiy asboblari Bizning yordamchilarimiz maishiy asboblari	Idishlar. Milliy naqshlar Bizning yordamchilarimiz maishiy asboblari	Idishlar. Milliy naqshlar Bizning yordamchilarimiz maishiy asboblari

Haftalik ish rejasi

O'y mavzusi: «O'zbekiston – qadrdon yurtim!»

Guruh	Tayyorlov guruhi					
Mavzu	MENING SHAHRIM, MENING MAHALLAM					
Davr	Sentyabrning 2-haftasi					
sohalar	jismaniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish	Kolonnada bir, ikki, to'rt kishi bo'lib yurish				
	ijtimoiy-hissiy(emosional) rivojlanish	O'z hissiyotlarini nazorat qilishni o'rganish				
Rivojlanish bo'yicha maqsadlar	nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari	Bolaning og'zaki nutqini mustahkamlash				
	bilish (anglash) orqali rivojlanish	Vatan, mahalla to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash				
Rivojlanish bo'yicha maqsadlar	ijodiy rivojlanish	Hamkorlikdagi faoliyatga ijobiy munosabati shakllantirish, ritm hissini, musiqani his etish fazilatini, harakatlarda ritmik ifodalilikni tarbiyalash				
Mavzular (tematika)	majmui	O'zbekiston – qadrdon yurtim!				
Rivojlanish		O'quv-tarbiyaviy faoliyat				

markazlari	Dushanba	Seshamba	CHorshamba	Payshanba	Juma	Resurslar, izoh
	Ertalabki doira	Dam olish kunlarini qanday o'tkazgani haqida suhbat		Qanday kayfiyatda kelding?	Ob-havo haqida suhbat	
Qurilish konstruksiyalash markazi	va Mening bo'lajak uyim		Zamonaviy shahar	Mahalla ko'chalarini (uzun-qisqa)		Qurilish bloklari, lego, konstruktor
Syujet-rolli o'yinlar va dramalashirish markazi	«Buyijonimnikida mehmonda»		«Sartaroshxona»			Niqoblar, kiyim-bosh, atributlar
Til va nutq	«Mening shahrim, mening mahallam» nomli syujetli rasm bo'yicha suhbat		Shahar parklariga ekskursiya (AKT –slaydlar yordamida)			Syujetli rasmlar, AKT materiallar
Ilm-fan va tabiat markazi	Loy, tosh va qumning xususiyatlari		«Kimning uyi mustahkamroq?»			Loy, qum, tosh, maxsus idishlar, shartlar
San'at markazi	Ochiq havoda o'z fikri bo'yicha rasm chizish		«Obod mahalla» mavzusida origami va applikasiya			A-4 qog'oz, rangli qog'oz, bo'yog'lar, tabiiy materiallar

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish nima?
2. O'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish necha xil bo'ladi?
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirishni guruhlar kesimida tushuntirib bering.

VIII BOB. TARBIYACHINING PEDAGOGLAR BILAN O'ZARO HAMKORLIK ISH REJASI

8.1. Psixolog bilan hamkorlik.

Tayanch tushunchalar: hamkorlik, tarbiyachi, oila, muhit, kuzatish, tarbiyachi, psixolog, defektolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi.

Ma'lumki, insonni voyaga yetishida uchta omil: nasl, oila, muxit muxim o'rin tutadi. Bu omillarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda ana shu uch omil o'rtasidagi hamkorlikni mustaxkamlashga e'tibor qaratilishi lozim. Bu masalada uzluksiz ta'limning bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'z o'rnini mavjud.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda maxoratli pedagog bolalar va ularning xatti-harakati yuzasidan psixolog bilan aloqada bo'lishi nihoyatda muhim.

Tarbiyachi va psixolog bir-biri bilan mustahkam bog'lik hamda ular o'rtasida aloqa qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, bola shuncha ko'p yordam oladi hamda uning dastlabki ta'lim tajribasi muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli ortadi., Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi o'quv faoliyatini tashkil etishning kontseptual asoslarini, tashkilot rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini aniq bilishi kerak. Pedagog keyingi faoliyatida o'zgarishlar qilish, yaxshi natijalarga erishish uchun ta'lim jarayonidagi yutuq va muvaffaqiyatsizliklar, xato va qiyinchiliklarning sabablari haqida fikr yuritishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi mutaxassislar bilan o'zaro hamkorligi bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalashning ajralmas qismidir.

Psixolog (boshqa-Grech, -bilim)-ilmiy-tadqiqot va amaliy muammolarni hal qilish, shuningdek, psixologik yordam, qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlash uchun inson

faoliyatining turli sohalarida shaxsning ruhiy hodisalarini tashkil etishning namoyon, usullari va shakllarini o'rganish bilan shug'ullanadigan mutaxassis.

Psixolog bilan hamkorlik bolaning uyg'un rivojlanishida mutaxassislarning birgalikdagi faoliyatining asosi hisoblanadi.

Tarbiyachining psixolog bilan birgalikdagi ishi bolaning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, tarbiyachi psixologning barcha o'zaro ta'sirlar uchun koordinator va katalizator sifatida harakat qilishini ko'rsatadi.

Psixolog va tarbiyachining hamkorlikdagi vazifalari:

- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish
- bolani individual psixologik qo'llab-quvvatlash;
- bolaning rivojlanishi uchun sharoit yaratish, uning farovonligini ta'minlash;
- tarbiyachilar bilan ijobiy hamkorlikni qurishda bir qator muammolarni samarali hal qilish .

Psixolog tarbiyachining ma'lumotlariga, uning kuzatuv va tahlil natijalariga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolaning faoliyati va xulq-atvorining xususiyatlarini, bolaning haqiqiy hayotiy faoliyati bilan bog'lab ma'lumotlar beradi.

Psixologik tashxis:

- Bolalar va tarbiyachilar bilan suhbatlar
- Sinov va so'rovnomalari
- To'g'ridan-to'g'ri kuzatish (rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan).

Tuzatish:

- Turli masalalar bo'yicha tarbiyachilarga maslahat va tavsiyalar berish
- Bolalar bilan tuzatuv va rivojlanish faoliyatlari
- Kun tartibiga rioya qilish
- Amaliy mashg'ulotlar, treninglar, o'yinlar va boshqalar orqali muammolar echib boriladi.

Ta'lim jarayonida psixolog va tarbiyachining o'zaro munosabatlarining afzalliklari.

- Tarbiyachining faoliyatida psixologik ishlarning samaradorligini oshirishiradi
- Yaxlit, izchil rivojlanayotgan muhitni yaratish qobiliyati shakillanadi
- Ta'lim muhiti psixologik mazmun bilan to'ladi.

Ta'lim jarayonida psixolog va tarbiyachining o'zaro munosabatlarining xususiyatlari:

- muntazam ravishda tashkil etilgan ish;
- ijobiy hissiy muhitni yaratish;
- bola taraqqiyoti amplifikatsiya (boyitish)

Psixolog va tarbiyachi hamkorligi guruhda ijobiy muhitni yaratadi, buning asosida, bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish, bilish jarayoni va ijodiy rivojlanish sohalari takomillashib boradi. Hamda guruhda axborot materiallarining xilma-xilligi ortadi, psixologik adabiyotlarni o'qish orqali tarbiyachilarning bilimlari kengayadi, tarbiyachining bolalar bilan suhbat jarayoni qiziqarli tashkil etiladi.

Psixologning tarbiyachiga tavsiyalari:

- bolalar va kattalarning hamkorligi ,
- bolaning tan olinishi ;
- bolalarning turli faoliyat turlarida tashabbusini qo'llab-quvvatlash;
- tashkilotning oila bilan hamkorligi;
- bolalarni ijtimoiy-madaniy me'yorlarga, oila, jamiyat va an'analarga jalb etish:
- bolaning bilim malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish
- turli tadbirlarda ishtirokini ta'minlashdan iborat.

8.2. Defektolog bilan hamkorlik.

Ravon nutq bolaning har tomonlama to'liq rivojlanishida eng muhim vositadir. Nutq qanchalik ravon va to'g'ri bo'lsa, o'z fikrlarini ifodalash osonroq bo'ladi, atrof-olamni

bilish imkoniyatlari, tengdoshlari va kattalar bilan yanada mazmunli va to'laqonli munosabatlar bolaning rivojlanishini yanada faollashtiradi.

So'nggi paytlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barcha mutaxassislarning o'zaro aloqasi va uzluksizligi masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tarbiyachi nutqida nuqsoni bor bolalar bilan nutqini tuzatish ishlarini defektolog bilan birgalikda olib borishi lozim. O'zaro ta'sirning bunday shakllaridan biri defektologning topshirig'iga binoan tarbiyachining faoliyat olib borishi, topshiriqlarni bola bilan birgalikda kunning ikkinchi yarmida bajarishi tushuniladi.

Defektolog tayyorlov va katta yoshdagi guruh bolalari bilan ish olib boradi. Tarbiyachilarga bola bilan qanday tovushlar ustida ko'roq ish olib borishi haqida ma'lumot beradi va guruhda nutq tovushlarni avtomatlashtirish uchun bolalar bilan tovushlar ustida ishlashni va nutqni to'g'rilashda yordam berishni so'raydi.

Defektolog va tarbiyachilarning birgalikdagi faoliyati quyidagi maqsadlarga muvofiq tashkil etiladi:

- Tuzatish va ta'lim ishlarining samaradorligini oshirish
- Defektolog tomonidan takrorlanishni istisno qilish;
- Defektolog va tarbiyachining har bir bola uchun tuzatuv-pedagogik faoliyatining tashkiliy va mazmunli jihatlarini optimallashtirish.

Defektolog vazifalari:

- Til tizimining fonematik tarkibiy qismini rivojlantirish (umumiy nutq qobiliyatlari, ovozli munosabatlar, so'zlarning tovush strukturasi his qilish va takrorlash, nutqning prosodic tashkiloti (temp, ritm);
- Fonemik jarayonlarni shakllantirish;
- Leksik komponent holatini takomillashtirish
- otlar, sifatlar va fe'llarning inomlarini shakllantirish jarayonini rivojlantirish.
- Nutqning grammatik tizimini shakllantirish;
- Izchil nutqni takomillashtirish;

- Nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lmagan noaniq ruhiy funksiyalarni rivojlantirish: og'zaki-mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, tasavvur.
- Bolalarning nutq nafasini, og'zaki va nozik qo'lda motorikasini takomillashtirish;
- Belgilangan tovushlarning to'g'ri talaffuzini doimiy nazorat qilish, ularni eshitish va talaffuz bilan aralashgan fonemalar bilan farqlash, defektologlar tomonidan tavsiya etilgan nutq materiallaridan foydalanish.

Tarbiyachining vazifalari:

- Kun tartibida bolalarning so'z boyligini faollashtirish, boyitish va aniqlashtirish.
- Bolalarning tabiiy muloqot holatiga sarflangan grammatik inshootlarni kiritish. Ular bilan muloqot qilish vaqtida bolalarning nutqining grammatik to'g'riligini nazorat qilish.
- Ravon nutqni shakllantirish;
- Diqqat, xotira, og'zaki-mantiqiy fikrlash, hayoliy nutq materialida o'yin mashqlarida tasavvurni rivojlantirish.

Defektolog kunning birinchi yarmida guruhdagi asosiy mashg'ulotlar tugaganidan so'ng mashg'ulotlarni olib boradi.

Defektolog bolalarga tovushlarni talaffuz qilishni, ovozli tahlil qilishni, savodxonlik elementlarini o'rgatadi, bolalarga muayyan leksik va grammatik toifalarni tanishtiradi. Defektolog so'z birikmalarini kengaytirish, takomillashtirish va faollashtirish, grammatik toifalarni o'zlashtirish, ravon nutqni rivojlantirish bo'yicha faoliyat olib boradi.

Tarbiyachi guruhda faoliyatlar davomida bolalarni fikrini to'liq ayta olishga va nutqni rivojlantirish, kunning ikkinchi yarmida, sayrlarda bolalar bilan nutq muloqotga kirishish, diqqat bilan boshqa bolalarni tinglash va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ovoz nutq madaniyatini rivojlantirish uchun o'yinlar tashkil etish, so'z, eshitish nazorati, og'zaki xotira, nutqning intonatsion tomoniga e'tibor berishi lozim.



Tarbiyachi bolalarni bilmagan savoliga javob berishga majburlashi, gapirayotganda to'xtatishi va qo'pol muomila qilishi, bola bilmaydigan tovushlar bilan to'yingan iborani talaffuz qilishga majburlash mumkin emas.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, tuzatish va shakllantirishda tarbiyachi va defektologning hamkorligi muhim.

Tizimli va ketma-ketlik printsiplari tarbiyachi ishining mazmuni, usullari va texnikasini defektolog ishining muayyan bosqichining vazifalari talablariga moslashtirishni o'z ichiga oladi. Defektologning ishida asta-sekinlikda nutq tizimining elementlarini assimilyatsiya tashkil etish bir-biri bilan va muayyan ketma-ketlikda amalga oshirilishi bilan bog'liqdir. Ushbu ketma-ketlikni hisobga olgan holda, tarbiyachi o'zlari o'rgangan tovushlarni o'z ichiga olgan kartochkalarni yoki ta'limiy o'yinlar orqali bolalarda mavjud bo'lgan nutq materialini tanlaydi.

Defektolog va tarbiyachining birgalikdagi faoliyatini tashkil etishning asosiy turlari:

- Tarbiyachining o'qitishning asosiy usullari, vizual nutq materiallarini tanlash, shuningdek, bolalarning nutqiga qo'yiladigan talablar bilan tanishish uchun defektologning ochiq darslarini kuzatishi lozim.
- Guruhda bolalar bilan birgalikda ishlash natijalarini muhokama qilishi;
- Bolalar bayramlari uchun qo'shma tayyorgarlik (nutq materiallarini tanlash).
- Ota-onalar uchun umumiy tavsiyalarni ishlab chiqish.
- Tarbiyachilar tovushni to'g'ri talaffuz etishi tuzatishga qaratilgan. Ammo agar bolada grammatik tizim, lug'at, izchil nutq yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, tarbiyachi nutqning ushbu jihatlarini takomillashtirish ham o'z ish rejasiga kiritilgan. Tarbiyachi ertalab va kechqurun og'zaki va barmoq mashqlari komplekslarini o'tkazishni va jumboqlarni o'qishni, ma'lum bir

tovush bilan so'zlarni tanlashni, ikki yoki uch so'zni ovozli harflarni tahlil qilishni tavsiya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyacni va defektologning ishi quyidagicha muvofiqlashtirilgan:

- Defektolog bolalarda asosiy nutq ko'nikmalarini shakllantiradi, tarbiyachi bilan mashg'ulotda bolalar tomonidan o'rganilgan mavzularga imkon qadar yaqin bo'lgan materiallarni tanlaydi;
- Tarbiyachi mashg'ulotlarni o'tkazishda bolaning nutq terapiyasi ishlarining bosqichlarini, nutqning fonetik - fonemik va leksik–grammatik tomonlarini rivojlanish darajasini hisobga oladi, shu bilan hosil bo'lgan nutq ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Muvaffaqiyatli shakllardan biri nutq terapevtlari va tarbiyachilarning o'zaro munosabatlarining daftaridir. Uni ishlatish ertalab va kechqurun tuzatish ishlarini bajarishga yordam beradi. Daftarning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: og'zaki apparatni rivojlantirishga qaratilgan o'yin texnikasi, nutq nafasi; bolalarda tovushlarni avtomatlashtirish bo'yicha tavsiyalar; leksik mavzuga muvofiq bilim jarayonlarini, leksik va grammatik tizimni va izchil nutqni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar va mashqlar ro'yxati. Tarbiyachi va nutq terapevtlari bir vaqtning o'zida tuzatuv, ta'lim va umumiy rivojlanish vazifalarini hal qilishlari muhimdir.

8.3.Musiqa rahbari bilan hamkorlik.

Bolalarning musiqiy bilimlar tizimida musiqi tinglashning ahamiyatini baholash murakkabdir. Musiqa tinglamay madaniyatni o'rgatish, dunyo musiqi san'ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning ifoda vositalarini o'rgatish, yuqori musiqi san'ati asarlariga nisbatan muhabbat uyg'otish mumkin emas. Bu



sifatlarini shakllantirishda musiqi tinglash jarayonining juda katta o'rni bor.

Musiqa tinglash jarayonida, bolalar turli bastakor va kompozitorlar asarlaridan namunalar tinglaydilar. Musiqa kuchli fikr manbai. Musiqiy ta'limsiz to'liq aqliy rivojlanish mumkin emas.

Musiqa maktabgacha ta'lim tashkilotining butun hayotini qamrab olish bilan birga bolalarning quvonchi manbai.

Musiqa mashg'ulotlari chidamlilik, Iroda, e'tibor, xotirani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda muntazam qitiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning manaviy rivojlanishida musiqa rahbari va tarbiyachining hamkorligi muhimdir.

Musiqa rahbari va tarbiyachining hamkorligi bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, kattalar va bolalar uchun teng darajada zarur bo'lgan sog'lom, do'stona muhit yaratiladi.

Faqat ikkala tarbiyachining birgalikdagi faoliyatida siz maqsadga erishishingiz va dasturda belgilangan vazifalarni hal qilishingiz mumkin.

Hamkorlikdan ko'zlangan maqsad:

- musiqiy-badiiy faoliyatni rivojlantirish;
- musiqa san'atiga qiziqish;
- bolalarning musiqiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- musiqani hissiy jihatdan anglash qobiliyatini rivojlantirish

Bolalarning ahloqiy va madaniy tarbiyasida tarbiyachi va musiqa rahbari mas'uldirlar.

Hamkorlikdagi vazifalar:

1. Axborot.
2. Rivojlanish.
3. Mobilizatsiya.
4. Yo'nalish.
5. Konstruktiv.
6. Tashkilotchilik
7. Kommunikativ.
8. Tadqiqot.

Tarbiyachi va musiqa rahbari o'rtasidagi pedagogik hamkorlik bolaning musiqiy rivojlanishi pedagogik munosabatlarning asosiy objekti sifatida faoliyat yuritadigan maqsadning birligi bilan tavsiflangan o'zaro munosabatlari sifatida qaralishi kerak.

Musiqa rahbari va tarbiyachi turli xil musiqiy faoliyatda o'zaro hamkorlik qiladi:

1. Musiqiy-ritmik harakatlar (musiqa rahbari bolalarning harakatini eslatadi, asbobni ijro etadi, tarbiyachi bolalar bilan musiqaga o'tadi, bolalarning harakatlarini baholaydi, harakat ustida ishlaydi, yordam beradi)
2. Musiqa tinglash (musiqa rahbari suhbatni olib boradi, asbob ustida ishlaydi, tarbiyachi bolalar bilan tinglaydi, bolalarning ahvolini kuzatadi)
3. Qo'shiq ijro etish (Musiqa rahbari asbobni eslatadi, o'ynaydi va ishini bajaradi, tarbiyachi bolalar bilan birgalikda ijro etadi (qo'shiq aytadi).
4. Musiqa rahbari bolalarga musiqa asboblarini o'rgatadi tarbiyachi bolalar bilan kuzatib tahlil qiladi.
5. Raqs (Musiqa rahbari bolalarga raqs harakatlarini eslatadi, harakat ustida ishlaydi, bolalar bilan raqsga tushadi. Agar kerak bo'lsa, tarbiyachi bilan juft bo'lib raqsga tushadi)

Tarbiyachining maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning musiqiy rivojlanishiga tayyorligi musiqiy faoliyatni tashkil etishning barcha shakllarida namoyon bo'ladi: tarbiyachilar musiqa mashg'ulotlarida faol bo'ladilar, musiqiy-didaktik o'yinlarda bolalar bilan raqsga tushadilar, mashg'ulotlarda musiqiy asarlardan foydalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida bolalar o'z tashabbusi bilan qo'shiq kuylashlari, raqsga tushishlari, musiqa tinglashlari mumkin. Shunday qilib, musiqa bolaning hayotiga kirishi bilan sevimli mashg'ulotga aylanadi.

Faoliyatlar davomida musiqadan foydalanish bolalar ijodini boyitadi, quvonchli, ko'tarinki ruhga sabab bo'ladi, jamoada bolalarning hayotini yanada qiziqarli, mazmunli qiladi, bolalarni ijobiy hissiy tajribalar bilan birlashtiradi, bolalar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga bolalarda mustaqil faoliyat, tashabbuskorlik, didaktik o'yinlarni o'tkazish jarayonida bolalarning musiqiy ko'nikmalari rivojlanadi.

Musiqqa bolaga psixologik va pedagogik ta'sir ko'rsatibgina qolmay, ko'plab muammolarni hal qilishga yordam beradi:

- * Qulay hissiy muhitni yaratish, asabiy taranglikni bartaraf etish va bolalar salomatligini saqlash;
- * Ijodiy faoliyat jarayonida tasavvurni rivojlantirish, ijodiy faollikni oshirish;
- * Fikrlash faoliyatini faollashtirish, bilim olish sifatini oshirish;
- * mantiqiy o'quv materiallarini o'rganish, charchoqning oldini olish;
- * Psixologik pauzalar, jismoniy tarbiya vaqtida psixologik ta'sir.

Tarbiyachi va musiqqa rahbarining o'zaro hamkorligida:

- * Monitoring tashkil etish.
- * Birgalikda rejalashtirish.
- * Uslubiy qo'llab-quvvatlash.
- * Amaliy samarali faoliyat.
- * Oila bilan hamkorlikni tashkil etish.
- * Jamoa bilan hamkorlikni tashkil etish ishlari amalga oshiriladi.

Musiqqa rahbari tarbiyachilar bilan birgalikda bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirib, individual va frontal musiqiy mashg'ulotlar, ko'ngilochar kechalar, bayramlar, konsertlar tashkil etadi.

8.4. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bilan hamkorlik.

Jismoniy tarbiya yo'riqchisi har bir guruh uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jadvalini tuzadi, guruhlar yosh tarkibini hisobga olib tasdiqlangan dasturlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazadi, kun davomida bolalarning harakat faolligini nazorat qiladi. Sport-sog'lomlashtirish ishlarini olib boradi, shu maqsadlarda sport, sog'lomlashtirish tadbirlari rejasini ishlab chiqadi, sog'lom, jismonan baquvvat holda maktabga tayyorlash maqsadida bolalarga jismoniy mashqlar bajartiradi, jismoniy rivojlanishda orqada qolgan bolalar bilan alohida mashg'ulotlar o'tkazadi, bolalarning sog'ligi va jismoniy holatini nazorat qiladi, tarbiyachilar va ota-onalarga bolalar sog'ligini mustahkamlash, jumladan sport seksiyalari, to'garaklar tashkil qilish bo'yicha maslahatlar beradi, ularga metodik va amaliy yordam ko'rsatadi,

mashg'ulotlar paytida bolalar sog'ligi va xavfsizligiga javobgardir, o'zining kasbiy mahoratini, bolalar bilan ishlash metodik usullarini uzluksiz takomillashtiradi, maktabgacha tashkilot xodimlari va ota-onalar orasida jismoniy tarbiya tashviqotini



olib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya aqliy va ijtimoiy salomatlik poydevorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil etish, to'g'ri ovqatlanish tananing mustaxkamligini, nafas olish apparatining rivojlanishini, psixo-emotsional holatni barqarorlashtiradi.

Tarbiyachi va jismoniy tarbiya yo'riqchisining hamkorlikdagi vazifalari:

- * jismoniy mashqlarni bajarish
- * mashqlar bajarish sifatini kuzatish
- * zaif bolalar bilan individual ish olib borishan iborat.

Odatda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uch qismga bo'linadi: kirish qismi, asosiy qism va yakuniy qism, bu vaqt ichida tarbiyachi bevosita ishtirok etadi.

Kirish qismida tarbiyachi bolalarning xatti-harakatlarini kuzatadi, yurish vaqtida masofaga rioya qilishni kuzatadi.

Tarbiyachi bolalarga kerak bo'lganda individual yordam ko'rsatishda ishtirok etadi, bolalar bilan umum rivojlantiruvchi mashqlarni birga bajaradi.

Tarbiyachi jismoniy tarbiya yo'riqchisiga asosiy harakat turlari uchun kerakli sport anjomlarini tartibga solishga yordam beradi va bolalar mashq bajargandan so'ng uni olib tashlaydi.

Tarbiyachi mashg'ulot yakunida faoliyatning qanday o'tganligi, bolalarning qaysi biri vazifani bajarganligi, ularga xarakatlarning qiyin yoki oson bo'lganligi haqida o'z fikrini bildiradi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari turli usullarda tashkil etiladi: frontal, guruhli, individual, to'garak mashg'ulotlari.

Frontal usul bilan hamma uchun bir xil mashqlarni hamma bolalar birdaniga bajaradilar va jismoniy tarbiya yo'riqchisi va tarbiyachi mashqlarning sifatini, qomatini kuzatib boradilar. Ushbu usul bolalarning ko'proq faolligini ta'minlash uchun samaralidir.

Guruhli tashkil etish usuli bilan bolalar guruhlarga bo'linib, ularning har biri o'z vazifasini bajaradi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bir guruh bilan, tarbiyachi esa boshqasi bilan shug'ullanadi. Bu usul bolalardan mustaqil bo'lishni, topshiriqni ongli va mas'uliyat bilan bajarishni talab qiladi.

Individual yo'l har bir bola tomonidan mustaqil ravishda individual mashqlarni bajarishdir. Bu har bir bolaning diqqatini harakat sifatiga qaratishga imkon beradi, shuning uchun jismoniy tarbiya yo'riqchisi va tarbiyachining vazifasi unga asosiy kamchiliklarni ko'rishga yordam beradi.

Jismoniy o'yin mashqlarida tarbiyachining ishtiroki bolalarning emotsional kayfiyatini oshiradi, motor faollik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Instruktorning tavsiyalariga amal qilgan holda tarbiyachi dastur materialini o'zlashtirishda orqada qolgan bolalar bilan individual ishlashni tashkil yetadi, harakatsiz va zaiflashgan bolalarni aktivlashtiradi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida olingan ko'nikmalarni takomillashtirish uchun tarbiyachi jismoniy tarbiya yo'riqchisi bilan bolalarning yosh xususiyatlarini va ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda guruhlarda yoki sport zallarida rivojlantirish muhitini tashkil qiladi.

Jismoniy madaniyat hordiq, bayramlar, salomatlik kunlari va boshqalarni tashkil etishda, tarbiyachi jismoniy tarbiya yo'riqchisi uchun ajralmas yordamchidir. Bayramga tayyorgarlik jarayoni bolalar va tarbiyachilarning maqsadi va umumiy vazifalar birligi bilan birlashtiradi.

Jismoniy tarbiya yo'riqchisiga tarbiyachi bayramga tayyorgarlik-ssenariy tayyorlashda, ishtirokchilar o'rtasida rollar va mas'uliyatlarni taqsimlashda, musiqa

joʻrligini tanlashda, zalni bezatishda, sport formasini tayyorlashda, emblemalar tayyorlashda koʻmaklashadi.

Yurish va yugurish bolalar salomatligini yaxshilashda muhim rol oʻynaydi. Bu ishni jismoniy tarbiya yoʻriqchisi ham tarbiyachi ham amalga oshiradi. Jismoniy tarbiya yoʻriqchisi sayrga oldindan tayyorgarlik koʻradi, tarbiyachi bilan birgalikda uning rejasi va ketma-ketligini ishlab chiqadi, dam olish va oʻyinlar uchun joylar bilan taʼminlaydi, inventarlar tayyorlaydi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda tarbiyachi va jismoniy tarbiya yoʻriqchisining hamkorligi muhimdir.

05. Pedagoglar bilan oʻzaro hamkorlik ish rejasi

T.r	Reja mavzusi	Muddat	Oʻtkazish shakli	Bajarilganligi haqida maʼlumot

Mavzu yuzasidan savollar:

1. DMTTda tarbiyachining pedagoglar bilan hamkorlik ishlari.
2. Difektolog va tarbiyachi hamkorlikdagi vazifalar nimalardan iborat?
3. Psixolog va tarbiyachi hamkorlikdagi vazifalar nimalardan iborat?
4. Tarbiyachi bilan musiqa rahbarining hamkorligidan koʻzlangan maqsad nima?
5. Tarbiyachi bilan jismoniy tarbiya yoʻriqchisining hamkorlikdagi vazifasi nimalardan iborat?

IX BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMYI FAOLIYATNI REJALASHTIRISH

9.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyat.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, kichik guruh, yakka ishlash, frontal mashg'ulot, mujassam mashg'ulot, an'anaviy, faoliyat, mashg'ulot, ko'rgazma, rivojlantiruvchi markazlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyat quyidagicha tashkil etiladi:

- Umumiy guruh bilan ishlash, ya'ni frontal mashg'ulotlar;
- Kichik guruhlarda ishlash, ya'ni markazlarda ishlash;
- Yakka ishlash, ya'ni alohida bola bilan ishlash asosida olib boriladi.

Kichik guruh bilan ishlash, ya'ni markazlarda ishlash .

Markazlarda ishlash bugun



tarbiyachilarimiz uchun qiyinchilik tug'dirmoqda. Frontal mashg'ulot uchun 2 dona ko'rgazmali qurol tayyorlagan tarbiyachi bugun 3ta yoki 5 ta markaz uchun o'nlab, ya'ni o'yinlar, o'yinchoqlar, ko'rgazmali, tarqatma materiallar tayyorlashiga to'g'ri kelmoqda. Markazlarda – kichik guruhlarda ishlash bolalarga erkinlik berishi bilan farq qiladi. Ular o'zlari guruhdagi muammolarni yechishga harakat qiladilar. Tafakkur rivojlanadi, nutq rivojlanadi, muloqotga kirishuvchanlik bo'ladi.

Yakka ishlash, ya'ni alohida bola bilan ishlash.

Bu ta'lim turi rivojlanishida psixologik, jismoniy, aqliy tomondan o'z do'stlaridan orqada qolayotgan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular guruhda ko'p emas. Ularga alohida mehr berish, do'stlariga yetib olish uchun yordam berish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim turi tarbiyachidan e'tiborlilikni, mehrni talab etadi. Qaysi bolani orqada qolayotganligi tarbiyachining kuzatuvlari, taxlillari asosida aniqlanadi. Va


bola bilan muntazam shug'ullaniladi. Na faqat bola bilan ,uning ota-onasi bilan ham hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

Umumiy guruh bilan ishlash, ya'ni frontal mashg'ulotlar

Aniq jadval asosida,bitta mavzuga qaratilgan, guruhdagi barcha bolalar bilan birga o'tkaziladigan ta'lim jarayonidir. Ushbu ta'lim jarayoni yillar davomida o'z natijalariniberib kelgan. Lekin bolalar erkin fikrlarini doim ham beraolmaganlar. Ular bermoqchi bo'lgan fikrlarni "a'lochi"bolalar juda tezlikda berib qo'yganlar, natijada ular mavzuni bilsalarda javob berolmay qolganlar. Umumiy guruhda ishlashda tarbiyachi mavzuni yoritishda o'yinlardan, tasviriy faoliyatdan, badiiy o'qishlardan foydalanishi mumkin, lekin barcha bolalarni muloqotga jalb qila olmaydi. Tarbiyachi o'tayotgan mashg'ulot o'qituvchining darsiga o'hshab qoladi va bolalami zerikishga olib keladi.

Frontal mashg'ulotlar markazlardagi faoliyatlarni kuzatish asosida kelib chiqadi. Masalan matematikaning qismlari quyidagilar : son-sanoq, ranglar, geometrik shakllar, fazoviy tushunchalar, vaqt. Mana shu 5 ta qismni "Qurish-yasash va konstruksiyalash matematika " markazida bolalar faoliyati davomida kuzatish mumkin. Bolalar markazda nimaga ko'proq e'tibor bermoqdalar. Masalan ranglar haqida bolalar tinmay gapiradilar,(qizil kubikni ber, yashilni bu yerga qo'yaman oqini tanladim kabi jumlar bilan), geometrik shakllar haqida ham shunday, to'rtburchaklarni menga ber, meni uyim kvadrat, menga oval shaklini ber, doirani mana bu joyga qo'y kabilar),markazdagi o'yinchoqlar, o'yinlar asosida bola son sanoq bilan ham ishlaydi. Predmetlarni sanaydi, orqaga ham sanaydi.Ularni o'rmini

almashtiradi, juft sonlarni alohida toq sonlarni alohida qilib ham joylashtiradi. Fazoviy tushunchalar, arifmetik masalalarni yechish, vaqt haqidagi tushunchalar markazda ko'p foydalanilmasligi mumkin. Matematikaning aynan mana shu qismlari tarbiyachi tomonidan ijod qilinadi va frontal mashg'ulot ishlanmasi tuzib



chiqiladi. Qanchalik markazga ko'p o'yin, ko'rgazmali qurol va o'yinchoqlar qo'yilsa bola markazni o'zida rivojlanadi.

Huddi shunday nutq o'stirish mashg'ulotida ham. Maktabga tayyorlov guruhlarida asosan hikoyalar tuzish orqali bolaning nutqini rivojlantirishga qaratiladi. Ya'ni hikoya tuzishning mavzuli rasmlar asosida hikoya tuzish, ertaklarni qayta hikoya qilish, predmetga qarab hikoya tuzish, tasavvuri asosida hikoya tuzish va ijodiy hikoya turlari mavjud. Mana shunday hikoyalar tuzish uchun bizda mazmunli, mavzuli rasmlar, ertaklardan parchalar tasvirlangan suratlar, pedmetlar tasvirlangan kartochkalar va ko'plab jihozlar borki ularni ko'rib bolaning nutqi rivojlanadi. Demak nutq rivojlanayotgan ekan bolada so'z tuzilishlari, bo'g'inlar, so'zlarning ma'nosi, sodda gaplar, 3-4 to'rtta so'zdan iborat qo'shma gaplarni tuzishga o'rgatish tarbiyachiga frontal mashg'ulot uchun qolmoqda.

Savodga o'rgatish frontal mashg'ulot. Lekin "Til va nutq markaz"ini ham harfli kartochkalar, bolalarga tanish bo'lgan so'zlar, ertak qahramonlarining nomlari yozilgan kichik plakatlarini qo'yish, doskalarga bolalarga tanish bo'lgan xarflarni yozib qo'yish orqali boyitiladi, ham savodga tayyorlanadi. Bola doskaning oldiga kelib o'z xolicha o'qiy boshlaydi, harflarni tanimasa ham. Bu bolada o'qishga qiziqish borligidan dalolatdir.

9.2 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy guruh bo'lib o'tkaziladigan faoliyatlarni tashkil qilish.

An'anaviy mashgulotda tarbiyachi mavzuni to'g'ridan to'g'ri yoritadi. Masalan jisimoniy tarbiya mashg'ulotida 1 qism kirish qismi bo'lib, unda bolalar bilan yurish, yugurish turlari mashq qilinadi, umumgavdani rivojlantiruvchi mashqlar, saflanish va qayta saflanish bajariladi. Bolalar zvenolarga bo'linib, 2- qismga o'tiladi. Bu qismda asosiy xarakter turlari masalan uzunlikka sakrash, muvozanatni saqlab yurish va uloqtirish harakatlarini bajarish rejaga olingan bo'lishi mumkin. Uzunlikka sakrash bilim beruvchi, keyingi ikkita xarakter mustaxkamlanishi kerak bo'lgan harakatlar hisoblanadi. 3 ta zvenoga bo'lingan bolalar yuqoridagi harakatlarni ketma ketlikda bajaradilar. Uzunlikka sakrash yangi mavzu bo'lgani uchun jis.tar. yo'riqchisi o'zi 1- zveno bn shugullanadi. Keyingi ikkita harakatning bajarilishini 2 ta zvenoda

tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisi bolalarga bajarishda yordam beradilar. Xarakatlarni bajarish almashinadi, toki har bir bola bugungi mashgulotda o'rgatilayotgan xarakat turlarini bajarib bo'lmaguncha. Asosiy xarakat turlari bajarib bo'lingandan so'ng, harakatli o'yin o'ynatiladi.

Harakatli o'yin bilim beruvchi xarakatni mustaxkamlashga qaratiladi. Bu mashgulotda uzunlikka sakrash xarakatini mustaxkamlovchi "Bo'ri xandakda" o'yinini olish mumkin. Bolalar bilan o'yin o'ynaladi va 3- qismga o'tiladi. Bu qismning asosiy maqsadi bolalardagi energiyani pasaytirishga, ularni tinchlantirishga qaratiladi, ya'ni tinch o'yinlar, yoki nafas rostdash mashqlari bajariladi.

Noan'anaviy mashgulot

Endi noan'anaviy mashgulot qanday tuzilishi haqida tavsiyalar beraman. Yana yuqoridagi mavzuni olamiz va uni noan'anviyga aylantiramiz.

Bolalar diqqatini jalb qilgan holda mashg'ulotni o'yin tarzida boshlaymiz. Bolarga o'rmonga borish taklif etiladi, Albatta bolalar rozi bo'lishadi, buning uchun sayoxat mashgulot uchun kerakli dekoratsiya oldindan tayyorlanadi, ya'ni o'rmon manzarasi, uzunlikka sakrash uchun bola yoshiga mos bo'lgan kenglikdagi ko'lmak, muvozanat saqlab yurish harakati uchun arqon yoki skameyka, uloqtirish uchun qormi, qumli xaltachami va hakazodan foydalanish mumkin. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi o'rmonni sayr qilishni boshlaydi. Oldilaridan quyoncha chiqishi mumkin. U judayam nimjon va qo'rqqoligi haqida gapiradi. Yo'riqchi unga umumgavdani rivojlantiruvchi mashqlar bajarsa sog'lom va baquvvat bo'lishini tushuntiradi va bolalar bn birga mashqlar bajarishga taklif etadi. Bolalar o'zlari bilmagan holda o'yin jarayoniga kira boshlaydilar, Yurish, yugurish turlari mashq qiladilar, quyonning turli qiliqlaridan quvongan holda saflanadilar va rivojlantiruvchi mashqlarni bajaradilar. Quyon uyini topa olmayotganini aytadi. Bolalar unga yodam berishadi. Yo'lda ko'lmakka kelib qoladilar, ko'lmakdan o'tish uchun uzunlikka sakrash harakatini bajaradilar. Bu yerda ham asosiy harakat turini bajarish o'yinga aylandi. Ular yana yo'lda davom etadilar. Yo'llaridan jarlik va unga qo'yilgan ko'prik chiqadi, ko'prik ingichka bo'lgani uchun qaddilarini tik tutib, muvozanatni saqlagan holda o'tish kerakli takidlanadi. Bolalar ko'prikdan o'tib, quyonning uyiga yaqinlashadilar. Quyon ularga raxmat aytadi. ~~va~~

subzilarni terishda ham yordam berishlarini so'raydi. Bolalar ekilgan subzilarni yerdan sug'urib quyunchaning savatlariga uloqtirish yo'li bilan joylab beradilar. Xursand bo'lgan quyuncha bolalar bilan xarakatli o'yin o'ynaydi. Bolalar quyuncha bilan xayrlashib orqaga qaytishadi. Qaytishda ko'prikdan o'tish, ko'lmakdan sakrash xarakatlari yana bir bor mashq qilishlari mumkin. Mana bu sizga noan'anviy mashgulot. Sezgan bo'lsangiz an'anviy mashgulotdagi vazifalar obrazlar kiritish orqali o'yinga, saxna ko'rinishiga aylandi. Albatta bunday mashgulot davomida bolalar kayfiyati ko'tariladi. Va bilim olish osonroq kechadi.

Mujassam mashgulot

3-turdagi mashg'ulotimiz mujassam mashgulot bo'lib, noan'anviy mashgulotimizga badiiy adabiyot, matematika, nutq o'stirish, tasviriy faoliyat, tevarak atrof, tabiat bilan tanishtirish, musiqa faoliyatlarini kiritsak u mujassam mashgulotga aylanadi.

Ya'ni qo'rqqoq va nimjon quyunchani ko'rganda uni kayfiyatini ko'turuvchi she'r yoki ashula aytish, raqsga tushish mumkin. Ko'prikdan o'tayotganda jarlik, ko'priklar haqida tushuncha berish. Uloqtirish xarakatini bajarayotganda yig'ilgan subzilarni sanash, yoki ajoyib o'rmonni tasvirlovchi rasm, yoki applikasiya ishini jamoa bilan yaratib quyuncha sovg'a qilish orqali mashg'ulotni yakunlash mumkin. Bu yerda ham asosiy maqsad harakat turlarini bajarish, lekin unga erishishda boshqa mashgulotlardan ham foydalaniladi.

Mashg'ulot tuzish tartibi:

1. Mashgulot mavzusi
2. Mashgulotning maqsadi
3. Mashgulot uchun kerakli jixozlar
4. Mashgulotning borishi:
 - kirish qismi
 - asosiy qism
 - yakuniy qism


Frontal mashg'ulotlarimiz 3ta (nutq o'stirish, matematika, savodga o'rgatish) bu mashg'ulotlarni tarbiyachi o'tadi. MTT pedagog mutaxassislari tomonidan o'tiladigan mashg'ulotlar: Bular musiqa mashg'uloti 2ta, jismoniy tarbiya

mashg'uloti 2ta, ingliz tili mashg'uloti 2 ta, rus tili, ingliz yoki o'zbek tili mashg'uloti 2 ta. Katta va tayyorlov guruhlarida markazlarda ishlashdan tashqari 2 yoki 3 ta frontal mashg'ulotlar rejalashtirilgan. Tasviriy faoliyat, tabiat va tevarak atrof bilan tanishtirish mashg'ulot sifatida olinmaydi. Chunki ular kun davomida bolalarga berib boriladigan bilimlar.

Mashg'ulotlarni rejalashtirganda albatta pedagog mutaxassislarning boshqa guruhlardagi mashg'ulotlarini ham inobatga olish kerak. Bir vaqtning o'zida 2 ta guruhda 1 ta mutaxassisga mashg'ulot qo'yilmaydi.

Tarbiyachining ish daftarida haftaning 5 ta kuni uchun 1 tadan mashg'ulot grafalari berilgan. Bu joyga tarbiyachi faqat o'ziga tegishli bo'lgan frontal mashg'ulotni yozadi. Joy qolsa 2, 3 mashg'ulotlarning nomini ko'rsatib o'tadi(masalan jis.tarbiya, musiqa).Mutaxassislarning o'z ish rejasi bo'lganligi sababli tarbiyachi uning ish rejasini ko'chirishga majbur emas.

Agar rejalashtirilgan, oldindan yozib qo'yilgan frontal mashg'ulotlarda, sayr, kunning ikkinchi yarmida o'zgarishlar bo'lsa, ularni "faoliyatlardagi o'zgarishlar"grafasida belgilab qo'yiladi.



Bolalar mashg'ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o'ylanib olinishi kerak. Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachining e'tibor bilan tinglab, o'yindan mashg'ulotga

osonlik bilan o'tadilar.Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo'llashi kerak.

Kichik guruh bolalarida mashg'ulotga qiziqish uyg'otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Kuloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo'g'irchoq biznikiga mehmonga kelibdi», - deb mashg'ulotni boshlash mumkin.

Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to'g'risidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg'ulot mana shunday boshlanadi.

Katta guruhlarda qanday mashg'ulot bo'lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib qo'yadi. Bu bolalarning bo'lajak mashg'ulotga qiziqishini orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o'tadi va ularga rasmlarni ko'rishni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko'rganini eslashni taqlif etadi. Bolalar bu kunni zo'r qiziqish bilan kutishadi. Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar mashg'ulotning zarurligi va majburiyligini tushunishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur. Asosiy qism. Mashg'ulotda bolalarga yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo'l-yo'riq, ko'rsatiladi, qiynalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo'ladigan jamoachilik munosabatlarini alohida munosabat bilan qo'shib olib boriladi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qo'llaydi. Mashg'ulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkil eta bilish kerak. Bu bolalar oldiga qo'yilgan aqliy vazifaga bog'liq. Bolalarga qanday ishlar olib borish zarurligi ko'rsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni e'tibor bilan eshitib o'tirishga o'rgatish kerak, zarurat tug'ilsagina takrorlash mumkin.

MTTda bolalar o'qish, yozishni bilmaganlari uchun o'tilgan materialni qaytarib mustahkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan qochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi. Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi va shu narsa to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtiradi. Mashg'ulotni dastur maqsadi va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qo'llaniladi. Bolalar o'zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo'lgan material so'z orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so'z bilan tushuntirib berish talab etiladi. Mustahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o'z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni

tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, matematika mashg'ulotida bolalar sanash material bilan o'zlari mashqlarni mustaqil bajarishadi: tarbiyachining topshirig'iga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki ko'paytirishadi. Buning uchun o'yinchoqlardan ham foydalanish mumkin. Mashg'ulot davomida pedagog hamma bolalar faol qatnashishini va ishini o'z vaqtida puxta amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Mashg'ulotni tugatayotib, tarbiyachi o'tkazilgan mashg'ulotga yakun yasaydi: bajarilgan ishini bolalar bilan birgalikda baholaydi, bolalarning mashg'ulotda qatnashganini gapiradi, ba'zan kelgusi mashg'ulotda nimalar o'tishlarini aytadi. Bolalarning o'quv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimini to'g'ri baholashga bog'liq. Qo'yilgan vazifaning bajarilishiga qarab baho berilishi kerak. Bolaning ishini to'g'ri baholab, «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» deyish bola uchun oddiy maqtovdan ancha qimmatlidir. Ish qanchalik yaxshi tahlil qilinsa, u bolaning kelgusida ishini tuzatib olishiga yaxshiroq imkoniyat yaratadi. Mashg'ulotdan keyin tarbiyachi bolalarni bilimlarni mustahkamlash uchun rivojlantiruvchi markazlarga taklif etadi, so'ng sayrga tayyorlanishadi. Mashg'ulotda tarbiyachining bolalarga qo'yadigan talabi ularning yoshi va imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Tarbiyachi mashg'ulot paytida hamma bolalarning faol qatnashishlariga harakat qiladi: savolga to'g'ri javob berishlarini, tayyorlanishi kerak bo'lgan jihozlarni, bolalar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar (agar bunga zarurat bo'lsa), mashg'ulotning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko'rsatiladi. Mashg'ulot jarayonini bayon etib yozishda mashg'ulotning boshi va oxirida (yakun chiqarish va keyingi faoliyat turiga o'tishda (mujassam)) bolalarni uyushtirishni alohida ajratib ko'rsatish kerak. Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun ko'rgazmali va tarqatma jihozlarni o'z vaqtida tayyorlash zarur. Ularni tanlash mashg'ulotning mazmuniga va tarbiyachi belgilagan metodik usullarga bog'liq. Tarbiyachi mashg'ulot uchun kerakli materiallarni bir kun ilgari tayyorlaydi, uning buzuvchi emasligini, didaktik materiallar hamma bolalar uchun etarli ekanligini tekshiradi. Navbatchilar mashg'ulotga kerakli jihozlarni tayyorlaydilar, stol, stullarni qulay qilib joylashtiradilar, qo'llanma va, materiallarni qo'yib chiqadilar. Jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlaridan oldin bolalar poyafzalni almashtiradilar, sport formasini kiyadilar. Mashg'ulotlar

tarbiyachining etakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi. Tarbiyachi MTTda asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni rejalashtirish qanday tashkil etiladi?
2. MTTda umumiy guruh bo'lib o'tiladigan faoliyat qanday rejalashtiriladi.

X BOB. PORTFOLIO VA UNI SHAKLLANTIRISH

10.1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining portfoliosi.

Tayanch tushunchalar: Tarbiyachi, portfolio, tarbiyalanuvchi, rivojlanish, pedagog, rivojlanish dinamikasi, texnologiya, diagnostika.

PORTFOLIO — so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda “muhim hujjatlar papkasi” degan

ma'nonini bildiradi. Shuningdek, portfolio mutaxassisning o'ziga xos yutuqlari jamlanmasi vazifasini ham bajaradi. Har bir ta'lim tashkilotida pedagog shaxsi asosiy o'rinni egallaydi. U o'z faoliyatini tashkil qilishda o'quv, ilmiy hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni to'g'ri rejalashtirishi, kasbiy pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishda o'zgarib boruvchi zamonaviy talablar tezkor ravishda moslashib borishi lozim. Zamonaviy ta'lim tashkilotlari ta'limning milliy modeliga o'tishida ijodiy fikrlovchi, ta'limning zamonaviy metod va texnologiyalarini, pedagogik-psixologik diagnostika usullarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash usullarini qo'llay



oladigan yangi toifadagi o'qituvchilarni talab etadi. Ma'lumki, mutaxassis kadrlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi ko'p hollarda uning ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyati, o'zgaruvchan mehnat sharoitiga moslasha olishiga bog'liq. Ushbu holatlarni e'tiborga olishda o'qituvchi portfoliosi texnologiyasidan foydalanish muhimdir. Bu an'ana qayerdan paydo bo'ldi? Hayotiy zarurati? "Portfolio" tushunchasi XV-XVI asrlarda G'arbiy Yevropadan kirib kelgan bo'lib, uyg'onish davrida arxitektorlar o'z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va homaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan xujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatleri haqida taassurot hosil qilgan. Hozirgi vaqtda esa biznes olamida portfolio firmaning yutuqlarini ko'rsatish, fotosuratchi va fotomodellar sohasida esa – suratlar albomi sifatida ishlatiladi. Portfolioni ta'lim sohasida qo'llash g'oyasi, 80-yillarning o'rtalarida AQSHda paydo bo'ldi. AQSH va Kanadadan so'ng, portfolio g'oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashdi, XXI asrning boshlarida esa bu g'oya Rossiyada keng tarqaldi va hozirgi kunda bu g'oya O'zbekistonda ham keng yoyilmoqda.

Tarbiyachi portfoliosi – tarbiyachining pedagogik faoliyatida foydalanish maqsadida o'zi tayyorlagan yoki to'plagan hamda tizimga keltirgan metodik materiallar yig'indisidir. Mazkur materiallar qog'oz yoki elektron variantda bo'lib, prezentatsiyalar, dars ishlanmalari, elektron resurslar, boshqa tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalar, metodik tavsiyalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Portfolio tarbiyachiga mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali tashkil etish bilan birgalikda, o'z hamkasblarining ilg'or ish tajribalaridan xabardor bo'lish hamda o'z tajribasini ommalashtirish imkonini beradi. Bu tadbirni nafaqat tarbiyachilari balki, ta'lim tashkiloti rahbarlari hamda barcha fan metodistlari tomonidan ham amalga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oshirilishi tavsiya etiladi.

"Tarbiyachi papkasi"ning strukturasi quyidagicha:

1. Tarbiyachi to'g'risida umumiy ma'lumotlar:

- Ismi – sharifi
- Ma'lumoti

- Mutaxassisligi
- Pedagogik ish staji
- Tarbiyachilik qilayotgan guruh nomi
- Ish stavkasi

2. Tarbiyachining o'z ustida mustaqil ishlash yo'nalishi va unga oid materiallar:

- Malaka oshirish kurslaridan o'tganligi
- Malaka oshirishdagi ijodiy ishlari
- Konferensiyalar, seminar va turli o'quvlarda ishtiroki

3. Tarbiyachining muvaffaqiyatlari

- Ilg'or ish tajribasi
- Yaratgan yangiliklari
- o'zining mahorati
- Mukofotlari, Ilmiy darajasi

10.2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisining portfoliosi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ham portfolio to'ldirib boradilar. Bolalar uchun portfolio yaratish chet el maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yo'lga ko'yilgan bo'lib, O'zbekiston MTTlarida ham endilikda yo'lga qo'yilmoqda.

MTT tarbiyalanuvchisining portfoliosi bu tarbiyalanuvchi MTTga qabul qilinganidan boshlab yuritila boshlanadi va yakunlanganida bolaning olib borgan ishlari va yutuqlari bola rivojlanishning asosiy yo'nalishlari haqidagi o'ziga xos xujjat vujudga keladi.

Portfolio yuritish bola bilan yanada yaqin munosabat o'rnatishga yordam beradi, bunda bola bilan yanada ko'proq birgalikda vaqt o'tkazish, umumiy qiziqishlar atmosferasini yaratish kabi imkoniyatlarni yaratadi, bundan tashqari bolaning muvaffaqiyatlarini birgalikda hursandchilikni bo'lishish, faoliyatning turli ko'rinishlariga qiziqishini rag'batlantirishni amalgi oshirish mumkin. Bunda quyidagi yo'nalishlar ko'zda tutiladi:

- Umumjamoaviy – shaxsiy rivojlanish

- Bilish-nutqiy rivojlanish
- Jismoniy rivojlanish
- Badiiy-estetik rivojlanish.

Portfolio yaratish nafaqat tarbiyachi, balki, ota – ona va bola uchun ham keraklidir. Potfolioga suratlar, bola qo'l mehnati bilan yaratgan ishlamlarini rasmlari, kuzatishlar, bolaning so'z boyligi haqidagi ma'lumot hamda rivojlanib borayotgan malakalari haqida ma'lumotlar yozilishi mumkin.

Bolaning portfoliosi suratlariga boy va yorqin bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Va ideal holatlarda bu portfolio bola uchun "Sevimli esdalik" kitobiga aylanishi hamda bundan bola o'z holicha g'urur tuyishi ko'zda tutilgan. Ishni boshlashda bolaga bu "Sehri kitob"ning nima ekanligi va uni bola bilan birgalikda to'ldirib borilishini ma'lum qilinishi kerak. Bunda bola tushunmaydi yoki ishdan tez soviq qoladi degan fikrdan yiroq bo'lish lozim. Bola albatta tushunadi, chunki har bir bola istisnosiz rangli – yorqin kitoblarni sevadi. Qiziqishi ham yo'qolmaydi, chunki bola har bir ijodiy ishni katta qiziqish bilan qabul qiladi va portfolioni vaqti-qavti bilan to'ldirib borilganida boladagi qiziqish yanada ortaveradi.

Titul varag'i haqida alohida gapirib o'tish kerakki, bu varaq bayramdagi chiroyli kostyum kabidir. Bu barcha ishning o'zigi hos bo'lishini ta'minlab beradi. Portfolioni to'ldirayotganda uni ma'lumotlar bilan judayam to'ldirib yubormaslikni oldini olish kerak. Ma'lumotlar qisqagina va qiziqarli ravisha turli ranglardan foydalangan holda kiritilishi kerak. Titul varag'ini tayyorlashda kompyuterdan foydalanish, bundan tashqari bolani ham bu ishga qaysidir darajada jalb qilish kerak. Bu bolaning qiziqishini yanada oshiradi.

"Mening olamim" bo'limi. ("Portret") Bu yerda bola haqidagi muhim va qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirish lozim.

- Mening ismi-sharifim. Bu yerda bolaning ismi nima ma'noni anglatishi, nima uchun aynan shu ism tanlanganligi hamda bu ismni bolaga kim berganligi haqidagi ma'lumot kiritilishi mumkin.

- Mening oilam. Bu yerda bolaning oilasi kimlardan iborat ekanligi, ularning ismlari yozilishi bundan tashqari kichik oila daraxtini joylashtirish mumkin.
- Mening do'stlarim. Bu yerda bolaning yaqin do'stlari ularning qiziqishlari yoki umumiy qiziqishlari kiritiladi.
- Men qayerda yashayman. Vatan va uning e'tiborga molik joylari haqida.
- Mening bog'cham. Bola qaysi bog'chaga va qaysi guruhga borishi haqida ma'lumot.

“Mening sevimli mashg‘ulotlarim hamda o‘yinlarim.”

Bola oyisi bilan yoki MTTda olib boriladigan qaysi mashg‘ulotlarni sevadi.

Mening sevimli kitoblarim (kitob nomi va muallifi kiritiladi).

Mening mashg‘ulotlarim (bolaga qiziq bo‘lgan u o‘zi yolg‘iz qolganida shug‘ullanadigan ishi masalan, rasm chizish, raqs tushish)

Mening sayr vaqtim (bolaning ochiq xavodagi mashg‘ulotlari va o‘yinlari)

“Mening bayramlarim”.

Bu bo‘limda MTTda bo‘lgan bolaning tug‘ilgan kundan rasmlar va boshqa bayramlar haqida ma'lumotlar.

Masalan, mening tug‘ilgan kunim va boshqalar.

“Men o‘sib-ulg‘aymoqdaman” bo‘limi.

Bu bo‘limda jismoniy rivojlanish dinamikasi yo‘nalishi kiritilishi mumkin. Bunda bolaning antropometrik ma'lumotlari vaqti-vaqti bilan kiritib boriladi. Uni jadval, turli grafik yoki suratlar ko‘rinishida kiritish mumkin. Bolaning bo‘yi va og‘irligiga qo‘shimcha ravishda kaft kattaligi yoki boshqa ma'lumotlar kiritilishi mumkin. Bu bo‘limda bolaning tug‘ilgan kunida tushgan rasmlarini kiritish mumkin.

Jismoniy rivojlanish ko‘rsatgichlari	3 yosh	4 yosh
Bo‘y uzunligi, sm		
Og‘irlik, kg		

Mening kaftim. Bunda bolaning kaft tasvirini tushirib yil sari qanday o'zgirishini kuzatishimiz mumkin.

Umumiy rivojlanish dinamikasi.

Bola tilidan jumlar, bolaning qiziqarli so'zlari, jumalari

Men xarflarni bilaman.

Men o'qiyman 3-4-5 yoshimda (xarflarni, so'zlarni, bo'g'inlab)

Men sanayman 3-4-5 yoshimda (10 gacha, o'nlib, yuzlab)

Mening sevimli qo'shig'im

Mening sevimli sherim

Meni chala oladigan musiqiy asboblari

Men raqs tushaman

Atrofimdagi olam

"Ijodiy rivojlanish"

Bu bo'lim o'zida ijodiy ishlarning suratlarini, rasmlar, bolalarning turli saxna ko'rinishlarida qatnashganlarining suratlarini o'z ichiga oladi.

Turli janrlardagi rasmlar (akvarael, guash, turli bo'yoqlar)

Loy ishi (plastilin, loy, turli massalar)

Applikatsiya

Konstruksiyalash

Ishlanmalarning rasmlari

Teatr postanovkalari (rollarni kiritish, fotolarni birlashtirish)

"Mening yutuqlarim" bu bo'limni diplom, gramotalar. MTTlarda bolalarni rag'batlantirish uchun shu kabi yorliqlar berib boriladi. Bu kabi ma'lumotlarni xronologik tartibda joylashtirish maqsadga muvofiq. Turli konkurslar, sport musobaqalarida qatnashganligi to'g'risidagi ma'lumotlar. Bu blokning materiallari bolaning individual reytingini tuzishga, ta'lim-tarbiya ishlarining olib borilishining natijalarini qanday tarzda o'zgarayotganini bilib borish imkoniyatini yaratadi.

"Fikr-muloxaza va istaklar" (ko'rgazmali tarzda)

Tarbiyachilar tomonidan

Ota-ona tomonidan

Qo'shimcha pedagoglar tomonidan.

Pedagogning ijobiy baholaganichalik xech narsa bolaga motivatsiya bera olmaydi. Bu bo'limda bola haqidagi fikrlar, uning tirishqoqligi yil oxirida yoki biror tadbirda qatnashganligi haqida muloxazalar va takliflar yoziladi.

MTT tarbiyachisiga portfolio tuzish bo'yicha eslatma.

1. Ota-onalarni bola uchun portfolio yuritishda jalb etish.
2. Portfolioning bo'limlarini tartiblashda raqamlash tavsiya etilmaydi
3. Ishning natijalariga sana qo'yiladi bu dinamikani kuzatish va qo'yilgan bahoni(rag'bat kartochkalari) oldingi natijalar bilan solishtirish imkoniyatini beradi.
4. Portfolio bolalarni o'zaro taqqoslash uchun vosita bo'lishi kerak emas!
5. Portfolioni ko'rish uchun boladan ruxsat olinishi kerak.
6. Portfolioning varaqlari chiroyli bezatilgan va yorqin bo'lishi kerakki, bola uchun doim qiziqish uyg'ota olsin va bola buning muxim xujjatligini his eta olsin.
7. Portfolioga bolaning yutuqlari kiritib borilishi lozim, bu bolaga motivatsiya bo'lib xizmat qiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Portfolio nima?
2. Tarbiyachi fortfoliosi qanday shakillantiriladi?
3. Tarbiyalanuvchilar portfoliosini yuritish tartibi qanday?

XI BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI METODISTNING ISH XUJJATLARI.

11.1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining lavozim vazifalari.

Tayanch tushunchalar: metodist, ta'lim sifati, kompetensiya, kasbiy malaka, oylik ish reja, kuzatish, pedagog, attestatsiya.

Metodist o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon, Farmoyish va qarorlari, Hukumat qaror va farmoishlari, davlat dasturlari asosida qabul qilingan Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda uning hududiy boshqaruv organlari, bo'ysunuviga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlarining qarorlari, buyruqlari, tadbirlari va boshqa xujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga berilgan tegishli topshiriqlar yuzasidan zarur xujjatlarni ishlab chiqish va ijrosini to'liq bajarilishini ta'minlash;

maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ-xujjatlarni amaliyotga to'laqonlik tatbiq etish; tashkilotning o'quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish;

Bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish yuzasidan pedagog kadrlar bilan ishlash, ularga metodik maslahatlar berib borish;

Tashkilotning yillik ish rejalari loyihalarini ishlab chiqish va tashkilot rahbariyatiga kiritish;

Tashkilot pedagog xodimlarining ish rejalari, o'quv-mavzu rejalari hamda mashg'ulotlarga tayyorgarlik xolatlarini ko'rish;

Tashkilotga tarbiyalanuvchilarning intellektual, axloqiy estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini kuzatish baholashga doir ma'lumotlarni umumlashtirish tahlil qilish va natijasiga ko'ra aniqlangan boshliqlarni to'ldirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash;

Ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, bolalarni Maktabgacha ta'limga tayyorlashdagi dolzarb masalalarni pedagogik kengashning muhokamasiga kiritish va unga pedagogik kengash a'zolarini faol ishtirokini ta'minlash kiritilgan masalalarni chuqur o'rgatish natijalari bo'yicha sifatli tahliliy tanqidiy ma'lumotlar tayyorlash qabul qilingan qaror va buyruqlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini tashkil etish hamda ta'minlash;

Tashkilotning yillik ish rejasiga belgilangan vazifalarini tegishliligi bo'yicha sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash pedagogi jamoaga ta'limdagi yangiliklarni yetkazish bo'yicha nazariy amaliy seminar mashg'ulotlarini tashkil etish;

Tashkilotdagi guruh xonalarni bolalar yoshiga mos ravishda jihozlash yuzasidan tegishli maslahatlar berish;

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga "O'zbekiston Respublikasining ilk va Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda davlat Tashkilotni o'quv-didaktik, metodik va ko'rgazmali materiallar, o'yin, o'yinchoqlar va musiqa asboblari bilan jihozlashga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va rahbariyatga taklif kiritish;

Tashkilotda ichki mehnat tartibi qoidalari jamoa shartnomasi sanitariya qoidalari va gigiyena normalariga shuningdek mehnatni muhofaza qilish texnika va yong'in havfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlashdan iborat.

Metodist bilishi lozim:

Maktabgacha ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy xujjatlar va ularning mazmun-mohiyatini;

Maktabgacha ta'limning davlat ta'lim talablari, ta'lim-tarbiya reja va o'quv dasturlarining mazmuni;

Zamonaviy axborat texnologiyalaridan foydalana olish;

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi psixologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasini;

Bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dastur va variativ (mukobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etish va uzluksiz takomillashtirib borish yo'llarini;

Jamoa shartnomasida belgilangan talablarga qat'iy rioya etish jamoada sog'lom

raqobatli ma'naviy-muhitni shakllantirish, axillik va inoqlikni mustahkamlash orqali faoliyat yuritishni;

O'zbekiston Respublikasining sanitariya-gigiyena talablariga, mehnat qonunchiligi asoslariga, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in havfsizligi qoidalariga rioya qilishni;

Metodistga qo'yilgan malaka talablar:

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma'lumot (nomutahassis oliy ma'lumotlilar maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi kasbiy qayta tayyorlov kursini tamomlagan);

Xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot -kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi, ikki yildan kam bo'lmagan pedagogik ish staji.

11.2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining ish hujjatlari.

04-01. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-MH-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 3 iyul 2018 yilda 3032-son bilan ro'yxatdan o'tgan) "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari".

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.

04-02 Metodistning shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali) ga quyidagi bo'limlar kiritilgan:

1. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan qaydnomalar.
2. Pedagoglarning metodik ishlardagi ishtiroki haqida ma'lumot.
3. Maslahat soatlarini rejalashtirish qaydnomalari.
4. Ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish qaydnomalari.
5. Metodistning oylik ish rejasi.
6. Keyingi o'quv yili rejasi uchun g'oya va takliflar banki.

Bu bo'limda tashkilotda faoliyat yuritayotgan barcha pedagog xodimlarning ish salohiyatlarini aniqlash maqsadida attestatsiyadan o'tish vaqtlari, attestatsiya uchun

taqdim etiladigan ishlar mazmuni bilan tanishish, belgilab olish hamda attestatsiya natijalari haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Namuna

1. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish

T.r.	Pedagogning familiyasi, ismi, sharifi	Lavozimi	Attestatsiyadan o'tkazish rejasi						Attestatsiya natijalari	Qanday ko'rinishda taqdim etilganligi
			20__ / __ / __ o'quv yili	20__ / __ / __ o'quv yili	20__ / __ / __ o'quv yili	20__ / __ / __ o'quv yili	20__ / __ / __ o'quv yili	20__ / __ / __ o'quv yili		

2. Pedagoglarning metodik ishlardagi ishtiroki haqida ma'lumot

Bu jadvalda pedagog xodimlarning faoliyatlarini yanada yaxshilash, samaradorligini ta'minlash, yangiliklarga intilish va innovatsiyalarni ish faoliyatlariga tatbiq etish maqsadida olib boriladigan ishlar rejalashtiriladi, tahlili yuritiladi hamda shunga munosib tarzda xodimlarni rag'batlantirish choralarini belgilab olinadi. Masalan: xodimning o'quv yili davomida tashkil etgan ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlari hamda pedagogik kengashdagi chiqishlari, amaliy va nazariy seminarlar, konferensiyalardagi ishtiroklari rejalashtiriladi.

Namuna

Pedagoglarning tashkiliy-metodik ishlaridagi ishtiroki haqida ma'lumot

Pedagogning familiyasi, ismi, sharifi	Pedagogik kengashdagi chiqishlari	Metod birlashmalarga tayyorgarlik va	Ijodiy guruhda ishlash	Ilg'or ish tajribalarni ommalashtirish	Ishtirok etish

			ularni o'tkazish		Bolalar ishlarning namoyishi	Yozma va video yozuv tarzida taqdim etish	Konferensiyalar	Amaliy va nazariy seminarlar	Ko'rik-tanlovlar	Ko'rgazmalar

3. Maslahatlarni qayd etish daftari

Maslahatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun oyda 2 marta o'tkaziladi va quyidagi tartibda yuritiladi.

Namuna

T.r	O'tkazilgan vaqti	Maslahat mavzusi	Maslahatning qisqacha mazmuni va amalga oshirish bo'yicha vazifalar	Maslahat oluvchi shaxsning familiyasi, ismi, sharifi va imzosi
1				
2				

4. Ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish

Ushbu bo'limda tashkilotda bolalarning kun davomidagi barcha faoliyat turlari (ertalabki qabul, ertalabki soat, markazlardagi talimiy va mustaqil jarayonlar, sayrlar, ovqatlantirish, uyqu va kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladigan faoliyatlar)ni kuzatish tahlili olib boriladi. Bunda, kuzatuv oldindan belgilangan aniq maqsad asosida olib boriladi hamda metodist tomonidan beriladigan xulosa va tavsiyalar tarbiyachiga tanishtirilib, tarbiyachining tanishganligi haqidagi imzosi bilan yakunlanadi.

Uslubchi tomonidan 2019 yil _____ oyi uchun

ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish daftari

Sana	Yosh guruhi	Pedagogning familiyasi, ismi	Kuzatuv maqsadi	Rivojlantiruvchi muhitni yaratilganligi	Xulosa va tavsiyalar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodistlar tomonidan ta'lim-tarbiyaviy (rivojlantirish markazlari va umumiy guruh bo'lib ishlash), pedagogik jarayonlar (faoliyatlar)ni kuzatishning oylik taqsimoti quyidagicha:

3- 7 guruhgacha		8 -12 guruhgacha		13-20 guruhgacha		20- 28 guruhgacha	
Rivojlantirish markazlari va umumiy guruh bo'lib ishlash (1 oyda)	Faoliyatlar 1 oyda bir marta	Rivojlantirish markazlari va umumiy guruh bo'lib ishlash (1 oyda)	Faoliyatlar 1 oyda bir marta	Rivojlantirish markazlari va umumiy guruh bo'lib ishlash (1 oyda)	Faoliyatlar 1 oyda bir marta	Rivojlantirish markazlari va umumiy guruh bo'lib ishlash (1 oyda)	Faoliyatlar 1 oyda bir marta
2	4	3	6	4	8	5	10

5. Metodistning oylik ish rejasi

Oylik ish reja metodistning bir oyga mo'ljallangan vazifalarini kundalik faoliyatiga muqobillashtirish tamoyili asosida yuritiladi.

Oylik reja quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Pedagog-kadrlar bilan ishlash.
2. Tashkiliy-pedagogik ishlar.
3. Hamkorlik ishlari.
4. Tadbirlarga tayyorgarlik.

Har bir yo'nalishga oy davomida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar olinib, ularning bajarilish vaqti haftadagi sanalar asosida belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining _____oyi uchun oylik rejasi

Rejalashtirilgan vazifalar	I-hafta (sana)	II-hafta (sana)	III-hafta (sana)	IV-hafta (sana)	V-hafta (sana)	Izoh
Pedagog kadrlar bilan ishlash						
Tashkiliy-pedagogik ishlar						

Maktab, mahalla va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik ishlari							
Tadbirlarga tayyorgarlik							

6. Keyingi o'quv yili rejasi uchun g'oya va takliflar banki

Ish jurnali orqali metodist tashkilot faoliyatidagi yangiliklar, g'oyalari, takliflar hamda amaliy jarayonlarni yil davomida yig'ib boradi

Ish jurnalida berilgan takliflar, tavsiyalar, kamchiliklar asosida kelgusi hafta, oy rejaları belgilanadi.

Keyingi o'quv yili rejasi uchun g'oya va takliflar banki

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifati hamda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha ish rejaları.

04-03. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifati hamda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha ish rejaları metodist tomonidan pedagoglarning kasbiy mahoratlarini oshirishga qaratilgan metodik o'qishlar, pedagogik minbarlar, turli mavzularda treninglar, uchrashuvlar, mahorat maktablari, ustoz-shogird, siyosiy va ma'naviy ongini oshirishga qaratilgan tadbirlar hamda yangi metodik adabiyotlarni o'rganish, yangiliklarni tashkilot faoliyatiga tatbiq etish, mualliflik dasturlarini ishlab chiqishga yo'naltirish kabi mavzular kiritiladi.

Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi va maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ish reja.

T.r	Mavzu	Muddat	Mas'ul	Bajarilganligi haqida izoh
2				
3				

04-04. Bolaning rivojlanish xaritasi yuritilishini nazorat qilish kitobi tashkilotdagi guruhlar kesimida tarbiyalanuvchilarning rivojlanish xaritalari asosida yuritiladi. Guruhlarda bolalar bilan yilda 3 marta kuzatish o'tkaziladi. Rivojlanish xaritasi asosida bolalarni kuzatish natijalari tahlil qilinadi. Kuzatish jarayonida 5 ta rivojlanish sohaslariga asosan belgilangan mezonlar bo'yicha o'zlashtirmagan bolalar soni yoziladi. Daftarning izoh qismida kuzatish natijalarida bolalar rivojlanishida aniqlangan bo'shliqlar asosida yakka tartibda olib boriladigan, ta'lim jarayoniga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha vazifalar qayd etiladi.

T.r	Guruhlar	Ro'yxat bo'yicha bolalar soni	Yuritilgan haritalar soni va ularning yuritilish holati	5 ta rivojlanish sohaslari bo'yicha o'tkazilgan 3 ta kuzatuv natijalari			Izoh (Kuzatuv natijasiga ko'ra yakka tartibda ishlash, ta'lim jarayoniga o'zgartirishlar kiritilishi qayd etiladi).
				1-kuz	2-kuz	3-kuzatuv	
1.							
2.							
3.							
4.							

Mavzu yuzasidan savollar:

- DMTT uslubchisining lavozim malaka talablari va vazifalari.
- DMTT uslubchisiga tegishli hujjatlarini ayting.
- Uslubchi tomonidan ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish daftari qay tartibda yuritiladi?


4. Uslubchining oylik rejasidagi pedgog-kadrlar bilan ishlash, tashkiliy-pedagogik ishlar va hamkorlik ishlari bandlari qay tartibda yuritiladi?

XII –BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK KENGASH FAOLIYATI

12.1. Pedagogik kengash faoliyatini tashkil etish va uning ish mazmuni.

Tayanch tushunchalar: pedagogik kengash, ta'lim – tarbiya, ta'lim jarayoni, metodika , qaror, xulosa.

Pedagogik kengash - jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladiga ta'lim - tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir.



Pedagogik Kengash maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim - tarbiya jarayonidagi asosiy masalalarni hal etuvchi doimiy faoliyat ko'rsatadigan organ hisoblanadi.

Pedagogik kengashga quyidagi masalalar: bolalar bilan olib boriladigan ta'lim - tarbiyaviy ishlar

darajasini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash; tashkilot ish praktikasiga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish; tarbiyachilarning pedagoglik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish kiritiladi. Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi tematikaning kengligini, dolzarbligini ta'minlash zarur. Faqat shundagina pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermaxsul va faol bo'ladi. Pedagogik kengash maktabgacha ta'lim tashkilotning yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydi.

Pedagogik kengashda tashkilotning ish rejasi, tarbiyachilarning metod birlashmalardagi ishlari, malaka oshirish rejasining bajarilishi, nazorat turlari bo'yicha tekshiruv xulosalari, xodimlarning hisobotlari, tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirishi, tashkilotning sanitar-gigienik ahvoli va tarbiyalanuvchilarning sog'lig'i va tashkilot faoliyatining boshqa masalalari ko'rib chiqiladi.

Pedagogik kengash tarkibiga: uslubchi, tarbiyachilar, musiqa rahbari, tashkilot shifokori, katta hamshira, kasaba uyushma qo'mitasining raisi, ota-onalar qo'mitasining raisi kiradi.

Pedagogik Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarni ta'minlashda pedagogik jamoaning birlashuvini kuchaytirish, Davlat talablarining bajarilishini ta'minlash, tarbiyalanuvchilarga bilim berish sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash;
- ta'lim jarayoniga bilim berishning ilg'or shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni va texnik-axborot qo'llanmalarni joriy qilish;
- tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy xislatlarni singdirish, bola shaxsini shakllantirish, uning Vatanga bo'lgan muhabbatini o'stirish;
- uzluksiz ravishda pedagogik kadrlarning nufuzini, mas'uliyatini va kasbiy mahoratini, ilmiy-metodik salohiyatini oshirish va ularning tashabbuskorligini rivojlantirish bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan ishlarni tashkil etish;
- bolalarni samarali ta'lim - tarbiya olishidapsixologik-pedagogik yordamni ko'rsatish bo'yicha masalalarni ko'rib chiqish.

Pedagogik Kengash tashkilotda qo'shimcha ta'lim xizmatlarini joriy etish, ko'rik-tanlovlarni tashkil etish, ota-onalar, mahalla, maktab bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Pedagogik kengash o'tkazish metodikasi.

Pedagogik kengash kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi mavzu tanlanishi, mavzuning dolzarbligi, muammoli xarakterga ega bo'lishi lozim.

Shundagina pedagogik kengashda yaxshi ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermahsul va faol bo'ladi. Pedagogik kengash tarkibiga mudira uslubchi tarbiyachi va pedagoglar, psixolog, xamshira, kasaba uyushmasi raisi kiradi. Shuningdek jamoa tashkilotlarining vakillari, maktab o'qituvchilari, ota-onalarni taklif etish mumkin. Pedagogik kengash maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydi. Pedagogik kengash ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglar jamoasiga qo'yiladigan masalaning muhimligi savodli va jiddiy tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik kengashga tayyorlanish shakllari xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan, tarbiyachilarning biriga o'z ish tajribasidan "Hulq-atvor madaniyati" xaqida axborot berish, boshqasiga shu masala bo'yicha "Psixologiya-pedagogika" fanining so'ngi yutuqlari haqida axborot tayyorlash topshirilsa, qolgan boshqa tarbiyachilarga tajriba almashinayotgan guruhda bo'lish topshiriladi. Uslubchi mazkur mavzuning chuqurligini mohiyatini ochib berishga yordam beradi. (bu masalalar barcha tarbiyachilarga pedagogik kengash boshlanishidan ancha oldin ma'lum bo'lishi kerak). Savollar ro'yxatini tayyorlaydi. Nazariya, metodikaning eng qiyin masalalarini tarbiyachi navatorga topshiradi yoki o'yin tayyorlashni o'z zimmasiga oladi.

Pedagogik kengash muxokamasiga ko'pi bilan 2-3 masala qo'yiladi. Pedagogik kengash karorining loyixasini ma'ruzachi oldindan tayyorlaydi. Pedagogik kengash qatnashchilari o'z qo'shimchalarini, aniqliklarini, o'zgartirishlarini kiritadilar. Pedagogik kengash qarorida tekshirilishi mumkin bo'lgan aniq muddat va ishlar bo'lishi kerak. Ijro uchun mas'ullar tayinlanadi. Pedagogik kengashning qarori bog'cha jamoasining barcha a'zolari uchun majburiydir. Pedagogik kengashning qarori kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanadi va tashkilotning ish xujjati sifatida saqlanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengashning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengashlar o'quy yili davomida necha marta o'tkaziladi?

UMUMIY XULOSA

Hozirgi zamon talablari asosida yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib tarbiyalash bugungi kun tarbiyachisining asosiy vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 8-moddasi maktabgacha ta'limga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bandda quyidagilar nazarda tutilgan:

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi

Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his- tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi.

"Tarbiyachi ish hujjatlari" o'quv fanini o'zlashtirishda bo'lajak tarbiyachi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi

- maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga qo'yilgan malaka talablar;
- ish hujjatlarini to'g'ri yuritish tartibi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyat turlari va o'ziga xosligi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatlarni rejalashtirish va tashkil qilish;
- ta'limiy faoliyatga zamonaviy yondashuy;
- ta'limiy faoliyatlarni o'tkazish va taxlil qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarining kasbiy faoliyati va ijodkorligi muhim ahamiyatga ega. Har bir tarbiyachi o'zining ijodiy fikrlashi va faoliyati orqali bolalarning rivojlanishiga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shadi. Shunday qilib ijodkorlik, kreativlik, o'z kasbini sevish vazifalarga mas'uliyat bilan yondashish tarbiyachining muhim sifatleri hisoblanadi. Har kunlik ish faoliyatiga kirishishdan oldin tarbiyachining ma'lum darajada ijodiy izlanishlar olib borishi uning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini ta'minlab beradi. Mazkur o'quv qo'llanma bo'lajak tarbiyachilarning ish hujjatlarini yoritib berish orqali ulami kelgusi faoliyatga bosqichma-bosqich tayyorlab boradi.

IZOHLI LUG'ATLAR

1. **Maktabgacha ta'lim** — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lim bosqichi.
2. **Ta'lim** – bolalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.
3. **Rivojlanish** — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar.
4. **Rivojlanish sohasi** — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar.
5. **Kichik soha** — sohaning kichik guruhleri. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi.
6. **Kutilayotgan natija** —bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi.
7. **Bola kompetentsiyasi** — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatlari.
8. **Integratsiya** — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik.
9. **Inklyuziv ta'lim** — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon.
10. **«Men» kontseptsiyasi** — bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi.

11. **Refleksiv faoliyat** — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni.
12. **Ta'lim metodlari** – o'quv predmeti, aniq ta'limiy vazifalar, real vositalar va ta'lim shartlarining o'ziga xos xususiyatlariga bo'g'liq usullar tizimidan iboratdir.
13. **Kompetensiya** bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.
14. **Kommunikativ kompetensiya** – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.
15. **O'yin kompetensiyasi** – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.
16. **Ijtimoiy kompetensiya** – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.
17. **Bilish kompetensiyasi** – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.
18. **Kuzatuv** - bola ishlayotgan yoki o'ynayotgan paytda uning faoliyatiga aralashmagan holda kuzatish jarayoni.
19. **Rejalashtirish** - bu zarur shart-sharoit, foydalanilayotgan vosita, shakl va uslublarni ko'rsatgan holda, ta'lim-tarbiya ishini amalga oshirishning tartibi va ketma- ketligini oldindan belgilash jarayoni.
20. **Bilish** - inson tomonidan voqelikni aks ettirish jarayoni. Bilish jarayoni sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabi psixik protseslarda ifodalanadi.
21. **Ijod** – ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.
22. **Ijodiy faoliyat** - bu barcha ruhiy va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiyot holati - ilhomlanish, shuningdek ruhiy kechinmasi, muammoni jon-jahti bilan hal etish istaklari majmuasi.

23. **Ijodiy qobiliyatlar** - bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oyani ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni ishga solish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash va toppish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (... kashfiyot], ixtiro, san'at asari, tavsifnoma va h.k. qobiliyatlaridir.
24. **Ijodiy yondashuv (IY)** - bu pedagogikada zamonaviy yo'nalish bo'lib, u ta'lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, mustaqil ravishda qaralayotgan faoliyatning yangi yo'nalishlarini topishga undash jarayonidir. Bunda o'quvchi- talabning faoliyatiga demokratik asosda rahbarlik qiladi va ularning shaxsiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlaydi, ular bilan hamkorlikda ishlaydi.
25. **Tarbiya**- muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy -tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.
26. **Tarbiya jarayoni** – pedagog va bola (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.
27. **Ta'lim metodi** (yunoncha “metodos”- yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li, tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.
28. **Interfaol usul** -bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlikdagi ta'lim usuli bo'lib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi bir-birini to'liq tushunishga erishiladi. "Inter" so'zi lotincha bo'lib, o'zbek tilidagi "oralik", "o'rtasi", "o'zaro" kabi ma'nolarni bildiradi.
29. **Pedagogik kengash** -jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladiga ta'lim - tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir.
30. **Portfolio** —so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda “muhim hujjatlar papkasi” degan ma'noni bildiradi. Portfolio mutaxassisning o'ziga xos yutuqlari jamlanmasi vazifasini ham bajaradi.

TESTLAR

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun hujjatlari qachon qabul qilingan?

- A. 2019- yil 18 oktyabrda
- B. 2018 - yil 17 - iyunda
- C. 2019-yil 22- oktyabrda
- D. 2018 - yil 17- iyulda

2. Bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayon - bu?

- A. Inklyuziv ta'lim
- B. Dual ta'lim
- C. Maktabgacha ta'lim
- D. Nodavlat Maktabgacha ta'lim

3. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan qachon tasdiqlangan?

- A. 2018-yil 18-iyul
- B. 2018-yil 7-iyul
- C. 2018-yil 18-iyun
- D. 2018-yil 17-iyun

4. Tarbiyachining shaxsiy ish jurnali qaysi hujjatda o'z aksini topgan?

- A. 05-01
- B. 05-02
- C. 05-03
- D. 05-05

5. " Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv". "Ilk qadam" Davlat dasturining nechanchi bobi shunday nomlanadi?

- A. 5-bob
- B. 7-bob
- C. 2- bob
- D. 3- bob

6. Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar qaysilar?

- A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi; O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi.
- B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi; O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi
- C. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;
- D. Barchasi to'g'ri.

7. Bolalarda umumiy, asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish MTTninghisoblanadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

- A. MTT maqsadi
- B. MTT rejalari
- C. MTT vazifalari
- D. MTTdagi jarayon

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlariga qaysilar kiradi?

- A. Ummumiy, xususiy

B. umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti; ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti; inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti; qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti; Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy rivojlantirish .

C. ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti;

inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti;

D. Barcha javoblar to'g'ri.

9. Maktabgacha bo'lgan yosh qanday davrlarni o'z ichiga oladi?

A. Chaqaloqlik, ilk bolalik, Maktabgacha kichik , o'rta, katta yosh .

B. Go'daklik, chaqaloqlik, ilk bolalik, Maktabgacha kichik, o'rta, katta yosh.

C. Ilk bolalik, Maktabgacha kichik, o'rta, katta yosh.

D. Go'daklik, ilk bolalik, Maktabgacha kichik , o'rta, katta yosh.

10. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo'lgan davrni, yozgi sog'lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu qaysi moddada keltirilgan?

A. 31- Modda

B. 23- modda

C. 2 - modda

D. 35- modda

11. Pedagogik imidj -bu... nuqtalar o'rnini to'ldiring!

A. Pedagog – tarbiyachi shaxsini shakllantirish. Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahlok, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli bõlishi

B. Pedagog – Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga õrnak bõlishi.

C. Barcha yangi bilimlarni egallagan bõlishi

D. pedagogning ma'naviy-axloqiy qiõfasi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik va mutanosiblikdir. Tarbiyachining tashqi qiõfasini ifodalovchi madaniyati.

12. «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, yoki jahldor bo'lishini bilishi lozim, U o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va o'qitsin».kimning fikri?

A. A.S.Makarenko

B. Vigotskiy

C. M. Leontiv

D. Komenskiy

13– bu gavda, qo'l, oyoq harakatidir. Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

A. Impirovizatsiya

B. Illuziya

C. Pantamimika

D. qo'l oyoq harakati

14. Tarbiyachining pedagogik texnikasi tizimida o'z hatti-harakati, hissiyatini idora qilishi va ruhiy (psixik) holatini boshqara olishi ta'lim-tarbiya jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tarbiyachining qanday malakasiga kiradi?

A. Tarbiyachi bilim malakasi

B. Ta'lim tarbiya malakasi

C. O'z hissiyatini boshqara olish malakasi

D. Barcha javoblar to'g'ri

15..... — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

A. Muomala madaniyati.

B. Nutq madaniyati

C. Ta'lim

D. Tarbiya

16. Kim har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yadi?

A. Tarbiyachi

B. Uslubchi

C .MTT rahbari

D .Yordamchi tarbiyachi

17. Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning _____ to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Kerakli sözni qöying.!

A. mehnatsevarligi

B. mustaqilligi

C. tashabbuskorligi

D. A B C javoblar

18. Taqinchoqlarning ko'p va kamligi, ishiga mosligi. Pardozning me'yordaligi, yoshi, kasbi va ishiga mosigi. Soch turmagi(sochning ma'lum bir tartibligi). Pedagogning mimika va pantomimik ifodasi.Bular nimaga kiradi?

A. pedagog axloqi

B .pedagog maxorati

C .pedagog imidji

D. pedagog kasbi

19. O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun tarbiyachi pedagogik texnikasi tizimidan o'rin olgan yana bir malaka – bu ?

A. Tarbiyachining aktyorlik va rejissyorlik malakasi

B. Tarbiyachining mustaqilligi va maxorat

C. Tarbiyachining topqirligi

D. Tarbiyachining bilim va malakalariga

20. Birinchi yarim yillik oxirida ya'ni dekabr, yanvar oylarida o'tkaziladigan kuzatuv nomi qanday?

A. Dastlabki kuzatuv

B. Oraliq kuzatuv

C. Yakuniy kuzatuv

D. Birlamchi kuzatuv

21. O'zbekiston Respublikasining Ikk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari nechta bobdan iborat?

A.2

B.3

C.4

D.5

22. O'zbekiston Respublikasining Ikk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat ta'lablarining 3-bobi qanday nomlanadi?

A. Davlat talablarining tarkibi

B. Yakuniy qoidalar

C. Davlat talablarining maqsad vazifa va asosiy tamoyillari

D. Umumiy qoidalar

23. O'zbekiston Respublikasining Ikk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining 2-bobi qanday nomlanadi?

A. Davlat talablarining tarkibi

B. Yakuniy qoidalar

C. Davlat talablarining maqsad vazifa va asosiy tamoyillari

D. Umumiy qoidalar

24. ...- Bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismidagi odatdagi bog'liqlik. Kerakli so'zni qo'ying ?

A. Inklyuziv ta'lim

B. Reflektiv faoliyat

C. Integratsiya

D. Men konsepsiyasi

25. Inklyuziv ta'lim bu nima?

A. Bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon .

B. O'z tushunchalari va xatti harakaatlarini anglash tizimi.

C. Rivojlanish sohasi

D. To'g'ri javob yo'q.

26. ... -Inson tanasi tushilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar. Nuqtalar o'rnini to'ldiring ?

A. Rivojlanish sohasi

B. Rivojlanish

C. Natija

D. Soha

27. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakillanishi" sohasiga oid kichik sohalarni belgilang?

A. Ijtimoiy xissiy rivojlanish

B. O'qish malakalari

C. Sensomatorika

D. Nutq va til

28. Bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlardan biri?

A. Kutilayotgan natija

B. Kichik soha

C. Rivojlanish

D. Rivojlanish sohasi

29. O'zbekiston Respublikasining IIk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining 4-bobi qanday nomlanadi?.

A. Davlat talablarining tarkibi

B. Yakuniy qoidalar

C. Davlat talablarining maqsad vazifa va asosiy tamoyillari

D. Umumiy qoidalar

30. Davlat talablari O'zbekiston Respublikasining hududida mulkchilik shakli va idoraviy tasarrufidan qat'iy nazar qaysi ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladi?

A. Davlat MTT

B. Nodavlat MTT

C. Maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo'lgan mehribonlik uylari.

D. Hamma javob to'g'iri

31. ...-Bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning uning reflektiv faoliyatining bir qismi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

A. Men konsepsiyasi

B. Reflektiv faoliyat

C. Bola kompetensiyasi

D. T.J.Y

32. Davlat talablarining maqsadi nimadan iborat?

A. Kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini taminlash

B. Mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohatlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida manan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

C. Milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadryatlar asosida bolalarga ta'lim tarbiya bering, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish.

D. Hamma javob to'g'iri

33. Umumiy guruh bo'lib ishlash qanday mashg'ulot turi hisoblanadi.?

A. Yakka ishlash

B. Badiiy adabiyotlar bilan ishlash

C. Frontal

D. To'g'ri javob yo'q

34. Tarbiyachining ish jurnalida « hafta yakuni » bo'limi bo'lib, u nechta qismdan iborat.?

A.8 ta

B.7 ta

C.6 ta

D.4 ta

35. « 05-02 » qanday hujjat?

A. Boshqaruv hujjatlari

B. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi

C. Bolani rivojlanish xaritasi

D. To'g'ri javob yo'q

36. Ish jurnalining sayr bo'limi nechta qismdan iborat.?

A.5

B.4

C.3

D.2

37. Boshqaruv hujjatlari indikatorini belgilang?

A.02-01

B.01-01

C.04-01

D.05-01

38. Maktabgacha ta'lim tashkilotining muhim lokal hujjati bu nima?

A. yillik ish reja

B. tarbiyachining ish jurnali

C. rivojlanish xaritasi

D. To'g'ri javob yo'q

39. Ilk qadam davlat o'quv dasturi nechinchi yilda tasdiqlangan?

A. 2018 yil 18 iyun

B. 2018 yil 3 iyul

C. 2018 yil 8 iyul

D. 2018 yil 7 iyul

40. "05-04" qanday hujjat?

A. Bolaning rivojlanish xaritasi

B. Tarbiyachining ish jurnali

C. Boshqaruv

D. hamma javob to'g'iri

41. "Ijodiy rivojlanish" sohasiga oid kichik sohalarini ajrating?

A. Intelektual anglash malakalari

B. Dunyoni badiiy tasavver etish

C. Xissiyotlar va ularni boshqarish

D. Yirik matorika

42. "Ijtimoiy xissiy rivojlanish" sohasiga oid kichik sohalarni ajratish.

A. Sog'lim turmush tarsi va havfsizlik

B. Nutq va til

C. Men konsepsiyasi

D. Elementar matematik malakalar

43. Davlat talablari asosidagi kichik maktabgacha yosh davrini aniqlang?

A. 3-4

B. 4-5

C. 5-6

D.6-7

44.Davlat talablari asosidagi erta yoshdagi bolalik yosh davrini aniqlang?.

A.Tug`ulgandan 1 yoshgacha

B.1 yoshdan 3 yoshgacha

C.3 yoshdan 4 yoshgacha

D.4 yoshdan 5 yoshgacha

45.Davlat talablari asosidagi kata maktabgacha yosh davrini aniqlang?

A.Tug`ulgandan 1 yoshgacha

B.1 yoshdan 3 yoshgacha

C.3 yoshdan 4 yoshgacha

D.5 yoshdan 6 yoshgacha

46."Nutq, muloqot, o`qish va yozish malakalari sohasiga oid kichik sohani ajrating.?"

A.Qo`l barmoqlari mayda matorikasi

B.Yirik matorika

C.Mayda matorika

D.Sensomotorika

47.Davlat talablarining rivojlanish sohalari nechta?

A.3

B.4

C.5

D.6

48.Davlat talablarining uchinchi rivojlanish sohasini belgilang?.

A.Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzining shakllanishi

B.Ijtimoiy xissiy rivojlanish

C.Nutq, muloqot, o`qish va yozish malakalari

D. Bilish jarayonining rivojlanishi

49. "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasiga oid kichik sohani ajrating?

A. Intelektual anglash malakalari

B. Elementar matematik malakalari

C. Tadqiqiy- bilish va samarali reflektiv faoliyat

D. hamma javob to'g'iri

50. Davlat talablarining rivojlanish sohasining eng oxirgi sohasini belgilang?

A. Bilish jarayonining rivojlanishi

B. Ijodiy rivojlanish

C. Ijtimoiy xissiy rivojlanish

D. To'g'ri javob yo'q

51. Tabel, filtr, potranaj va ota onalar to'g'irisidagi ma'lumotlar aks etgan hujjat qanday nomlanadi?

A. tarbiyachining ish jurnali

B. rivojlanish xaritasi

C. bolalar davomatini qayd etish daftari.

D. To'g'ri javob yo'q

52. "05-03" - qanday hujjat?

A. tarbiyachining ish jurnali

B. rivojlanish xaritasi

C. bolalar davomatini qayd etish daftari

D. To'g'ri javob yo'q

53. ... har bir yosh guruhida tarbiyachi tomonidan oyma oy yuritiladi?

A. potranaj daftari

B. filtr daftari

C. tabel dafari

D.ota-oanalar bilan muloqot daftari

54 .Qaysi daftarda bolaning familiyasi, ismi, sharifi, so'z yasamasi. kabi ma'lumotlar keltiriladi.?

A.potranaj daftari

B.filtr daftari

C.tabel dafari

D.ota-oanalar bilan muloqot daftari

55.Qaysi daftarda tana harorti, teri tozaligi, bosh tozaligi kabi ma'lumotlar keltiriladi?.

A.potranaj daftari

B.filtr daftari

C.tabel dafari

D.ota-oanalar bilan muloqot daftari

56.Maktabgacha ta'lim tarbiyasi tashkiloti tarbiyachisiga ikkinchi malaka toifasini berish qasi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi?

A.Amaliy staj talab qilinmaydi

B.Bola shikastlanganda yoki boshqa hollarda birinchi tibbiy yordamni ko'rsata olishni

C.Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning zamonaviy pedagogik shakl va usullarini,yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanshni bilishi

D.hamma javob to'g'iri

57 .MTT tarbiyachisi lavozimining vazifalari to'g'iri ko 'rsatilgan qatorni belgilang?

A.Tarbiyalanuvchilarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish maqsadida ta'lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish

B.Bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda ta'lim tarbiyaning zamonaviy shakllarini qo'llay olish

C. Tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlari, qiziqish va qobiliyatlarini o'rganish

D. Hamma javob to'g'iri

58. MTT tarbiyachisiga qo'yiladigan barcha umumiy talablarga javob bera olsa qaysi malaka toifasi beriladi?

A. ikkinchi

B. birinchi

C. oliy

D. To'g'ri javob yo'q

59. MTT tarbiyachisi bilishi lozim Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

A. Maktabgacha ta'lim sohasidagi amaldagi normative huquqiy hujjatlarni, bolalar huquqlarini tartibga soluvchi boshqa hujjatlarni

B. Maktabgacha pedagogika va psixologiyani, deffektologiya asoslarini, yosh anatomiyasi va fiziologiyasini

C. Maktabgacha ta'limga qoyilgan davlat ta'lablari mazmunini

D. Hamma javob to'g'iri

60. "01-06" indikatorida nimalar saqlanadi?.

A. MTT ga turli tashkilot va idoralarda kelib tushgan yozishma nusxalari

B. MTT ning asosiy faoliyatiga doir buyruqlarning nusxalari

C. MTT tomonidan chiqarilgan xat va yozishmalar hamda chora tadbirlarning nusxalari

D. Hamma javob to'g'iri

61. Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun nechta sikldan iborat bo'lgan kuzatuv olib boriladi va kuzatuvlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

A. 3 ta kuzatuv. Dastlabki, oraliq va yakuniy kuzatuvlar.

B. 3 ta kuzatuv. O'quv yili boshida, haftalik va yakuniy kuzatuvlar

C. 2 ta kuzatuv. Dastlabki va yakuniy kuzatuvlar.

D.4 ta kuzatuv. O`quv yili boshida, hafta yakunida oy yakunida va yil yakunidagi kuzatuvlar.

62. Bu monitoringni o`tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to`g`riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatuv natijalariga ko`ra, tarbiyachi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug`ilgan holatlarda pedagogika jarayoniga tuzatishlar kiritishi mumkin bu tarifga mos keladigan kuzatuv bosqichini tanlang?

A. Yakuniy kuzatuv.

B. Dastlabki kuzatuv.

C. Oraliq kuzatuv.

D. Oylik kuzatuv.

63. Kuzatuv o`tkazish nechta tamoyilga asoslanadi?

A. 4 ta

B. 5 ta

C. 3 ta

D. 6 ta

64. Pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasda erishilgan natijani qaysi tegishli belgi (..) bilan belgilaydi.

A. /

B. +

C. -

D. ✓

65. Bolalar rivojlanish xaritasi necha yonalishga bo`lingan?

A. 5 ta

B. 6 ta

C. 4 ta

D. To`g`ri javob yo`q

66. “Kattalar tomonidan boshlab berilgan tanish ertak, hikoyani davom ettiradi” bu sifatlar bolaning necha yoshlariga togri keladi?

- A. 4 yosh, 4 yoshu 3 oylik
- B. 4 yosh 3oylik, 4 yoshu 6 oylik
- C. 4 yosh 6oyli, 4 yoshu 9 oylik
- D. 4 yoshu 9oylil 5 yosh.

67. “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari” yo‘nalishining kichik sohalari togri korsatilgan javobni tanlang?

- A. Nutq va til, O‘qish ko‘nikmalari, Qo‘l panjasining mayda motorikasi.
- B. Men-konsepsiyasi, Hissiyotlar va ularni boshqarish
- C. Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot, Sensomotorika.
- D. Barcha javoblar togri.

68. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yo‘nalishining kichik sohlariga tegshli bolmagan javobni toping?

- A. Sensomatorika
- B. Mayda matorika.
- C. Qo‘l panjasining mayda matorikasi.
- D. Yirik matorika.

69. Bola nechi yoshidan 3 g‘ildirakli vellosepedda ucha olishi rivojlanish xaritasida belgilangan.?

- A. 3 yosh, 3 yosh 3 oylik
- B. 3yoshu 3 oylik, 3 yoshu 6 oylik
- C. 3yoshu 6 oylik, 3 yoshu 9 oylik
- D. 3yosh 9 oyli, 4 yosh

70. Bu davr bolaning o‘shish, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davridir tarifaga mos keluvchi javobni toping?

- A. Perenital davri.
- B. Chaqaloqlik davri.
- C. Go'daklik davri.
- D. Maktabgacha yosh davri.

71....- bu barcha ruxiy va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq, bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus xissiy xolati — ilxomlanishi, shuningdek, ruxiy kechinmasi, muammoni jon-jaxti bilan xal etish istaklari majmuasi. Togri javobni toping.!

- A. Ijodiy qobiliyat.
- B. Ijodiy faoliyat .
- C. Ijodkorlik
- D. To'g'ri javob yo'q

72. Mttning qaysi xujjatining asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste'dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan.

- A. "Ilk qadam va "Davlat talablari"
- B. Rivojlanish xaritasi.
- C. "Maktabgacha ta'lim konsepsasi"
- D. A va C javoblar togri.

73. Ijodiy qobiliyat bu- togri tarifni tanlang.!

A. yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oyani ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda topish, natijada yangi asl maxsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari, tavsifnoma) qobiliyatlaridir.

B. barcha ruxiy va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq, bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus xissiy xolati — ilxomlanishi, shuningdek, ruxiy kechinmasi, muammoni jon-jaxti bilan xal etish istaklari majmuasi.

C. bu insoniyatni bir necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida aloxida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne'mati bo'lib, bugungi kunda insoniyat

yaratayotgan barcha moddiy xamda ma'naviy boyliklar esa ana shu oliy ne'matning u yoki bu ko'rinishidir, ya'ni maxsulidir.

D. Togri tarif berilmagan.

74. Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo'llarini o'rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni necha bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin.

A. 3

B.4

C.2

D.5

75.Bola necha yoshlaridan atrofdagi olamga qiziqish bildiradi?

A.3 yoshu 3oylikdan 3 yoshu 6oylikkacha

B.3 yoshu 6 oylikdan 3 yoshu 9 oylikkacha

C.3 yoshu 9 oylidan 4 yosh,4 yosh 3 oylikkacha.

D.4 yosh 3 oylidan 4 yosh 6 va 4yoshu 9 oylikkacha.

76.Bolalar rivojlanish xaritasining 5-yonalishi nima deb nomlanadi?

A. Dunyoni badiiy his etish.

B. Ijodkorlik.

C.Nutq,muloqot,oqsh yozish.

D.Soglom turmish tarzi.

77. Bilish jarayonining rivojlanishi yonalishining kichik sohasiga kiruvchi javobni tanlang?

A. Intellektual-anglash ko'nikmalari

B. Elementar matematik ko'nikmalar.

C. Anglash-tadqiq qilish va samarali (amaliy) faoliyatni rivojlantirish.

D.Barcha javoblar togri.

78. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nima orqali rivojlanish va dunyoni badiiy his etishni o'rganadi?

- A. Ertak eshtish.
- B. Sayrga chiqish.
- C. Bilim olish.
- D. O'yin oynash.

79. Qumdan turli shakllar va piramidalar quradi necha yoshlarda kuzatishimiz kerak?

- A. 4 yosh ,4yoshu 3 oylik.
- B. 4 yoshu 3 oylik, 4 yoshu 6 oylik
- C. 4 yosh 6 oylik, 4 yosh 9 oylik
- D. 4yosh 9 oylik, 5 yosh.

80. Psixolog va tarbiyachining hamkorlikdagi vazifalari berilgan javobni toping!

- A. ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish
- B. bolani individual psixologik qo'llab-quvvatlash;
- C. bolaning rivojlanishi uchun sharoit yaratish, uning farovonligini ta'minlash;
- D. tarbiyachilar bilan ijobiy hamkorlikni qurishda bir qator muammolarni samarali hal qilish .
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

81. Ta'lim jarayonida psixolog va tarbiyachining o'zaro munosabatlarining afzalliklari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilmagan?

- A. Tarbiyachining faoliyatida psixologik ishlarning samaradorligini oshirishiradi.
- B. To'g'ri javob ko'rsatilmagan.
- C. Yaxlit, izchil rivojlanayotgan muhitni yaratish qobiliyati shakillanadi
- D. Ta'lim muhiti psixologik mazmun bilan to'ladi.

82. Ta'lim jarayonida psixolog va tarbiyachining o'zaro munosabatlarining xususiyatlari berilgan javobni toping?

- A. bolalar va kattalarning hamkorligi ,
- B. bolaning tan olinishi ;
- C. bolalarning turli faoliyat turlarida tashabbusini qo'llab-quvvatlash
- D. To'g'ri javob yoq.

83. Defektolog qaysi guruh bolalari bilan ish olib boradi?

- A. Tayorlov va o'rtta guruh.
- B. Kichik va o'rtta guruh.
- C. Katta va tayyorlov.
- D. O'rtta va katta guruh.

84. Tarbiyachilarga bola bilan qanday tovushlar ustida ko'roq ish olib borish haqida ma'lumot beradi va guruhda nutq tovushlarni avtomatlashtirish uchun bolalar bilan tovushlar ustida ishlashni va nutqni to'g'rilashda tarbiyachidan kim yordam berishni so'raydi?

- A. Defrktolog.
- B. Til o'qituvchisi.
- B. Tarbiyachi yordamchisi.
- D. Uslubchi.

85. Kun tartibida bolalarning so'z boyligini faollashtirish, boyitish va aniqlashtirish qaysi pedagogning vazifasi?

- A. Defektolog.
- B. Tarbiyachi.
- C. Til o'qituvchisi.
- D. Uslubchi.

86. Bolalarning tabiiy muloqot holatiga sarflangan grammatik inshootlarni kiritish. Ular bilan muloqot qilish vaqtida bolalarning nutqining grammatik to'g'riligini nazorat qilish qaysi pedagogning vazidasi sanaladi?

A.Til o'qituvchisi.

B. Defektolog

C.Tarbiyachi

D To'g'ri javob yo'q

87. Qaysi pedagog bolalarni bilmagan savoliga javob berishga majburlashi, gapirayotganda to'xtatishi va qo'pol muomila qilishi, bola bilmaydigan tovushlar bilan to'yingan iborani talaffuz qilishga majburlash mumkin emas?

A.Defektolog.

B.Tarbiyachi.

C. Uslubchi.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

88. Barkamol shaxsni tarbiyalashda qaysi omillar o'rtasidagi hamkorlikni mustaxkamlashga e'tibor qaratilishi lozim?

A.Nasil,tarbiya, muhit.

B.Irsiyat, oila, muhit.

C.Ta'lim, tarbiya,muhit.

D.Nasil, jamiyat.

89. Nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lmagan noaniq ruhiy funksiyalarni rivojlantirish: og'zaki-mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, tasavvur. Ushbu vazifa ga tegshli. Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

A. Defektolog.

B. Tarbiyachi.

C.Uslubchi.

D.Til oqituvchisi.

90. Qaysi vaqtda bolalar o'z tashabbusi bilan qo'shiq kuylashlari, raqsga tushishlari, musiqa tinglashlari mumkin?

A. Kunning birinchi qismida

B. Kunning ikkinchi qismida

C. Sayr vaqtida.

D. Ertalabki suxbatta.

91. Qulay hissiy muhitni yaratish, asabiy taranglikni bartaraf etish va bolalar salomatligini saqlash Bu qaysi faoliyatning natijasi?

A. Musiqa faoliyati.

B. Jismoniy tarbiya faoliyati.

C. Markazdagi faoliyat.

D. O`yin faoliyati.

92. Mantiqiy o'quv materiallarini o'rganish, charchoqning oldini olish bu qaysi faoliyat natijasi hisoblanadi?

A. Markazdagi faoliyat

B. O`yin faoliyati

C. Musiqa faoliyati

D. Jismoniy tarbiya faoliyati.

93. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy va ijtimoiy salomatlik poydevorini shakllantirishda muhim rol o`ynaydi. Nuqtalar o`rnini to'ldiring!

A. O`yin faoliyati

B. Jismoniy tarbiya faoliyati.

C. Musiqa faoliyati.

D. Markazdagi faoliyat

94. Odatda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari necha qismga bo'linadi?

A.2

B.4

C.5

D.3

95. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari turli usullarda tashkil etiladi ular to'g'ri korsatilgan javobni belgilang.

- A. Frontal, guruhli
- B. Individual, to'garak.
- C. To'g'ri javob yoq
- D. A va B javoblar to'g'ri.

96..... qismida tarbiyachi bolalarning xatti-harakatlarini kuzatadi, yurish vaqtida masofaga rioya qilishni kuzatadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

- A. Kirish
- B. Asosiy.
- C. Yakuniy.
- D. To'g'ri javob yo'q

97. Qaysi faoliyat turi bolalarda chidamlilik, Iroda, e'tibor, xotirani rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi?

- A. Jismoniy tarbiya faoliyati.
- B. O'yin faoliyati.
- C. Musiqa faoliyati.
- D. Markazdagi faoliyati.

98. Axborot, rivojlanish, mobilizatsiya, yo'nalish, konstruktiv, tashkilotchilik, kommunikativ, tadqiqot. Bu vazifalar qaysi pedagoglarning hamkorlik vazifalariga kiradi?

- A. Musiqa raxbari va tarbiyachi.
- B. Jismoniy tarbiya yoriqchisi va tarbiyachi.
- C. Defektolog va tarbiyachi.
- D. Til o'qituvchisi va tarbiyachi.

99. Jismoniy tarbiya faoliyati qaysi guruhdan boshlab o'tiladi?

- A. Kichik

B.O'rt.

C.Katta.

D.Tayarlov.

100. Markazlarda ishlashda bolalarning qaysi jarayonlari rivojlanadi?

A. Nutq muloqot

B. Nutq,taffakkur,muloqotga kirishish

C. Muloqotga kirishish

D. Tafakkur

101 Bu ta'lim turi rivojlanishda psixik, jismoniy, aqliy tomondan öz dōstlaridan orqada qolayotgan bolalar uchun mōljallangan. Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

A. Guruhli ishlash

B. Frantal ishlash

C. Kichik guruh bilan ishlash

D. Yakka ishlash

102. Qaysi mashg'ulotlar aniq jadval asosida, bitta mavzuga qaratilgan, guruhdagi barcha bolalar bilan birga o'tkazilgan ta'lim jarayonidir.

A. Kichik guruh mashg'ulotlari

B. Bolalar bilan yakka ishlash

C. Frontal mashg'ulotlarda

D. Umumiy guruh bōlib ishlash

103. Frantal mashg'ulotlar necha xil bōladi?

A. 2

B. 5

C. 3

D. 4

104. Qaysi mashg'ulotlar markazdagi faoliyatni kuzatish asosida kelibchiqadi?

- A. frontal
- B. ananaviy
- C. guruhli
- D. Mujassam

105. An'anaviy mashg'ulotlarda fikrni davom ettiring?

- A. Körgazmali qurollardan foydalaniladi
- B. Tarbiyachi mavzuni töğridan töğri yoritadi
- C. Tarbiyachi mavzuni ertaklar orqali bayon etadi
- D. AKT dan foydalaniladi

106. Obrazlar kiritish orqali mashg'ulot ötkaziladi - bu qaysi mashg'ulot turi?

- A. Mujassam
- B. Frontal
- C. An'anaviy
- D. Noan'anaviy

107. Noan'anaviy mashg'ulotimizga badiiy adabiyot, matematika, nutq o'stirish, tasviriy faoliyat, tevarak atrof, tabiat bilan tanishtirish, musiqa mashg'ulotlarini kiritsak umashg'ulotga aylanadi. Fikrni to'ldiring!

- A. An'anaviy
- B. Mujassam
- C. Noan'anaviy
- D. Frontal

108. Tarbiyachining ish daftarida haftaning 5 ta kuni uchun nechta dan mashg'ulot grafalari berilgan?

- A. 1
- B. 3

C. 2

D. 4

109. Mashg'ulot tuzish tartibi to'g'ri berilgan qatorni toping?

A. Kirish , Asosiy, Yakuniy , Xulosa

B. Kunning birinchi yarmi, Kunning ikkinchi yarmi

C. Oy mavzusi, Kun mavzusi , Hafta mavzusi, Kirish xulosa

D. Mashgulot mavzusi, Mashgulotning maqsadi, Mashgulot uchun kerakli jixozlar

Mashgulotning borishi:

kirish qismi

asosiy qism

yakuniy qism

110. Kim bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish yuzasidan pedagog kadrlar bilan ishlash, ularga metodik maslahatlar berib borishidhlarini amalga oshiradi?

A. Mudira

B. Tarbiyachi

C. Vazirlik

D. Metodist

111. Ish jurnali orqali metodist tashkilot faoliyatidagi yangiliklar, g'oyalar, takliflar hamda amaliy jarayonlarnidavomida yig'ib boradi nuqtalarni töldiring!

A. yil

B. hafta

C. oy

D. kun

112berilgan takliflar, tavsiyalar, kamchiliklar asosida kelgusi hafta, oy rejalari belgilanadi.

- A. qarorlarda
- B. frantal mashg'ulot daftarida
- C. ish jurnalida
- D. Yillik o'quv kitobida

113. Qaysi reja quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi?

- A. Pedagog-kadrlar bilan ishlash.
- B. Tashkiliy-pedagogik ishlar.
- C. Hamkorlik ishlari.
- D. Tadbirlarga tayyorgarlik.

114. Maslahatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun oyda necha marta o'tkaziladi ?

- A. 1.
- B. 2
- C. 4
- D. 3

115. "04 -02" bu..... fikrni to'ldiring!

- A. Hamkorlik
- B. Tarbiyanuvchi
- C. Tarbiyanuvchi
- D. Metodistning shaxsiy ish rejasi

116. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma'lumot. Xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborat -kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi .ikki yildan kam bo'lmagan pedagogik ish staji ...yuqoridagilar qaysi talablarga kiradi.

- A. Malaka talablar

B. MTT mudirasiga qöyilgan talablar

C. Könikma talablari

D. Pedagog talablari

117. Tashkilotning yillik va istiqbol ish rejalari loyihalarini ishlab chiqish va tashkilot rahbariyatiga kiritish kimning vazifasi?

A. Tarbiyachi

B. Uslubchi

C. Psixolog

D. Mudira

118. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish vaqtlarini bilim saviyasini nazorat qiluvchi shaxs bu.... ?

A. Metadist

B. Vazirlik

C. Psixolog logoped

D. Mudira

119. Metadist bilishi lozim.... jumlani to'ldiring!

A . Maktabgacha ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy xujjatlar va ularning mazmun-mohiyatini;

B. Maktabgacha ta'lim tizimini Maktabgacha ta'limning davlat ta'lim talablarini, maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasini

C. Maktabgacha ta'limning davlat talablari, ta'lim-tarbiya reja va o'quv dasturlarining mazmuni, zamonaviy axborat texnologiyalaridan foydalana olishni.

D. Maktabgacha ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy xujjatlar va ularning mazmun-mohiyatini. Maktabgacha ta'limning davlat ta'lim talablari, ta'lim-tarbiya reja va o'quv dasturlarinin mazmuni. Zamonaviy axborat texnologiyalaridan foydalana olish; Maktabgacha ta'lim pedagogikasi psioxologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasini;

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020yil 23 sentyabdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. M.Mirziyoyev Sh. 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmoni.
5. Sh.M.Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. –T., 2016.
6. Mirziyoyev Sh. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016.
7. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
8. Yo‘ldoshev J. “Ta’lim yangilanish yo‘lida” T.: O‘qituvchi. 2000 yil
9. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. T. : 2018.
10. O‘zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T.: 2018.
11. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim Vazirligining 155-sonli qarori: T.: 2019
12. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma‘naviyat”. 2013
13. N.Qayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
14. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika.-T.: “O‘qituvchi”,1993 yil.
15. Yo‘ldoshev J. “Ta’lim yangilanish yo‘lida” T.: O‘qituvchi. 2000 yil
16. M.Ismailova. Idrok jarayoni –etakchi omil: 6-7 yoshli bolalarda tarbiya// Boshlang‘ich ta’lim.1999. №3. 36-37 b.

17. Belaya V. Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik kengash.-M., 2009.
18. S.Mirjalilova, R.To'laganova. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma.-T.,2008.
19. O.Xasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqachi", 2007 y.
20. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma. T.: 2001.
21. Каширский Д.В. Психология личностных ценностей // Автореф...дисс... доктора психологических наук. – М., 2014.
22. Innovative Pedagogical Approaches in Early Childhood Care and Education (ECCE) in the
23. Asia-Pacific Region. (2016). UNESCO. Retrieved December 10, 2017 from
24. Innovative Pedagogical Approaches in Early Childhood Care and Education (ECCE) in the Asia-Pacific Region. (2016). UNESCO. Retrieved December 10, 2017 from.
25. Innovative Strategies and Methods in Pre-school Education. March 2018. Radhika Kapur. University of Delhi. Article.
26. Колесникова И.А. Педагогическая реальность: опыт межпарадигмальной рефлексии. Курс лекций по философии и педагогике. – Спб., 2001.
27. В.А.Сластенин, И.Ф. Шиянов, Общая педагогика.- "Владос",2003.
28. Л.М. Мардахаев. Социальная педагогика Москва, "Просвещение", 2006
29. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti.2008 yil
30. N.M. Egamberdiyeva Ijtimoiy pedagogika.- T.:2014 Darslik

Internet saytlari

1. Kitobxon.uz
2. tdpu-INTRANET.Ped
3. referat.uz
4. vvvvvv. Ziyonet. uz
5. vvvvvv. pedagog. uz
6. vvvvvv. edu. uz
7. vvvvvv. tdpu. uz

MUNDARIJA

Kirish		4
I Bob	Hozirgi davr pedagog-tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi.	7
1.1	Pedagog-tarbiyachilik kasbi va uning jamiyatda tutgan oʻrni.	7
1.2	Maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachisiga qoʻyilgan malaka talablar.	12
1.3	Maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachisiga qoʻyilgan malaka talablar.	15
1.4.	Pedagog-tarbiyachining kommunikativ qobiliyati, kreativligi, kasbi kompetensiyasi.	18
II Bob	Oʻzbekiston respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari.	28
2.1	Oʻzbekiston respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablarining maqsad, vazifa va asosiy tamoyillari.	28
2.2	Oʻzbekiston respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablarining rivojlanish sohalari.	31
III Bob	“Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi.	42
3.1	Mtt taʼlim jarayonining maqsad va tamoyillari.	42
3.2	Maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim berishda kompetensiyaviy yondashuv.	45
3.3	Oʻquv-tarbiyaviy faoliyat.	48
IV Bob	Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi.	52
4.1	Guruhning kun tartibini toʻgʻri rejalashtirish.	52
4.2	Taʼlim-tarbiyaviy faoliyatni toʻgʻri tashkil etish.	55
4.3	Sayrni toʻgʻri tashkillashtirish.	58
4.4	Kunning ikkinchi yarmini samarali tashkil etish.	60
V Bob	Bolalar davomatini qayd etish daftari	67
5.1	Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, patronaj va ota-onalar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar).	67

VI Bob	Bolalar rivojlanish xaritasi.	73
6.1	Bolalar rivojlanish xaritasini yuritish tartibi.	73
VII Bob	MTTda ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish tartibi.	94
7.1	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy jarayoni mavzuli rejalashtirish.	94
7.2	O'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish	95
VIII Bob	Tarbiyachining pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi.	103
8.1	Psixolog bilan hamkorlik.	103
8.2	Defektolog bilan hamkorlik.	105
8.3	Musiqah rahbari bilan hamkorlik	109
8.4	Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bilan hamkorlik	112
IX Bob	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni rejalashtirish.	115
9.1	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyat	115
9.2	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy guruh bo'lib o'tkaziladigan faoliyatlarni tashkil qilish.	118
X Bob	Portfolio va uni shakllantirish.	124
10.1	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining portfoliosi.	124
10.2	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisining portfoliosi.	126
XI Bob	Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistning ish xujjatlari.	130
11.1	Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining lavozim vazifalari	130
11.2	Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining ish hujjatlari.	133
XII Bob	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik kengash faoliyati.	138
12.1	Pedagogik kengash faoliyatini tashkil etish va uning ish mazmuni.	138
Umumiy xulosa		142
Izohli lug'at		143
Testlar		146
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati		174

